



ALJABRNING  
TUG'ILISHI

**MIRKARIM  
OSIM**

  
**YANGI ASR AVLOD**  
TOSHKENT  
2017

**УО'К: 821.512.133-31**

**КБК: 84(50')6**

**О 80**

**Osim, Mirkarim**

Aljabrning tug'ilishi: qissalar/Mirkarim Osim. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 144 b.

ISBN 978-9943-27-990-2

Mazkur kitob tarixchi-yozuvchi Mirkarim Osimning eng mashhur ikki asaridan tarkib topgan. «Aljabrning tug'ilishi» va «Karvon yo'llarida» deb nomlangan har ikkala asar bugungi davr o'quvchisi o'qishi shart bo'lgan kitoblar sirasiga kiradi. Millatimizning buyuk dahosi bo'lmish al-Xorazmiy haqidagi afsona va rivoyatlarga asoslangan «Aljabrning tug'ilishi» qissasi o'quvchining ham tarixiy, ham ma'naviy bilimini boyitadi. Unda nafaqat buyuk olimning ilmiy faoliyati, balki davrga xos ijtimoiy va siyosiy voqealar, umuminsoniy fazilatlar, tuyg'ular o'rtaсидаги qarama-qarshiliklar jonli va rangli tasvirlarda ifodalanadi. Feruz va Yoqutoy o'rtaсидаги go'zal sevgi hamda ularning muhabbatiga raxna soluvchi qora kuchlar bilan o'quvchi asar mutolaasi davomida tanishadi.

«Karvon yo'llarida» asarida Buxoro xoni Abdullaxon davrida jamiyatda hukm surgan vaziyat hamda siyosiy jarayonlar tarixiy faktlar asosida ifodalanadi. Asar qahramonlaridan biri, jabrdiyda Zahro obrazi o'quvchi qalbini junbishga keltiradi. Asira qizning go'zalligi xonlar va elchilar orasida tilga tushganligi bois, uning taqdiri ayanchli tus oladi...

**УО'К: 821.512.133-31**

**КБК: 84(50')6**

ISBN 978-9943-27-990-2

© Mirkarim Osim, «Aljabrning tug'ilishi». «Yangi asr avlodi», 2017-yil.

*So‘zboshi o‘rnida*

## **TARIXCHI ADIBLARNING ASL USTOZI**

Mirkarim Osim 1907-yilda Toshkent shahrida zi-yoli oilasida dunyoga kelgan. 1918-yildan «Shams ul-urfon» nomli boshlang‘ich maktabda o‘qigan. 1921-yildan Alisher Navoiy nomidagi respublika bilim yurtida, 1926–1930-yillarda Moskva Davlat pedagogika institutining tarix-iqtisod fakultetida tahsil olgan.

Dastlab she’rlar yozgan. So‘ng tarix fanidan qator qo’llanma, tavsiya, darsliklar yaratgan. 1940-yilda Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqidagi «Astrobod», «Alisher Navoiy va Darvishali», «Badarg‘a», «Navoiyning xislatlari», «Ulug‘bek va Navoiy» singari hikoya va tarixiy qissalar yozgan.

Mirkarim Osim, asosan, tarixiy mavzularda qis-salar yozgan. Qahramonlik mavzuyiga oid «O‘tror», «To‘maris», «Temur Malik», «Aleksandr va Spitamen», maishiy mavzudagi «Mohlaroyim va Xonposhsha», «Karvon qo‘ng‘irog‘i», «Elchilar» kabi asarlari allaqa-chon o‘quvchilar e’tirofiga sazovor bo‘lgan.

Tarjimayi hol tarzidagi tarixiy asarlar namunalari sifatida Alisher Navoiy haqidagi «Zulmat ichra nur», Beruniyga bag‘ishlangan «Jayhun ustida bulutlar», Tabobat ilmi bilimdoni hayoti asos qilib olingan «Ibn Sino qissasi», al-Xorazmiy umr yo‘li va faoliyatidan hikoya qiluvchi «Aljabrning tug‘ilishi», Mashrabga atalgan «Singan setor» kabi qissalarini aytib o‘tishi-miz mumkin.

Mirkarim Osim tarixchi adiblar orasida asl man-bani buzmay, qayta badiiy jonlantirishi bilan ajralib turadi. Uning asarlari 70-90-yillar tarixiy adiblari uchun asosiy manba vazifasini o'tadi.

Mirkarim Osim keyingi avlod yozuvchilari uchun ko'prik vazifasini o'tagan ijodkorlardan. Bugungi kunning mashhur va tanilib kelayotgan tarixchi adiblari Mirkarim Osimni o'zlarining ustozlari deb biladilar.

Tarixchi adib tavalludining 70-yilligi munosabati bilan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xo-dimi unvoni berilgan. U 1984-yilda vafot etgan.

Vatan oldidagi xizmatlari inobatga olinib, 2001-yilda «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlangan.

***Muharrirdan***

## **ALJABRNING TUG'ILISHI**

---

### **I**

– Shahri Bag'dodga sog'-salomat yetib kelganiningzidan behad xursandman, yana ko'rishadigan kun bor ekan, – dedi uy egasi – marvlik Xolid ibn Abdumalik keng peshonali yosh mehmon bilan quchoqlashib ko'rishar ekan. – Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso janoblari qachon yetib kelar ekanlar, deb yo'lingizga muntazir edik. Alhamdulilloh, yana diyordi ko'rishar ekanmiz, ming qatla shukurki, avvalgidek tetik va bardam ekansiz.

Ko'pdan buyon ko'rishmagan ikki do'st, hol-ahvol so'rashib bo'lganlaridan keyin ko'rpachaga o'tirdilar. Uzun yaktakli, qotmadan kelgan uy xizmatkori ularning oldiga dasturxon yozib, barkashda turli noz-ne'matlar va ikki kosa sharbat keltirib qo'ydi. Soch-soqoliga oq oralab qolgan o'rta yoshli mezbon xursandligini yashira olmay, «qani, olsinlar» degandek, tomirlari bo'rtib chiqqan qo'li bilan dasturxонни ko'rsatdi.

– Marv shahrida menga emakdosh bo'lgan yor-do'stlarni sog'indim, – dedi yoshi o'ttizdan oshgan, qalin qoshli mehmon non tishlab, behi sharbatidan ho'plar ekan, – Ahmad al-Farg'oniy, Ahmad ibn Abdulloh, Muso ibn Shokir va uning o'g'illari sihat-salomat yuribdurlarmi?

– Alhamdulilloh, hammalari eson-omon, sizni ko'rishga, suhbatingizdan bahramand bo'lishga mushtoqdurlar.

Ular dasturxon ustida Xurosonda birga o'tkazgan kunlarini, boshlaridan kechirgan voqealarni eslab, suhbatlashib o'tirishdi. Mezbon tilining uchida tur-gan gapni aytish uchun payt poylab turardi.

– Kechikib kelishingizning sababi nima? – deb so'radi u negadir o'zini noqulay sezib. – Xalifa hazratlari ham: «Na uchun Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso kechikdi, uni zudlik bilan huzurimga jo'nat, deb Xorazmshohga maktub yuborgan edim-ku», deganlari ni ikki marotaba eshitdim. Nima hodisa yuz berdiki, shahri Bag'dodga qadam ranjida qilgingiz kelmadi?

– Buning sababini sizgagina ayta olaman, – dedi mehmon o'ylanqirab. – Ma'mun Xuroson qo'shini bilan Bag'dodni bosib olganidan so'ng o'z inisi Aminni qatl ettirganini, Ozarbayjonda boshlangan zardush-tiylar qo'zg'olonini shafqatsizlik bilan bostirib, asirlarni o'ldirayotganini eshitib, bu yerga kelishga oyog'im tortmay qoldi. Otashparastsan, deb begunoh odamlarni bola-chaqasi bilan qirib tashlash – o'ta zolimlik-ku!

Xolid ibn Abdulmalik oqara boshlagan boshini qashib, miyig'ida kulib qo'ydi-da:

– Sizga al-Majusiy deb laqab qo'yanlari beziz emas ekan, otashparastlarga bu qadar xayrixoh ekanligin-gizning sababi endi ma'lum bo'ldi, – dedi.

– Ha, bobom rahmatli zardusht dini rahnamolari-dan biri edilar. Arab sarkardasi Qutayba binni Muslim Xorazmni bosib olganidan keyin hammani zo'r lab islam diniga kiritdi. Xorazm yozuvini bilaturgan odamlarni o'ldirtirib, qadimiylar kitoblarimizni yondirib yubordi. Eski e'tiqodlariga sodiq bo'lgan bobom jon saqlab qolish uchungina arab tilida kalima keltirish-ga majbur bo'lgan ekanlar.

– O'tgan ishga salavot, – dedi uy egasi mehmonning chaqnagan ko'zlariga kulimsirab qarab, – aytil-gan so'zni, otilgan o'qni qaytarib bo'lmas, degan ma-

---

---

qol bor. Xarobaga aylangan Xorazm yana obod bo'lib, qaddini rostlab oldi, yana bilim urug'lari o'sib chiqqa boshladi-ku!

– Yurtimizda eski madaniyat qo'ri bor edi-da! Qutayba binni Muslim yonib turgan ma'rifat o'chog'ini so'ndirishga urindi, ammo bid'at-xurofot kuli ostida ma'rifat cho'g'lari qolgan ekan.

– Borakallo, xalifa Ma'mun saroyiga to'plangan olimlar yana ilm-ma'rifat gulxaniga o't qalab yubordilar. Xorazm yana olimlar yetishtira boshladi, yopilib qolgan ma'rifat darvozasi ochildi. Keling, kechagi kunni yodlab, bugungi kunni zaharlama maylik, imkoniyatlardan foydalanib qolaylik.

– Rost, men ham shul mulohaza bilan yo'lga chiqishga majbur bo'ldim, – dedi mehmon qalin qoshlarini kerib qo'yib.

– Qayerda bo'sangiz ham xalifa hazratlari sizni topdirib keltirar edilar. Vaziri a'zam al-Afzal ibn Sahl janoblari ham sizni sabrsizlik bilan kutayotgan edilar.

– Ha, ul kishi Marv shahrida saroy vaziri bo'lib turganlarida menga xayrixoh bo'lib, kechalari mendan hind hisobini o'rganur edilar. Shul sababdan bo'lsa kerak, menga bir maktub yo'llab, darhol poytaxtga yetib kelishimni iltimos qildilar. Shuning uchun to'g'ri kelib, ul kishining huzurlarida bo'ldim. Kechikib kelganim uchun norozi ekanliklari aftalaridan bilinib turar edi. Sir boy bermay, meni yaxshi qabul etib, ikki-uch kun o'tmay alohida hovli topib berishni va'da qildilar. Hozir karvonsaroyda turibman.

– Menikiga ko'chib kelaqoling. Siz uchun alohida xona bor.

– Tashakkur, sizni bezovta qilishni istamayman. Karvonsaroy hujrasida orom olib, o'zimga kelib olay.

Ular allavaqtgacha gaplashib o'tirib, o'tgan voqealarni esladilar.

---

Ma'munning otasi xalifa Xorun ar-Rashid o'zining eroniylarga imtiyozlar berib, Xuroson va O'rta Osiyoda yetishgan olimlarni o'z atrofiga to'play boshlaydi, har tarafdan ko'hna kitoblarni toptirib, kutubxonasini boyitadi. Xorazmlik yosh olim Muhammad ibn Muso uning buyrug'i bilan sharqiy Afg'oniston, shimaliy Hindistonga borib, riyozat va astronomiyaga doir bir talay ilmiy asarlarni olib keladi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay Xorun ar-Rashid olamdan o'tadi. U ikkinchi xotinidan bo'lgan Amanni taxt vorisi qilib tayinlab ketgan edi. Otasining bu ishidan norozi bo'lgan Ma'mun tishini tishiga qo'yib, sabr qilib turadi, sekin-asta turkiy xalqlardan askar to'plab, poytaxt Bag'dodni bosib olishga tayyorlana boshlaydi.

Ma'munga ergashib, Dajla bo'yiga kelgan Xolid ibn Abdumalik ko'rgan-kechirganlarini bayon qilar ekan, Xorazmiyning ko'zi o'ngida dahshatli manzaralar birin-ketin o'ta boshladи.

Bag'dod shahri bo'sag'asidagi qonli janglar, shahar qo'rg'oniga shoti qo'yib chiqayotgan qiyiq ko'zli jang-chilarning «urho-ur» deb qichqirishlari, u yer-bu yerdan ko'tarilgan alangalar, ko'ksiga nayza sanchilgan askarlarning ingrashi, ayollarning dod-faryodlari...

Nihoyat, xalifa Amin yengilib, shahardan qochdi. Uni tutib olib, akasi oldiga sudrab keldilar. Egnida yiltiroq po'lat sovut, boshiga dubulg'a kiygan aka qilichining dastasini changallab, darhol ukasining kallasini olishni buyurdi.

---

---

Ma'mun Pomir tog'laridan Ispaniyagacha cho'zilgan o'lkalarga hukmdor bo'lib, o'zini xalifa deb e'lon qilganidan keyin<sup>1</sup> bir qo'li bilan u yer-bu yerda boshlangan xalq qo'zg'olonlarini bostira boshladi, ikkinchi qo'li bilan atrofiga olimlarni to'plab, ilm-fan uchun ko'plab mablag' sarf qilishga kirishdi.

Bayt ul-hikma, ya'ni donishmandlar uyini tashkil qilib, hind, yunon, suryoniy tillarida yozilgan ko'hna kitoblarni yig'dira boshladi.

## II

– Abu Abdulloh Muhammad ibn Musodek buyuk olimning qatorimizga kelib qo'shilganidan behad mammunmiz. Marhamat qilib Bayt ul-hikma kalitini qo'lga olsalar-u, hujralardagi kitoblarni tartibga keltirishga yordam bersalar, yosh olimlar va tolib ul-ilmlar u kishining maslahati bilan har ilmga doir kitoblarni ayrim hujralarga joylab, ro'yxatga olsalar... – deb gapida davom etdi, to'rda, fil suyagidan yasalgan naqshli kursi ustida o'tirgan Ma'mun. – Shoyi, atlas chopon, yupqa jun chakmon kiygan, boshlariga yumaloq oq salla o'ragan olimlar katta uyning devori tagiga solingan ko'rpachalarda qo'l qovushtirib o'tirar edilar. Ustdagi zardo'z choponi ko'zni qamashtirdigan oq yuzli, rangi toza xalifaning o'ng tomonidan joy olgan al-Xorazmiy uning gapini ma'qullab, bosh egib qo'yari edi.

– Marv shahridan sandiqlarda keltirilgan hind tili-dagi asarlar tartibsiz holda. Ulardan eng muhimlarini arab tiliga tarjima qilishni Abu Abdulloh Muhammad binni Muso janoblariga, astrunumiyo va astruluxiyoga doir kitoblarni yunon tilidan tarjima qilishni Yahyo binni Musoga topshirsak... – Yosh xalifa og'zidan chiqqan

---

<sup>1</sup> Ma'mun 813-yili taxtga o'tirgan edi.

---

ba'zi so'zlarni tushunmay peshonalarini tirishtirib o'tirgan yosh olimlarga qarab: – Yunoniylar astrunumiyo deb ilm ul-falakni, astruluxiyo deb ilmi nujumni aytdilar, astr – yulduz demakdir, – deb qo'ydi.

Uning donishmandligini tan olgan olimlar indamay bosh egib qo'ydilar.

O'zidan uch yosh kichik bo'lgan Ma'mun bilimdonligini ko'z-ko'z qilayotganligini fahmlagan al-Xorazmiy esa yerga qarab qoldi.

\* \* \*

Bayt ul-hikma kaliti qo'liga tekkandan keyin al-Xorazmiy yosh olimlar bilan birga Hindiston, Eron, Iskandariyadan keltirilgan kitoblarni tartibga sola boshladi. U kechqurun charchab uyiga kelar, ovqatlanib, mizg'ib olgandan keyin yarim kechagacha o'tirib ishlar, hind tilidagi ko'hna kitoblarni mutolaa qilar edi. Ikki-uch yil ichida bayt ul-hikmadagi kitoblar joy-joyini topdi, shundan keyin u xotirjam bo'lib, hind hisobi bilan shug'ullana boshladi.

«Hindlar sonlarni raqamlar bilan yozishni kashf etganlar, ammo «1» sonining ahamiyatini tushunib yetmaganlar, – deb o'zi bilan o'zi gaplashar edi, besh sham o'rnatilgan qandil yorug'ida ishlab o'tirar ekan u. – Axir ikki – ikkita bir, uch – uchta bir, to'rt- to'rtta bir va hokazo. Hindlar joriy qilgan to'qqizlik sanoq tartibi bilan katta sonlarni qo'shish, ayirish, ko'paytirish va taqsim qilish, amrimahol...»

Xorazmiyning xizmatiga doim tayyor bo'lgan, ish buyurishini kutib, uxlamay o'tiradigan xizmatkorri xo'jayinining ba'zan yarim kechagacha o'zi bilan o'zi gaplashib ishlab o'tirganiga hayron qolar: «Nega muncha o'z joniga azob beradi-ya! Miyasi aynib qolmasaydi. Kunduz kunlari ishlagani yetmasmidi! Podsho shundog' ham unga maosh berib turibdi-ku!» – deb o'ylar edi.

### III

Tevarak-atrofdan dehqonlar, ko'chmanchilar kelib, bozor qiladigan Dajla nahri bo'yidagi qishloq Abul Abbosning o'g'li xalifa Mansur zamonida katta shaharga aylangan edi<sup>1</sup>. Yuz ming qul ertadan-kechgacha ishlab, xalila uchun shohona ko'shk va saroylar, mulkdorlar, amaldorlar uchun baland g'ishtin imoratlar, savdogarlar uchun mag'ozalar<sup>2</sup> qurib, shaharni ikki qavat qo'rg'on bilan ixota etgan edilar. Keyin Dajla ustiga ko'prik qurilib, so'l qirg'og'ida katta bozor, usti yopiq rastalar vujudga keldi.

Xalifa Ma'mun erta bahorda boshlanadigan tosh-qindan keyin Dajla bo'yidagi saroy bog'iga chiqib istirohat qilar edi.

Shaharning shimol tomonidagi bu bog' qishin-yozin ko'm-ko'k xurmo, limun, shamshod va sarv daraxtlari bilan qoplangan edi. Xiyobonlarda nozlanib yurgan tovuslar rang-barang patlarini yoyib, o'z go'zalliklarini ko'z-ko'z qilar, daraxtlar tagida o'tlab yurgan kiyiklar begona odamni ko'rganda pishqirib, ko'lankasi quyuq daraxtlar orasiga kirib ketar edilar.

...Yurt tashvishi, ulusning mojarosidan charchagan xalifa to'lqinlanib oqayotgan Dajla daryosiga qarab, sozanda va xonandalarning xonishini tinglab, o'ziga keldi. Keyin yana yurt tashvishi yuragini kemira boshladи. «Bobak qo'zg'oloni borgan sari avj olayotir, boshqa elatlar ham ozariylardan o'rnak olib, isyon tug'ini ko'tarmasmikinlar? Bizga qarashli mamlakatlarga fitna o'g'risi kirmayotganmikin?» deb o'yladi u yuragi siqilib va darhol chopar yuborib, vaziri a'zamni o'z huzuriga chorlatdi.

---

<sup>1</sup> Bag'dod shahri 762-yilda qurilgan edi.

<sup>2</sup> Mag'oz - magazin.

– Shahar tinchmi, yurt osoyishtami? Nima yangiliklar bor? – deb so‘radi u, saroy bog‘iga zudlik bilan yetib kelgan al-Fazlning salomiga alik olib.

– Poytaxt tinch, sizdan minnatdor bo‘lgan shahar aholisi duoyi joningizni qilib yotubdurlar.

Ma’mun, odat tusiga kirib qolgan bu gaplarni takrorlayvermang, degandek qovog‘ini uyib, qo‘lini siltab qo‘ydi.

– Yuqoriga chiqib, yonimga o‘tiring, hech narsani yashirmay mamlakatning xorijiy va dohiliy ishlari dan meni xabardor qiling.

Soch-soqoliga oq oralagan bo‘lsa ham, hali tezik al-Fazl ibn Sahl qomatini tiklab, zinadan daryo bo‘yidagi shiyponga ko‘tarildi-da, o‘zidan ancha yosh xalifaning yoniga tiz cho‘kdi.

– Janoblariga tobe hukmdorlar o‘z vaqtida boj-hiroj to‘lab turibdurlar, – dedi u nafasini rostlab, – ammo O‘tror shohi itoat ipini uzib, o‘z vazifasini o‘tashdan bosh tortayotir.

– Ya’ni boj-xiroj to‘lagisi kelmayotir, a? Undog‘ bo‘lsa chorasini ko‘rish kerak.

Ma’mun oppoq qo‘lini keng peshonasiga tiragani cha o‘yga toldi.

– Afsuski, hozir uning ustiga qo‘sish yubora olmaymiz, – dedi u bir ozdan keyin vazirga qarab. – Askarlarimiz ozariylar isyonini bostirish bilan ovo-ra. Vaqtincha murosa yo‘liga o‘tish kerak. Hukmdor har vaqt qilich va qamchinni ishga solavermaydur, ba’zan itoatdan bosh tortgan tobellarini yaxshilik bilan yo‘lga solishga majbur bo‘ladur. Siz O‘tror shohiga sovg‘a-salom yuborib, «Bir yillik xiroj seniki, kelasi yildan boshlab o‘z vazifangizni o‘tashdan umidvormiz», degan mazmunda maktub yo‘llang. Agar bir sanadan keyin ham oyog‘ini tirab turib olsa, unga qarshi qarluqlar xoni Jabg‘uni qayrab solurmiz,

---

---

dushmanni uning g'animi qo'li bilan bartaraf qilmoq kerak. Xo'sh, yana qanday yangiliklar bor?

– Turk Afshin ozariylar bilan jang qilib, bir ming asir olibdur.

– Ofarin. Afshinni jang-u jadalga rag'batlantirish kerak. Jang olib borgan kunlari unga o'n ming dirham, urush bo'limgagan kunlari ikki hissa kam maosh to'lab turmoq zarur. Asir olingan o'tparastlar bola-chaqalari bilan qilichdan o'tkazilsin. Farmonimni yozib oling.

– Bosh ustiga, sizning har amringizga tobe, buyruqlaringizni bajo keltirishga tayyorman. Sizdek ulug' va adolatli xalifaga xizmat qilganim uchun o'zimni baxtli sezaman. Himoyatingiz ostida ma'rifat kuchlari jaholat devoriga raxna solmoqda, ilm-u fan rivoj topmoqda...

Vazirning xushomadgo'yligi xalifaga erish tuyulsa ham, negadir undan yuragi orom olar edi.

Xalifa xalq qo'zg'olonlarini bostirish to'g'risida gapirayotganida, qovog'ini uyub, mushtini qisar, olimlarning kashfiyotlari to'g'risida gapirayotganida, yuzi yorishib, undan nur yog'ila boshlar edi. Fursat topganida, ilmi nujum bilan shug'ullanadigan al-Fazl bu holni ko'rib: «Ma'mun juda murakkab, bir-biriga zid xislatlardan tarkib topgan odam, – deb o'yladi. – Unda nur va zulmat, latofat va kasofat bor. Shuni tan olish kerakki, u olimlarga homiylik qilib, ularni o'z qanoti ostiga olgan, ahmoq hukmdorlargina ilm ahliga nisbatanadolatsiz bo'ladilar».

Shiypon yonida qad ko'targan sarv daraxtlari uning ko'nglidan o'tayotgan fikrlarni ilg'ab olganday bosh chayqab, shivirlashib qo'yar edilar.

#### IV

Al-Xorazmiy o'n bitta sham qo'ndirilgan qandil yorug'idan xontaxta ustiga egilib, mushkul bir hisob masalasini hal qilayotganida, ko'cha eshikni birov

asta taqillatdi. «Kim ekan shu bemahalda kelgan?» deb, u qalamni dovot yoniga qo'ydi-da, asta o'rnidan turdi. Uning xizmatkori o'z hujrasida xurrak otib uxlab yotar edi. Asta-asta qadam bosib, eshik yoniga keldi-da:

- Kim u? – deb so'radi,
- Men – Feruz. Matkarim darvozabonning o'g'li.
- Alloma o'z yurtdoshi Matkarimni yaqindan tанир edi. Ovozi notanish yigitning yaxshi niyat bilan kelgani bilinib turardi. U eshikni ochib, ro'parasida chorpahildan kelgan qora chakmonli yigitni ko'rdi.
- Assalomu alaykum!
- Yarim kechada nima qilib yuribsan? – dedi salomga alik olishni ham unutib qo'ygan uy egasi.
- Boshpana izlab keldim... Sizzan boshqa panohimiz yo'q... Qutqaring! – Yigit entikib gapirar edi.
- Ichkariga kir!
- Mening... sherigim ham bor, – dedi uzoqroqda iymanib turgan hamrohining qorasini ko'rsatib.
- Kim u?
- Fo'lodbekning qizi... Yoqutoy... Hayron qolganini yashira olmagan uy egasi:
- Iya! – deb yubordi. – Mayli, kiringlar! Mehmonxonaga kirib, ipak gilam ustiga o'tirganlaridan keyin mezbon qora chakmon kiyib, yigit qiyofasiga kirgan oq yuzli, qora qosh qizga hayron bo'lib qaradi.

U bir-birini sevgan bu ikki yoshning boshidan ko'p mojarolar o'tganini, boshqa joy topolmay unikiga qochib kelishganini anglatdi.

Es-hushini yig'ishtirib olgan Feruz uy egasining unga mehribonlik bilan qarayotganini ko'rgach, dillardanib, voqeani bayon qila boshladi...

... U farg'onalik Fo'lodbekning o'g'li Hayot bilan tengdosh bo'lib, ularnikiga tez-tez kelib turar edi.

Ulardan ikki yosh kichik bo'lgan Yoqutoy akasi va uning qalin do'sti Feruz bilan birga chillak o'ynar,

---

---

o'q-yoy otishar, charchaganlaridan keyin hovli o'rta-sida qad ko'tarib turgan xurmo daraxti ostiga solingan sholcha ustida o'tirishib ovqatlanishar edi.

Yoqutoy qo'rquv nimaligini bilmaydigan qiz bo'lib, ba'zan o'zi tengi o'g'il bolalar bilan olishib qolar, har safar ulardan ustun chiqar edi. Otasi uning jasurligidan mag'rurlanib: «Bu mardlik unga mendan o'tgan, asli o'g'il bo'lib tug'ilishi kerak edi-yu, adashib qiz bo'lib tug'ilgan», deb qo'yari edi.

Feruz bilan bu qiz o'rtasidagi do'stlik bora-bo-ra boshqacha tusga kira boshladi. Ular bir-birlarini ko'rganda, suyunib ketar, boshlari osmonga yetgan-dek bo'lar edi. Otasi esa qizining husni ochilib ketayotganini ko'rib, xursand bo'lish o'rniga vahimaga tushar, «Uning ta'rifi saroygacha borib yetmasaydi», deb qo'rqrar edi. O'sha vaqtida haramga Bag'dodning eng chiroyli qizlarini kanizak qilib olar edilar.

«Feruz es-hushli, uddaburro yigit, kiroyi kuyoving shunday bo'lsa, – deb o'ylar edi Fo'lodbek. – Otasi ham o'ziga to'q odam, katta maosh oladi».

Ko'rinishdan musulmon odamga o'xshagan bu odam asli zardushtiy bo'lib, kecha-yu kunduz yaxshilik xudosi Ormuzddan bola-chaqasiga baxt-saodat tilar edi. Ba'zan parda bilan yopib qo'yilgan tokchani ochib, yog'ochdan yasalgan, ustiga qimmatba-ho toshlar qadalgan haykal oldiga sham yoqar, unga bosh egib, pichirlab duo o'qir edi.

«Ey odamlarga mehr-shafqatli bo'lgan yaxshilik xudosi, biz musofirlarni balo-qazodan asra, bolala-rimga baxt ato qil!» deb yalinib-yolvorar edi. Biroq uning duosi darrov ijobat bo'lmasdi.

Yoqutoy o'n oltiga to'lib, o'n yetti yoshga qadam qo'yishi bilan husni ochilib, uning doyrug'i saroygacha borib yetdi. Ularning uyiga haram bekasi kelib ketganidan keyin Fo'lodbek o'zini qayerga qo'yishini

bilmay qoldi. Ko'p o'tmay podshoning shaxsiy mu-lozimi Hojib uni dargohiga chaqirtirdi.

– Hojib sizni nega chaqirtirgan ekan? – deb so'radi xotini u saroydan qaytib kelganidan keyin. Qovog'idan qor yog'ib turgan Fo'lodbek chakmonini qoziqqa ilib qo'ydi-da, «uh» deb ko'rpa chaga o'tirdi.

– Haram bekasi uyimizga kelib ketganidan keyin nima gap bo'lardi, – dedi oldiga qo'yilgan bir piyola muzdek sharbatni ichib. – Yonimga o'tir, gapimni eshit. Men Hojibning huzuriga kirib, ta'zim qilganim-dan so'ng: «Boshingga baxt qushi qo'ndi, Fo'lodbek, – dedi. – Podshohi a'zam qizing Yoqutoyning ta'rifi ni eshitib, uni amirlashkar Afshin ibn Qorus janob-lariga in'om qilmoqchi bo'ldilar. Shundog' ulug' odamga qaynota bo'lib, qo'yin-qo'njing tilloga to'ladi-gan bo'ldi», dedi. Men bosh egib qo'ydim-da, odat-dagidek, podshoning amri vojib, dedim. Eshitishim-cha, Afshinning uch xotini bor ekan. Qizimiz sho'rlik, hasaddan yonib turgan uch kundosh orasiga tusha-digan bo'ldi. Zardushtiyarning ashaddiy dushmani Afshinga qizimni bergandan ko'ra o'lganim yaxshi! Yo'lda kelaturib, qizimizni Feruz bilan qovushtirib qo'ymanimiga achindim. Keyin o'ylab-o'ylab, halayam vaqt o'tgani yo'q, deb qat'iy bir qarorga kelib qo'ydim. Shu bugunoq pirimiz Egamberdini uuga chaqirib kelib, zardushtiylar odatiga muvofiq ma'bud oldida nikoh o'qitamiz.

Katta to'y berib, qizini uzatmoqchi, orzu-havasini ko'rmoqchi bo'lgan ona, tiz cho'kib, ikki qo'li bilan yuzini berkitib yig'lay boshladi.

– Ha, nima bo'ldi? Nega yig'layapsan? – deb o'shqir-di er g'azablanib.

– Yo'q... o'zim... Siz ham tomdan tarasha tushgan-dek, hech kutilmagan gapni aytib, meni esankiratib qo'ydingiz.

---

---

Eshik orqasida turgan Yoqutoy ularning gapini eshitib, behad quvonib ketdi, qulq solayotganimni ko'rib qolishmasin, deb o'zini darhol panaga oldi.

Er-xotin maslahatlashib o'tirganlarida Feruz salom berib kirib keldi.

– Farishtalar haydar keldi seni, – dedi uy egasi quvonib. – Hozir seni yo'qlab turgan edik. O'tir, xayrli bir gap bor. – U xotiniga yuzlanib buyruq berdi. – Sen oshxonaga yugur, o'choqqa olov yoq, osh damla. Uyda et bormi?

– Ha, bor. Bir lagan osh uchun masallig' topiladi!

...Goh qovog'ini uyib, goh kulimsirab qulq solib o'tirgan al-Xorazmiy Feruzning keyingi so'zlarini eshitib, behad quvondi.

– Fo'lodbek jasur odam deb eshitgan edim, rost ekan, mard odamning ishini qilibdur, – dedi u kulib.

– Sen, Feruz, mening o'g'limsan, Yoqutoy – qizim. Mana uy, mana joy. Tap tortmay menikida turaver-ringlar. Otangiz uchun qo'rwmang, agar u xalifaning g'azabiga uchrasha, qutqarib qolish qo'lidan keladur.

Bir-birini sevib qovushgan ikki yoshga boshpvana bergenidan u mammun, podshoning iltifotidan mahrum bo'lishdan qo'rmas, xayrli ish qilishni tamagirlidän ustun qo'yari edi. Husnlari guldek ochilib ketgan ikki yoshning yuzlaridan yog'ilayotgan yog'du huvillab qolgan uyini nurga to'ldirgandek bo'ldi.

\* \* \*

– Biz amir lashkar Afshin Haydar ibn Qorusga tengi yo'q go'zal bir qizni in'om etib, uni xursand qilmoq niyatida edik, niyatimizga yetolmadik, – dedi sakkiz qirrali oltin taxt ustida viqor bilan o'tirgan Ma'mun, ro'parasida tiz cho'kkana vazir al-Fazlga qarab. – Ammo qizning otasi Fo'lodbek taklifimizni rad

etib, qizini bir yigit bilan qochirbdur. Biz mirshablar yuborib, uni hibsga oldirdik. Shunisi qiziqki, uyida yog'ochdan yasalgan bir ma'bud bor ekan.

– Zardushtiy ekan-da. Ehtimolki, shuning uchun qizini otashparastlar dushmani Afshinga berishni istamagandir, – dedi al-Fazl negadir hayajonlanib.

– Shundog'. Fo'lodbek qizi bilan yosh kuyovini kimnikiga yashirgan deb o'ylaysiz?

– Farg'onalik do'stlarining biri kuyovi bilan qiziga boshpana bergandir-da!

– Topmadingiz, – deb kuldi Ma'mun. – Ular al-Xorazmiyning uyida berkinib yotgan ekanlar. Muhammad ibn Muso kuni kecha kelib o'zi aytdi, Fo'lodbekni zindondan chiqarib, yoshlarning gunohini kechirishi so'radi. Men uning iltimosini qabul etib, xursand qilib yubordim.

– Olijanoblik qilibsiz, – dedi al-Fazl mammun bo'lganini yashira olmay. Keyin noqulay ahvolga tushganini yashirish uchun gapni boshqa yoqqa burdi. – Farg'ona-yu Xorazmdan ko'chib kelgan turkiy xalqlar orasida majusiylar ko'p. Ular masjidga chiqib, namoz o'qib tursalar-da, uylarida oltin ma'budga topinadurlar.

– Biz majusiylarni bartaraf qilishimiz lozim. Qo'l qovushtirib, qarab turaversak, ular Shamosiya te-paligida otashkada qurib, uni mug'tepaga aylanti-radilar.

Al-Fazl bir vaqtlar Xurosonda zardushtiylarning ibodatxonasini ko'rgan edi. To'rtburchakli hovli o'rta-sidagi usti yopiq bino, besh zina bilan pastga tushiladigan otashkada, o'rtada yonib turgan olovga xush-bo'y giyohlarni tashlab, duo o'qiyotgan oppoq soqolli pirimug'on ko'z oldida jonlanib, seskanib ketdi.

– Rost aytadurlar, zardusht diniga barham bermoq kerak. Uning ta'siri ostida bo'lgan turkiy xalqlar

---

---

arablarni yomon ko'radurlar, ba'zan ko'cha-ko'ylardan  
to'qnashuvlar bo'lib turadur.

– Hammasidan xabarim bor, – dedi Ma'mun qovog'ini uyib. – Ammo turkiy xalqlar bizning tayanchimiz. Notinch arablar u yer-bu yerda isyon tug'ini ko'targanlarida ularning yordami bilan tartib o'rnatamiz. Shuning uchun bu masalada ehtiyotkor bo'lmoq kerak. Agar al-Xorazmiy o'z yurtdoshlariga pand-nasihat qilib, arablar bilan to'qnashib turishning oqibati xunuk bo'lishini yoshlarga tushuntirib tursalar, yaxshi bo'lur edi. – U vazirining yuzida norozilik alomati paydo bo'lganini ko'rib, o'z fikridan qaytdi. – Yaxshisi, bu ishga ulug' allomani aralashtirmaganimiz ma'qul. Hozir u zot hind hisobini mukammallashtirish ustida bosh qotirmoqdalar. Bu ishni o'zimiz bartaraf qilganimiz yaxshi. – Ma'mun xufya ishlar bo'yicha vaziri bo'lgan Mahmud ibn Yahyoga bu haqda topshiriq berish, poytaxtdagi majusiyarni ro'yxatga olib, ularga qarshi zimdan chora ko'rish kerakligini ko'nglidan o'tkazib qo'ydi.

## V

Bayt ul-hikmada al-Xorazmiyning «Hisobi al-hind» degan asari muhokamaga qo'yilgan, olimlar qatorida yer o'Ichovchi massohlar, muftiyalar, ulamolar ham bu majlisga chaqirilgan edi.

Oq shoyi ko'yak ustidan uzun yengli qizil chopon kiygan, taqysi ustidan oq salsa o'ragan Muhammad ibn Muso katta tanobiy uyning ikki chekkasida chordana qurib o'tirgan olimlarni o'z asarining mazmuni bilan tanishtirar edi.

– Ilgari arablar va ularga tobe musulmon xalqlar hisob amallarini raqamlar bilan emas, so'zlar yordami bilan bajarar edilar, – deb gapida davom etdi u, – hindlar esa har bir sonni alohida belgi, ya'ni raqam-

lar bilan ifoda etadurlar. Mana ko'ring. – U o'rnidan turib, devorga tirab qo'yilgan uzun, ensiz qora taxtaga oq bo'r bilan to'qqizgacha bo'lgan raqamlarni yozib ko'rsatdi. – Mana bunisi bir, bu – ikki, bu – uch va hokazo. Biz shu raqamlarni ba'zi islohhlar bilan qabul qilib olib, hisob amallarini ular yordami bilan hal qiliш yo'liga o'tishimiz kerak. U bir-birlari bilan shivrashib gaplashayotgan shayx ul-islom bilan qoziy ul-quzzotga tikilib qarab turdi-da, ular gapdan to'xtaganlaridan keyin so'zini davom ettirdi: – Hindlarda to'qqizlik sanoq tartibi joriy bo'lib, ular «1» raqamining ahamiyatini tushunmagan edilar. Mening hind hisobiga kiritgan yangilikim shulki, «1» raqami yoniga bir halqa, ya'ni sifr<sup>1</sup> qo'yib, uni «o'n» deb o'qidim. – U taxtaga «10» raqamini yozib ko'rsatdi. – O'nlik sanoq tartibi bilan katta sonlarni jam va tarx qilish, zarb va taqsin etish oson. – U qora taxtaga to'rt xonali sonlarni yozib, ularni bir-biriga ko'paytirib ko'rsatdi<sup>2</sup>.

Olimlarning ba'zilari hayajonga kelib, o'zlarini tutolmay: «Ofarin!» deb yubordilar. Xalifaning so'l tomonida o'tirgan vazir al-Fazl beixtiyor o'rnidan turib ketdi.

– Bu – ulug' kashfiyat! – deb yubordi u. – Abu Abdulloh al-Xorazmiy janoblari eshiklari berk ilmi riyoziyning kalidlarini topib, qo'limizga topshirdilar. Hech bir arab olimi hal qilmagan muammolarni yechib, bizni hind raqamlari bilan tanishtirdilar. Endi bularni arab raqamlari deb ataymiz, – dedi u qora taxtani qo'li bilan ko'rsatib.

– Hindlar, – deb yubordi oppoq soqoli ko'ksiga tushgan shayx ul-islom, – eshitishimcha, hindlar handasiy shakllar va raqamlar bilan fol ochar ekan-

<sup>1</sup> Sifr – nol.

<sup>2</sup> Yevropada «Algoritm» (Alxorazm) so'zi o'nlik sanoq sistemasining sinonimi o'rnida ishlataladi.

---

---

lar, bas, shunday ekan, biz qanday qilib ularning raqamlarini qabul qilib olurmiz? Al-Xorazmiy bizni hind xalqi bilan yaqinlashtirib, ularning urf-odatlarini qonimizga singdirmoqchi. Eshitishlaricha, ul kishining ota-bobolari otashparast majusiy ekan.

– Rost, – deb uning gapini tasdiqladi mosh-birinch soqolli, ikki beti qip-qizil qoziy ul-quzzot. – Shuni aytib o‘tayki, hindlar biz arablar singari o‘ngdan so‘lga emas, so‘ldan o‘ngga qarab yozadurlar. Ilmi hisob ularning diniy e’tiqodlari bilan chambarchas bog‘langan. Masalan, bir soni – ota, ikki soni – ikki ko‘z, uch soni agniy degan xudolarining ramzidur va hokazo. Biz qanday qilib bu bid’atchi xalqning raqamlarini arab raqamlari deb ataymiz. Hindlar sehrgar xalq. Ular sochlarini qirdirmay, tirnoqlarini kesdirmaydurlar, sigir go‘shtini yemaydurlar, ammo badanlariga yangi sigir tezagini surtadurlar, raqamlarini uzun qora taxtaga oq kesak bilan yozadurlar, – dedi, devorga tirab qo‘yilgan taxtaga ishora qilib.

Al-Xorazmiy tishini tishiga qo‘yib, qalin qoshlari ni chimirib, indamay o‘tirar: «Qoziy ul-quzzot hind sudxo‘rlari bilan birga ish olib boradi, deb eshitgan edim, rost ekan-da, – deb o‘ylar edi. – Bo‘lmasa, hind urf-odatlarini qayerdan biladi! Bu mutaassib mullo-lardan har baloni kutish mumkin. Ammo xalifaning menga xayrixohligi aftidan ko‘rinib turipti, kashfiyotim to‘g‘risida xavotir olmasam ham bo‘lar!»

Fil suyagidan yasalgan kursi ustida pinagini buzmay o‘tirgan Ma’mun ulamolarni bu majlisga chaqirganidan o‘kinar, ularga nisbatan ehtiyyotkor bo‘lish, olimlarni muhofaza qilish kerakligini ko‘nglidan o‘tkazar edi. Shahar qoziy ul-quzzotidan keyin so‘zga chiqqan Xolid ibn Abdulmalikning so‘zlariga u xayrixohlik bilan quloq sola boshladi.

– Ilm o'rganish musulmon er va ayollar uchun ham farz, ham qarz, – dedi marvlik keksa olim titragan ovoz bilan. – Buni doim yodimizda tutishimiz kerak.

Hadiysi muqaddasda, ilmni Chin-mochinga borib bo'lsa ham o'rgan, deyilgan. Holbuki, xitoylar ham hindlar singari it, ilon, kaltakesak etini yeydurlar.

Qoziy-ul quzzot o'zini tutolmay: – «Ular sigir tezagini badanlariga surtmaydurlar», – demoqchi edi-yu, lekin qovoqlarini solib o'tirgan olimlarga qarab, tilini tiydi. – Xitoylar... Xitoylar handasiy shakllar, raqamlar bilan fol ochmaydurlar....

– Har bir xalqda ham yaramas odatlar bor, bid'at, xurofot bor, ammo shu bilan birga munavvar fikrli odamlar vujudga keltirgan ilm-fan mavjud, biz ular yashnatgan ma'rifat gulshanidan ilm urug'larini terib olib, o'stirishimiz zarur.

Ilm uchun o'zini qurban qilishga tayyor bo'lgan bu keksa olim zabardast ulamolardan qo'rqmay haqiqatni himoya qilar edi.

Xalifa cho'zilib ketgan tortishuvga yakun yasab:

– Haqiqat munozaralar orqali ochiladur, degan gap bor, – deb so'z boshladi. – Har ikki tomonning ham fikrlarini eshitdik. Abu Abdullo al-Xorazmiyning yozgan kitoblari, kashfiyotlari ustida hali ko'p mulo-hazalar yurg'izamiz. Ammo biz o'z ishimizda hadiysi muqaddasga amal qilib, har bir xalqning ilm-fanini o'rganishimiz, bilim urug'larini bid'at-xurofot bal-chig'idan tozalab, ahli muslimning miyasiga qardashimiz lozim...

U so'zining oxirida munozaraga chiqib, o'z fikrlarini aytgan olimlar, ulamolarga tashakkur bildirdi-da, bu masalani hal qilish uchun bir majlis kifoya qilmasligini aytib, gapni tamom qildi.

---

## VI

– Ajoyib loyiha, – dedi al-Xorazmiy, to‘rtburchak qog‘ozdagи shakllarni diqqat bilan ko‘zdan kechirar ekan. – Rasadxonaning kattaligi Batlimusning «al-Majistiy»<sup>1</sup>sida ko‘rsatilgan hajmda: uch qavatli, doira shaklida. Uchinchi qavat ustida quyosh soati va boshqa holatlar uchun joy ajratilgan.

– Loyihani ustoz Xolid ibn Abdumalik bilan birga tuzgan edik, sizga manzur bo‘lganidan behad mam-nunman, – dedi xursandligidan qiyiq ko‘zlar yumilib, kulchadek yuzi yorishib ketgan Ahmad al-Farg‘oniy.

– Shuning uchun ham uning kamchiliginı topa olmadim, shekilli, lekin o‘zingiz Iskandariya shahriga borib, Batlimus rasadxonasini ko‘rib kelsangiz, loyihaning nuqsonlarini payqab, unga isloh kirtsangiz... Agar Muso binni Shokirning ikki o‘g‘li bilan O‘rta Yer dengizi sohiliga sayohat qilsangiz, ham bahri dilingiz ochilgan, ham foydali ma‘lumotlar olgan bo‘lur edingiz.

– Rost, ulug‘ yunon olimi yashagan shaharni, rasadxonani ziyorat qilib kelishning o‘zi kishiga ilhom bag‘ishlaydur, borganim bo‘lsin.

– Men ertaga vaziri a’зам bilan so‘zlashib, sizlar uchun kerakli mablag‘larni olib berurman. U kishi ham, xalifa ham bu ulug‘ ish uchun dirham va dinorlarini ayamaslar.

Ma’mun Bag‘dod yaqinida, shahar changi va tutunidan uzoqda bo‘lgan «Shamosiya» tepaligi ustida rasadxona qurish niyatida edi. Olimlar, me’morlar uning amrini bajo keltirish uchun ishga tushib ketgan, ustalar tepalik atrofidagi kulbalarni buzib, yer tekislash bilan band edilar. Ahmad al-Farg‘oniy ikki

---

<sup>1</sup> Batlimus – Ptolomey II asrda Aleksandrya (Iskandariya) shahrida astronomiya bilan shug‘ullangan olim. Uning «Almagest» degan asarini arablar «Al-Majistiy» deb tarjima qilganlar.

yosh olim bilan Aleksandriya shahriga borib, qadimiy rasadxonannig har bir bo'lagini, yer ostidagi qismini ko'rib chiqib, loyihani itmomiga yetkazdilar. Ilm-ma'rifat ahli ulardan behad xursand, islom dini aqidalariga qadimgi yunon faylasuflarining ta'siri kuchayayotganidan ulamolar xavotirda edilar.

\* \* \*

– Shariat oyoq osti bo'lmoqda, Bayt ul-hikmada uya qurib olgan jodugarlar dinga xilof aqidalarni, qadimgi majusiy olimlarning maslaklarini targ'ib etmoqdalar, – dedi, bir ko'zi yumilib qolgan oppoq soqolli shayx ul-islom uy egasiga qiyshayib qarab. U Bag'dod shahri qoziy ul-quzzotining uyiga mehmon bo'lib kelgan edi. – Bu baloyi ofatning oldini olish mumkinmasmikin?

– Yo'q, – dedi sochlari oqara boshlagan tetikki-na mezbon, – suv boshidan loyqa. Xalifaning o'zi bu shakkok odamlarga bosh bo'lib, shariat bulog'ini loyatmoqda, qadimiy yunon olimlarining asarlarini tarjima qildirmoqda. Marv viloyatidagi Saraxs shahrida tavallud etgan kelgindi al-Fazl ibn Sahl – vaziri a'zam, xorazmlik Muso ibn Muhammad Bayt ul-hikmaning bosh kitobdori, Farg'ona-yu Marvdan kelgan muhandis-u munajjimlar – saroyda eng mo'tabar odamlar. Bag'dod shahrida yuz berayotgan bu beboshlikni ko'rib, dunyodan chiqib ketging keladur.

– Yolg'iz siz bilan biz emas, a'yonlar, askarboshi-  
lar orasida ham norozilik boshlangan, – dedi keksa  
mehmon. – Esingizdam, Xorun ar-Rashid zamonida  
ham xuddi shunday ahvol yuz bergen, davlat ishlari-  
ni eroniylar egallab olgan edilar. Marhum xalifa bir  
bahona topib, eroniy vazirni qatl ettirgan, shu bilan  
arab akobirlarini tinchitgan edi.

---

---

– Ha, esimda bor! – uy egasi jilmayib qo'ydi. – Hammamiz Xorun ar-Rashidning bu qilgan ishidan mamnun bo'lgan, mamlakat jilovi yana arablar qo'liga o'tgan edi. Tarix takrorlanadur, degan hikmatli bir gap bor. Sabr qilib turaylik, shoyad marhum xalifaning ruhi madadga kelsa-yu, Eron-u Turon taziyiqidan qutulsak. Kulfatga ko'nikib yuraverilsa, borgan sari uning yuki og'irlashadur. Ojiz odamlargina o'z qismatlariga ko'nikib yuraveradurlar.

– Ammo ehtiyotkorlikni ham qo'ldan bermaslik kerak. Agar biz shul ishga jur'at qilsak, Ma'mun g'a-zab otiga minib, qo'liga jazo qilichini olmasmikin?

– Qo'rqlasminlar. Xalifa hech qachon o'z davlatining ustunlariga bolta urmaydur, suyanchig'i bo'lgan arab zamindorlari, akobirlariga ziyon-zahmat yetkazmaydur. Axir bizning foydamizni ko'zlab, sobiq qullar, yalangoyoq dehqonlar isyonini qonga botirayotir! Eshitishimcha, Ma'mun kechalari ilmi nujum bilan shug'ullanib, davlat ishlarini tashlab qo'yan vaziridan ham norozi bo'lsa kerak.

– Tavakkal qilgan kishining ishiga xudo rivoj beradur. Yotib qolgandan otib qolgan yaxshi, – deb yubordi hayajonga kelgan mehmon qaltiragan ovoz bilan.

– Yaxshi gapga ham farishtalar «omin» deydurlar, yomon gapga ham.

Ular dasturxon ustida allamahalgacha suhbatlashib o'tirishdi. Go'yo devorlarning qulog'i bordek, ba'zan u yoq-bu yoqqa alanglab, tovush chiqarmay pichirlashar edilar.

## VII

Rasadxona qurilishi jadal sur'atlar bilan borar: bosh me'mor ham, ustalar, olimlar ham ishning bori-shidan xursand edilar. Diametri ellik metr bo'lgan doira shaklidagi uch qavatli rasadxona qurilib biti-

shiga oz fursat qolganda yuz bergan dahshatli bir voqea ilm-ma'rifat ahlini sarosimaga solib qo'ydi. Olimlarning homiysi bo'lgan vaziri a'zam al-Fazl ibn Sahl hammomda noma'lum bir odam tomonidan o'ldirilgan, suiqasdchilar jinoyat ipining uchini berkitib ketgan edilar.

Kutilmagan bu hodisadan olimlar sarosimaga tushib, qo'llari ishga bormay qoldi. Ilm ahli qazoga uchragan munajjim va davlat arbobi ibn Sahlni tantana bilan dafn etib, ming xil fikr bilan boshlari qotgan holda turar joylariga qaytdilar.

Al-Xorazmiy ham chuqur qayg'uga botgan, olimlarning homiysi bo'lgan vazirning o'limiga qisman o'zi sababchi bo'lganini o'ylab, azob chekar edi. «U har vaqt meni, ulamolarga yoqmagan kashfiyotlarimni himoya qilib kelar edi, – deb o'ylar edi. – Qisman uning g'ayrati bilan hind raqamlari qabul qilinib, arab raqamlari deb atala boshladi. Go'ring nurga to'lgur, xurosonli, O'rta Osiyoli musofir olimlarni himoya qilib kelar edi. Shu sababdan arab mullolari, akobirlari uning boshiga yetdilar...»

U o'z yog'iga o'zi qovurilib o'tirganda, Ahmad al-Farg'oniy kelib qoldi.

– E, keling, keling, nima qilishimni bilmay xunob bo'lib o'tirgan edim, – dedi salomiga alik olib. – Qani, buyoqqa chiqing.

– Men ham boshimni qayoqqa urishimni bilmay, o'zimni chalg'itib, g'amlarimni unutish uchun to'g'ri siznikiga qarab yo'l oldim, – qovog'idan qor yog'ib turgan al-Farg'oniy mehmonxona to'riga solingan ko'rpa chaga o'tirib, yuziga fotiha tortdi. – Qanday ulug' va pokiza odamdan ayrilganimiz endi bilindi. Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q, deb bekorga aytmaganlar.

Ular marhum vazir to'g'risida gaplashib o'tirdilar.

---

---

– Xalifa jinoyatchilarni ushlab, jazolarini berarmikin? Axir bul ishni shundoqligicha qoldirib bo'lmaydur-ku! – dedi yosh mehmon xunob bo'lib.

Al-Xorazmiy unga qarab turib, bir ozdan keyin:

– Bul hodisaning ildizi chuqur, Xorun ar-Rashid zamonidagi Ja'far ibn Yahyo fojiasiga o'xshaydur, – dedi qovog'ini solib. – O'shal vaqtida ham eroniylarning dastlari daroz ekanligidan norozi bo'lgan arab akobirlari qo'llariga xanjar organ edilar. Ma'mun zamonida ham kichikroq miyosda bo'lsa-da, o'shal hodisa takrorlandi. Xalifa bir chora ko'rishdan oldin ishining oqibati ustida bosh qotirar, ona urug'ini rozi qilaman, deb, ota urug'ini yerga urmas. U yetti o'lchab bir kesadigan, ehtiyotkor hukmdorlar toifasidan.

– Tushunarli. U qaynab turgan qozonni yopiqligicha qoldirsa kerak, haqiqiy jinoyatchilar jazosiz qoldirilg'ay deb o'layman.

– Shundog'.

Ular uzoq vaqtgacha gaplashib o'tirib, o'z g'am-tashvishlarini unutganday bo'ldilar.

Boshda sarosimaga tushgan boshqa olimlar ham vaqt o'tishi bilan o'zlariga kelib, o'z ishlariga boshlari bilan sho'ng'ib ketdilar. Dahshatli fojiadan bir yil o'tgandan keyin rasadxona ham qurilib tamom bo'ldi<sup>1</sup>. Allomalar o'n hissa g'ayrat bilan samoviy jismlarni o'rganishga kirishib ketdilar.

Al-Xorazmiy kechalarini yulduzlarning harakatini o'rganish bilan o'tkazar, Ptolomeyning jadvalida xattolar borligini payqab, unga tuzatishlar kiritar edi. Bu ish bilan bog'liq bo'lgan ko'p masalalarni hal qilishda ilmi hisob, to'rt amal ish berolmasligini payqab, boshi qotar, yer o'lchash ishlari bilan shug'ullanuvchi massohlar, meros taqsim qilish kabi ishlar bilan shug'ullanuvchi muftilar ham ko'p riyoziy

---

<sup>1</sup> 819-yil.

muammolarni yechishda qiynalib, undan maslahat so'rар edilar.

U kecha-yu kunduz bir xildagi hisob masalalari ni hal qilish uchun umumiy usul qidirish bilan band bo'ldi, mashaqqat chekib, mushkul hisob masalalarini hal qilish uchun noma'lum bir sonni tenglamalar orqali topish yo'lini kashf etdi. Uning «Aljabr va al-muqobala» degan asari Bayt ul-hikmada muhokama qilinayotganda, olimlar hayajonga kelib, uni tabriklay boshladilar. To'rda viqor bilan o'tirgan zar choponli xalifa o'z xur-sandligini yashirishga urinsa ham, yonida o'tirgan al-Xorazmiyga jilmayib qarab qo'yari edi.

Bu majlisga u din peshvolaridan hech kimni chaptirmagan, haqiqiy olimlarni ko'rolmaydigan hasadgo'y mullalar bema'ni gaplarni o'rtaga tashlab, ilm ahlining ta'blarini xira qilishlari mumkin edi.

Ma'mun shavq-zavq bilan gapirgan olimlarning so'zlariga yakun yasab, shunday dedi:

– Abu Adulloh Muhammad ibn Muso yangi ilm kashf etib, unga aljabr deb ajoyib nom qo'yibdurlar. Ilgari ilmi hisob bor edi, lekin samoviy jismlar orasidagi masofani belgilash, yer o'lchash, meros taqsim qilish ishida uchraydigan mushkul masalalarni hisob ilmi, to'rt amal yordami bilan hal qilish mumkin emasdi. Al-Xorazmiy janoblari bu qiyinchilikni bartaraf etganlar, murakkab masalalarni hal qilish uchun ularga majhul bir son kiritib, ularni muodala<sup>1</sup> orqali, harflar va sonlar yordami bilan yechish yo'lini topganlar. Bu shunday ulug' kashfiyotki, yuz yil, balki ming yildan keyin ham odamlar amaliy masalalar ni hal qilish uchun bu ilmga murojaat etgusidurlar. Aljabr degan istiloh abadiy saqlanib qolg'usidur.

– Bu mushkul ilmning mohiyatini uch-to'rt jumla bilan, lo'nda qilib ta'riflab berganingiz uchun be-

<sup>1</sup> Muodala – tenglama

---

---

had xursandman, – deb yubordi yuzi yorishib ketgan al-Xorazmiy xalifaga ta’zim qilib. – Olimlarga xayri-xoh bo’lgan hukmdorlar davridagina ilm-fan oldidagi to’siqlar bartaraf qilinib, uyquda yotgan aql-farosat uyg’ongusidir.

– Ilmi aljabr bamisoli tikanli daraxt, jabrga chida-gan odamgina uning ustiga chiqib, mevalaridan bah-ramand bo’lg’ay, – deb askiya qildi al-Farg’oniy.

Olimlar kulib, uning gapini tasdiqladilar. Ular cho’lda yurib, quduq yoniga yetib kelgan yo’lovchi-lardek xursand edilar.

\* \* \*

Oradan asrlar o’tdi. Olimlar vujudga keltirgan ma’rifat xazinasini yevropaliklar qo’liga o’tib ketdi. Xorazmiyning bu ulug’ asari XII asrda lotin tilida bosilib chiqdi, keyin fransuzlar uni «algebra» deb tarjima qildilar. Asrlar bir-birlarini quvib o’taverdilar. Sharq xalqlari yo’qotib qo’ygan ma’rifat xazinasini axtara boshladilar.

Yevropada adashib yurgan «aljabr» ilmi yana «algebra» shaklida o’zimizga qaytib keldi.

## **KARVON YO'LLARIDA**

---

### **I**

1588-yilning yoz oylari. Pishiqlik. Shahar darvozalaridan arava-arava qovun-tarvuz, uzum, shaftoli va turli-tuman mevalar kirib turmoqda. Havodan sharbat, tandirdan yangi uzilgan non hidi keladi.

Shahar rastalari xuddi arafa kunlaridagidek olag'ovur. Uzoqdan qulq solgan kishiga go'yo shahar o'rtasidan katta bir daryo shovillab oqib o'tayotganga o'xshaydi. Salobatli, og'ir madrasalarning pesh-toqlari oftob nurida jimgima qilib, ko'z qisayotgandek, hovliqib, u yoqdan-bu yoqqa yugurgan odamlarni masxara qilayotgandek...

Bozor ko'chalarining chorrahalariga solingan usti qubbali toqlar va ularning yonidagi tor rastalar asalari inidek g'uvillaydi, hammayoq bozor ahlining shov-shuvidan larzaga keladi.

Abdullaxon<sup>1</sup> qurdirgan to'rt burchakli timga savdogarlar kirib-chiqib turar, bu yerga choriq kiygan, bo'z choponli faqir odamlar sira yo'lamas edilar, chunki g'ishtdan gumbaz taxlit ishlangan bu ajoyib, salqin, nimqorong'i toqlar tagidagi do'konlarda boyonlar kiyadigan harir mollar xarid qilinar, kambag'albop karboz (bo'z) esa tim orqasidagi usti qamish bilan yopilgan rastada soitildi.

Timga kiraverishdagi toqning ikki tomonida shoyi chopon kiygan, simobi sallali sarroflar oldilarida-

---

<sup>1</sup> Abdullaxon – 1557–1598 yillarda Buxoroda xon bo'lib turgan.

---

---

gi barkashlarga tangalarini uyub o'tirar edilar. Ular ozgina haq olib, pul maydalab berar yoki Hindiston, Eron, Afg'on pullarini Buxoro puliga almashtirardilar. Bu sarroflarning Hojitarxon<sup>1</sup>, Kobul, Dehli kabi savdo markazlarida sheriklari bo'lardi. O'sha shaharlardan kelgan savdogarlar bu yerdagi sarroflarga ortiqcha tillalarini tashlab, ulardan tilxat olar, so'ng o'z shaharlariga borib, ularning sheriklaridan omonatlarini olar edilar.

Timi Abdullaxon ichida tanlari qora, qotmadan kelgan sallali hindlar, qizilmag'iz arablar, ko'k shoyi choponli, soqollari xina bilan bo'yalgan Shamoxiy savdogarlar, gul yoqali uzun ko'ylik kiygan, sersoqol barvasta rus savdogarlar toqlar ostidagi do'konlarning tokchalariga tizilgan harir mollarni tomosha qilib yurardilar. Turli-tuman rangdagi shoyi-atlas, havorang baxmal, zarbof kimxboblar ajnabiylarning ko'zini o'ynatardi. Timning tepasidan tushgan yorug'likda havorang ipak baxmallar turli-tuman tusga kirib tovlanar, ularni qo'lga olib, oftobga solinsa – oynadek, odamning aksi ko'rinaridi. Ularni ko'pincha Movarounnahrning boshqa shaharlaridan, chet ellardan kelgan savdogarlar sotib olib ketardilar. Rus boyarlari bu yerdan olib ketilgan zarbof, baxmal-dan kaftan kiyar, boyar va savdogar qizlari Buxoro shoyilariga belanib yurardilar...

Maskopga elchilar ketayotgan emish, degan mish-mishlar tarqalgandan keyin bazzozlarning ishi yurishib qoldi, qimmatbaho mollarning narxi oshib ketdi, hatto kasod mollarning ham bozori chaqqon, hunarmand-kosiblarning ishi kushoyish topib, qo'llari ildam bo'lib qoldi. Xalqning hamma tabaqasiga: hunarmandlarga, do'kondorlarga, dehqonlarga

---

<sup>1</sup> Hojitarxon – Astraxan.

---

ham jon kirdi, chunki Rossiya bozorlarida qimmat-baho matolardan boshqa tayyor chopon, ko'ylak-lozim, do'ppi, belbog', jaydari paxta, xom teri, quruq meva kabi narsalarga talab zo'r edi. Odatda, Rossi-yaga ketadigan elchilarga katta savdogarlar karvoni ham qo'shilar, yuzlab tuyalarda toy-toy mol, paxta, teri, qop-qop quruq meva olib ketar edilar.

Bozorda shu ovoza tarqalgandan keyin hamma-ning patagiga qurt tushib qoldi. Bazzozlar, hunar-mandlar matolarini qimmatroqqa pullashga, karvon savdogarlari arzonroq olishga urinardilar.

Timga kiraverishda chap qo'ldagi shinam do'konda ikki kishi chordona qurib, oldilaridagi quticha ustiga burdalab tashlangan non bilan uzum yeb o'tirardilar.

Bularning biri bazzozlar oqsoqoli Hoji Farrux – olt-mishlarga borib qolgan, tetikkina chol edi. U suhbat-doshiga o'tkir ko'zlarini tikib:

– Narximizni yerga urmang, akun! Bizga javr bo'la-di, oxe! – dedi.

– Nega javr bo'lsin, aka mullo! Maskopda sakkiz olchin shoyi yigirma tanga turaykan.

– Ibi! Yigirma tanga? Go'shingizga<sup>1</sup> yanglish kirip to'xtaptu, mulla Shokir. O'ttiz tangadan kam tur-maydur.

– Aka mullo, o'tgan safar Hojitarxon borganim-da, zo'r-bazo'r o'n sakkiz tangaga pulladim, azbaroyi xudo. Shundan-shunga jon hovuchlab, to'rt-besh tanga hayon ko'rmasak, uyat axir! Bo'lgani – o'n besh, – dedi mulla Shokir qat'iy qilib.

– O'n besh? Jinni bo'ldingizmi? – Hoji Farruxning afti burishib ketdi. Oyog'idiagi gulchinli unuka mah-sisini silab jilmaydi-da:

– Mayli, siz uchun o'n sakkiz tanga! – dedi.

---

<sup>1</sup> Go'sh – quloq.

---

---

Qadimda ulgurji savdogarlarga sotiladigan mol-larning narxini bozor oqsoqoli kesib berardi. Uning aytgani aytgan, degani degan, so'zini ikki qilib bo'lmasdi. Bazzozlar bu masalada unga so'zsiz itoat etardilar.

Hoji Farrux narxi navo to'g'risida kelishib olgandan keyin qo'lliga qog'oz olib, bazzozlarning ro'yxatini tuzdi va har bir nomning ro'parasiga ulardan xarid qilish mumkin bo'lgan mollarning miqdorini yozib qo'ydi.

– Nega xomush to'xtadingiz? – dedi oqsoqol afti burushib ketgan mulla Shokirga kulib qarab. – Tap tortmay olavering! Mol yetmasa – jon. Pulingiz kamlik qilsa, nisfini nasiyaga bergaymiz. Lafz bir – xudo ham bir!

Mulla Shokir qarib-chirib yurolmay qolgan farzandsiz Hoji Hamdamboyning bosh gumashtasi edi. Boy o'z gumashtasini bir necha marta sinab ko'rib, to'g'riliqiga ishonch hosil qilgach, hamma ishni unga topshirib qo'ygandi. Mulla Shokirning erki o'zida, xo'jasining ishini o'z bilganicha boshqarar va hech qachon ziyon ko'rmasdi.

U asli shoyibof ustaning bitta-yu bitta o'g'li edi. Otasi usta Muin o'z farzandining kelajagi to'g'risida ko'p o'yldi: «Shu bolam ham katta bo'larmikin, hunar o'rganib, ishimni qo'limdan olarmikin?» deb bosh qotirardi.

Uch shogirdi va bir xalfasi bo'lgan bu usta dehqonlardan pilla olib, uyida pilla tortar, xotini bilan ikki qizi charx aylantirib, ipak yigirar, o'zi esa xalfasi bilan chuqurga – do'konga tushib olib, shoyi to'qir edi. Sho'x va o'yinqaroq Shokir maktabdan kelgandan keyin sassiq bug' bilan to'lgan pillaxonaga kirib, pillakashlarga bir oz yordam bergen bo'lar, keyin yuragi pishib ketib, rangrezlik qilayotgan shogirdning oldida ivirsib yurar, so'ngra dastgoh yonida ish-

lab turgan otasining orqasidan kelib quchoqlab olardi. Do'mboqqina, ko'zлari chaqnagan Shokir o'zining yolg'iz o'g'il ekanligini, otasi unga qo'l ko'tarolmasligini to'rt yoshligidayoq payqab olgan edi. U ba'zan ko'chaga qochib chiqib ketardi-da, o'rtoqlari bilan yon qo'shnilar bo'lgan beva kampirga hovuzdan suv keltirib berar, bozor kunlari esa o'sha kampirning bir hafta davomida yigirgan ikki-uch kalava ipini sotib berardi. Otasi: «Bu bola devona chiqmasaydi, o'z uyimizdag'i ish boshimizdan oshib-toshib yotibdi-yu, birovlarining xizmatini qilib yuradi, – deb o'ylar edi. – Ke, qo'y, shuning ham g'amini yeb o'tirasanmi? Ko'zi pishib yursa, axir bir kun o'rganib ketar, olaxurjun bo'yniga tushgandan keyin ishlamay qayoqqa bora-di!» – deb o'ziga-o'zi taskin berardi. Keyin o'g'lining hunar o'rganishga tobi yo'qligini ko'rib, uni o'qitib, mulla qilish niyatida madrasaga berdi. Biroq Shokirning madrasa tuprog'ini yalab yotishga tobi yo'q edi. Ming yil ilgari yozilgan kitoblarning o'lik so'zlarini yodlab o'tirish bu jonli, serg'ayrat yigitning fe'lliga to'g'ri kelmasdi. U madrasaning zindonga o'xshash tor va nimqorong'i hujrasida uzoq o'tiroldi, yuragi siqilib, ko'chaga chiqib ketardi. U faqat ta'til kunlari-gina uyiga kelganida, rangi o'ziga kelib, yengil nafas olardi. U to'qilgan matolarni otasi bilan birga ko'tarib, timga olib borar, u yerda savdogarlarning uzoq mamlakatlar to'g'risidagi hikoyalariga astoydil qu-loq solardi, o'zi ham safarga otlangisi kelardi. Otasi o'g'lining mulla bo'lolmasligini payqab, uni Hojitarxon va Qozonga qatnaydigan Hoji Hamdamboyga gu-mashtalikka berdi. Madrasada bir yil tahsil ko'rgani uchun uni mulla Shokir deb yuritadigan bo'ldilar.

Hozir u timda, Hoji Farruxning do'konida o'tirar ekan, jiddiy, peshonasi tirishgan, molni arzonroqqa olib, qimmatroq sotish ustida bosh qotirar edi. U qi-

---

---

yisha-qiyisha, narxi navo to‘g‘risida kelishib, ishni baqamti qilgandan keyin, xarid qilingan matolarni Hazrati Imom darvozasi yaqinidagi katta saroyga el-tib qo‘yish to‘g‘risida xizmatkorlarga buyruq berdi.

\* \* \*

Bozor ahli o‘z ishini bitirish bilan ovora ekan, Moskvaga elchi qilib yuborilayotgan Muhammadalibek bilan Do‘simek arkda, xonning o‘ng qo‘l vaziri – mehtarning huzurida o‘tirib, uning gaplarini diqqat bilan tinglashardi. Boshiga katta simobi sala, engiga harir shoyi chopon kiygan, soch-soqoli oppoq, ikki betida taram-taram qizili bor mehtar to‘rdagi zar to‘sak ustida o‘tirib, elchilarga yo‘l-yo‘riq berar edi. Torgina uzun derazadan naqshinkor salqin uyga xira yorug‘ tushib turardi. Mehtarning ro‘parasida o‘tirgan baland bo‘yli, qoshlari o‘sinq, ko‘zlari katta-katta Muhammadalibek toza yuvilib-taralgan, dukartlangan soqolini asta silab, jilmayganicha sabr bilan uning so‘zlariga quloq solar, libosidan xushbo‘y hid anqir edi. U doim ustiga gulob sepib, og‘zini misvok bilan tozalab yurardi. Balxda hokimlik qilib turgan shahzoda Abdulmo‘min tarafidan elchi bo‘lib ketayotgan mo‘g‘ulbashara Do‘simek esa toqatsizlanib, o‘tirgan joyida qimirlab qo‘yar, goh qashinib, goh burnini kovlab, atrofga alanglardi. Egniga harir chopon kiygan bo‘lsa-da, uning badanidan ot hidi kelib turardi. Mehtar ming‘irlab gapirarkan, Do‘simga qarab burnini jiyirar, aftini burushtirardi.

– Bir necha so‘z xotirga kelib edi, aytmoxlik vobjib ko‘rinur, – deb so‘zida davom etdi mehtar salobat bilan. – Avval ulkim, Maskop ulug‘ kenoslari birla do‘stligi shevasida so‘ylashmoq, ba’d in‘omlar ilá aning ko‘nglini ovlamoq lozimdur, toinki har ikki

podshoning arosidagi savdo-tijorat ishlari ravnaq topg'ay. Yana ulkim, o'ris yurtida Buxoro savdogarlar boj-xiroj lafzini eshitmasinlar, agar biz tomonga o'ris savdogarlari kelib to'xtasa, biz dog'i boj olmaydurmiz. Hojitarxon borg'on bizning savdogarlar xafa bo'lib ketobdilar, oxe. Bahri Xazar<sup>1</sup>da kema darg'alari alarga o'n besh so'mdin boj solib to'xtabdurlar, bo Hojitarxon kenosi tamg'a puli olibdur. Siz oq podshog'a, ya'ni Maskop ulug' kenosiga aytingkim, tujjor<sup>2</sup> ahlining boshidan boj-xiroj balosini daf etsin. Yana ulkim, Buxoroda oq-u sariq shohi, kimxob, baxmal kasod bo'lib to'xtaptu. Akun, biz bu mollarni sotmoq uchun o'ris bozorlarini ilkimizga olmog'imiz zarur. Afsuski, Kuchumxon dastidan ikki arog'a sovuqlik tushdi. Ul janob oq biy arziga yetkuringkim, biz Kuchum birla Maskop arosiga tushmaydurmiz, betaraf, ya'ni xolis qolurmiz. Himmati oliv gumon qilmasunkim, biz Maskop dushmani bo'lg'on Kuchumxonga ko'mak beropmiz deb, ammo mazkur xon birla ham savdo qilib turgaymiz. Sizlarning vazifangiz ikki ulus aro do'stlik iplarini mahkamlamoqdur, toinki muxolifat muvofiqatchilik birla mubaddal bo'lg'ay.

Mehtar elchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatayotgan mahalda xonning maxfiy ishlarini boshqaruvchi Qulbobo Ko'kaldosh Hoji Baxshillo bilan o'z uyida suhbatlashib o'tirardi. O'ymakor tokchalarga zich qilib tizilgan qimmatbaho chinni idishlar, tilla va kumush ko'za, qadahlar derazadan tushgan kechki quyosh yorug'ida yalt-yult qilib tovlanardi.

Soch-soqoli oqarib ketgan bo'lsa-da, mo'ylovi bilan qoshi qop-qora, kekirdagi turtib chiqqan ayol o'ng ko'zini qisib, ro'parasida o'tirgan chag'ir ko'z, cho'qqi

<sup>1</sup> Bahri Xazar – Kaspiy dengizida.

<sup>2</sup> Tujjor (birligi – tojir) – savdogarlar.

---

---

soqol, turqi sovuq hojiga go'yo uni birinchi marta ko'rayotgandek tikilib qarar edi:

– Hanuzgacha bizga qilg'on xizmatlarining badaliga biz dog'i yordamimizni ayamadik: yer-suv inoyat qildik, inshollo, kam bo'lma dingiz chog'i. Sizga yana bir xizmat bor, ildayroq o'tiring!

Hoji Baxshillo Ko'kaldoshga yaqinroq o'tirib, qu-log'ini ding qildi:

– Qulog'imga ilindi, siz janoblari ham Maskop sari azimat qilmoq niyatida ekansiz...

– Rost aytdingiz, aka mullo. Bandangiz ham uch-to'rt teva mol olib, mulla Shokirga hamroh bo'lib ketmoq niyatidadurman.

– Yaxshi niyat – yorti mol, ishingizga xudo kusho-yish berib to'xtasin. Men ham besh-to'rt teva mol qilib beray, akun, foyda-ziyoniga teng sherik bo'laylik.

– Jonim birla, sizga xizmat qilmasam, kimga xizmat qilay, oxe.

– Sadoqatingiz uchun hazor rahmat.

Ko'kaldosh shundog' ham qisilib qolgan o'ng ko'zini yana qisib, chap ko'zini o'qraytirib, dedi:

– Savdo-sotiq ishi birla mashg'ul bo'lib, o'z vazifangizni xotirdan faromush qilmang. Siz, avvalo, xonning ko'z-qulog'isiz. Safar chog'ida bo'lgan muhim gaplarni maxfiy suratda bir qog'ozga yozib, ani tumor qilib taqib oling, toinki hech kimarsa payqamasin.

Hoji indamay qovog'ini solib, bosh egib qo'ydi.

– Nega xomush to'xtadingiz? Oxe, vazifangiz ko'nglingizga tegdimu?

– Yo'q, taqsir.

– Bul vazifani sizdin bo'lak hech kimarsa qilolmaydur. Ushbu ishning etokiga har kimarsaning ilki yetmaydur. Xohlaymankim, siz avvalgidek o'z vazifangizni unutmagaysiz. Ba'daz so'z shulkim, Hojitarxon borg'onda o'shal yerlik Lopata nomli o'ris savdogarga

ushbu sovg'ani bering. – A'yon ipak lattaga o'rog'liq buyumni uzatdi. – O'n ikki misqolli sarig' yoqut. Ilkin-gizga ne bersa, tumor qilib bo'yningizga, har ne so'z desa – qulog'ingizga ilib oling. Ammo zinhor o'rusrular ko'nglida shubha yilonini uyg'otmang, o'shal yerlik no'g'oyslar birla gapurushmang. Siz iseg'-sovug'ni totg'on, yaxshi-yomonni ko'rg'on odamdursiz. Bemu-lohaza ish qilmaydursiz. Agar shul ishni anjomiga yetkursangiz, Xurosandan ellik tanob yer suyurg'ol qilurmiz. Ammo g'ofil bo'l mang!

– Xo'p, taqsir.

– Yana qulog'ingizda bo'lsunkim, Maskop saroyi va podsho xonadoni borasida eshitgan so'zlarni xotira ipiga marjon yanglig' toqib oling.

– Xo'p, taqsir.

Ular dasturxon ustida ancha vaqtgacha gapashib o'tirishdi. Xayrashish vaqt kelganda, Qulbobo Ko'kaldosh iljayib:

– O'zingiz birla bo kimlarni olib bormoq niyatidursiz? – deb so'rab qoldi.

– Eroniy xizmatkorim ila yasirim<sup>1</sup> Zahroni.

– Ibi! Peshonangizga bitgan bul qimmatbaho gavharni, bul nozaninni yo'lda yitirib qo'yishdan qo'rqmaysizmu? – dedi a'yon fosiqona iljayib.

– Taqsir, go'shingizga ilingandur: mashoyixlar aytibdurlarkim, safar kamarini belga bog'log'on kishi sohibjamol yorini uyda qoldurub ketmasun, deb. Hech kimsaga e'timod<sup>2</sup> yo'q.

– Oriy, rost aytdingiz. Ammo yo'lda ehtiyyot bo'lg'aysiz. Tog'i kabutaringizni lochinga oldurib qo'y mang.

Ko'kaldosh Hoji Baxshilloning bog'iga borganda, uning yangi sotib olgan joriyasi Zahroni ko'rib, ha-

<sup>1</sup> Yasir – yesir, qul, joriya.

<sup>2</sup> E'timod – ishonch.

---

---

vasi kelgan edi. O'sha mahalda qul xotinlar nomah-ramdan qochmas, hatto xo'jasining bazmlarida yarim yalang'och holda raqs etar edilar. Sharq sultonlari, beklari, a'yonlarining saroylarida ko'kraklari bilan tizzalarining yuqori qismigina o'rtilgan qul raqqosalar ko'p edi. Hukmdorlar xalqdan talab olgan boyliklarini ayamay, tez-tez ziyofat berib turar, sharob ichib, joriyalarning raqlarini huzur bilan tomosha qilar edilar.

Qulbobo qorachadan kelgan mo'rchamiyon Zahroni eslaganda jilmayib:

– Yesiringiz tushmagur asru ko'zga yaqin, ehtiyot bo'ling, dog'i ko'zikib qolmasun, – dedi.

– Ehtiyot qilurmen, taqsir, – dedi Hoji noxushlanib.

– Bundin roppa-rosa o'ttiz yil avval, ya'ni umrim gulshanining bahorida bir kun Poyostona guzari sari qul xarid qilg'oli borg'on erdim, – deb gapga tushib ketdi Ko'kaldosh ajoyib bir xotirot xayolida jonlangandek tirjayib. – Guzarda bir sohibjamol eroniq qizni ko'rdirikim, aning mehri ko'nglimga joy oldi. Qiyishmay, oni yuz tilloga sotib oldim. Kechalari shamg'i ruxsori birla xonam yorug', ko'nglim uyi munavvar erdi. Ammo menga bir tolesizlik ro'y berdi. Baxt qushimni falokat boyqushi changoliga olib qochdi. Kaminaning bir quli birla ul joriyam til biriktirib qochibdur. Orqalaridan odam qo'yib quvlatdim va lekin navkarlarim alarni topolmay qaytib qoldilar. Alarni na osmonda topib bo'ldi va na yerda. Bu mudhish hodisadin so'ng bir oyga dovur o'zimga kelolmay yurdim, bu yorug' dunyo ko'zimga qorong'i bo'ldi...

Hoji Baxshillo a'yonning uzundan-uzoq hikoyasiغا qulqoq berib, o'zini esnashdan zo'rg'a tiyib o'tirdi. Kechki ovqatni yeb, ustidan bir piyola qaynagan sovuq suv ichgandan keyin o'rnidan turib, ta'zim qildi-da, ketishga ruxsat so'radi.

– Xayr, panoyi xudo, boring! Ammo boyagi gaplirimni xotirdin faromush qilmang, – dedi a'yon xayr-lashib.

## II

...Bir oy ilgari Buxorodagi Urganch saroyining kunga teskari tushgan torgina bir hujrasida ikkita qul ayol o'z qismatini kutib o'tirardi. Ularning biri moviy ko'z, qo'ng'ir soch, bo'ychan, qotmagina ayol bo'lib, bir qarashdayoq uning qorli shimol o'lkasining qizi ekanligini payqab olish qiyin emasdi. Uning yoshi o'ttizdan oshgan bo'lsa-da, hali o'z chiroyini yo'qotmagan, ma'yus chehrasida sokin bir ifoda, sabr-u toqat ko'zga tashlanib turardi. Bu ayolning ko'zlarida berahm qismatning sovuq shamollari ham so'ndirolmaydigan hayot shami miltillab yonardi. U qoqshol qo'llari bilan tizzalarini quchgancha isqirt bo'z ko'rpa cha ustida cho'qqayib o'tirar va betoqat bo'lib, uh torta-torta, u yoqdan-bu yoqqa yurib turgan yoshgina dugonasiga onalik mehri bilan qarardi.

– O'zingni bos, Zahro! Kel, yonimga o'tir. Nima qilasan o'zingni behudaga urintirib, – derdi ayol mayin ovoz bilan. – Hadeb uh tortaverishdan bir chaqallik foyda yo'q.

– Yuragim g'amdan portlayur, boji. O'zimni haro qo'yim! – dedi yosh qiz.

– Yuragingni keng qil. Shoshma, zora bir yaxshilik bo'lib qolsa.

– Harna o'lsaydi, bu zolimning alindan qutulub chiqib kedaydik...

Falokat girdobiga tushgan bu chorasisiz qul ayollarning xo'jasи Berdiniyoz karvonsaroy hovlisining bir chekkasidagi so'ri ustida saroybon bilan gaplashib o'tirar va bozorning kasodligidan nolir edi.

---

---

– Uch kun bo'ldi, ikki yesirni sota bilmam, – dedi olti oylik qo'zining terisidan tikilgan cho'girmasini<sup>1</sup> boshida silkitib. – Menda go'zal bir raqqosa qiz bor, deya puldor kimsalarga darakchilar yubordim, ammo xaridordan darak yo'q.

– Sen ko'p oshiqma, ehtimol, xaridori yo'lda ke'layotgan chiqar, – dedi barvasta, bir ko'zi g'ilay saroybon do'rillab. – Mol qancha bo'lsa ham xaridor topiladur. Ammo-lekin qayu saroya kirsang: «Qul olasizmi?» – deb so'raydurlar. Abdullaxon Xurosonga bosqin qilg'on kundin boshlab, qulning bozori kasod bo'lib, narxi tushib ketdi. Poyostona guzaridagi Qum bozori biram chiroyli asirlar va yigitchalar birla to'lganki... He, agar hamyonda pul bo'lgandaydi...

– Rost gap, qul urug'i kun-bakun ko'payayotir. Qo'limganlarni tezroq pullab olishim kerak, bo'limasa alar o'z xunini yeb qo'yadurlar.

– Bo'lmasa-chi! Qul deganni yaxshi boqmasang, oriqlab ketadur, bozor ko'tarmay qoladur, – dedi saroybon Berdiniyozi peshonasiga qarab. – Xususan, ayollar... nozik mol... Sizga bir sir aytay. Agar yesirlarim sotilsin desangiz, duoyi qarinjani o'qiybering, nafi ko'p.

– Ha, bilurmen. «Jabroil-u, Azroil-u, Mekoil-u, Is-rofil...» – deb quldarlar duosini o'qiy ketdi Berdiniyozi.

Toshyurak quljallob xudoga yalinib-yolvorib, o'z kasb-koriga kushoyish tilar: «E tangrim, shul mahal-gacha ishimga rivoj berib kelding, bundan so'ng ham meni unutma», deb yolvorardi. Shu topda burchak-dagi hujradan ma'yus bir munojot ovozi eshitildi. Darvozabon bir dam qulq solib turib:

– Allakim uv tortib yig'layotir, – dedi.

---

<sup>1</sup> Cho'girma – bosh kiyimi.

– Yig‘layotgani yo‘q, xudoya yolvorib munojot o‘qiyotir, – dedi Berdiniyozi. – O‘ris ayol... Borib tovushini o‘chirmasam, yurakni g‘ash qiladur.

Jallob o‘rnidan irg‘ib turib, yesirlar o‘tirgan hujra oldiga keldi, halqalariga katta burama qulf solib qo‘yilgan o‘ymakor eshikni qattiq taqillatdi.

– O‘xumog‘o-da, qo‘ymiyir, joni jahannama gatsin, – dedi Zahro. – Qo‘y boshingdan gechan so‘zlari degin.

Eronlik Zahro uch yil ichida o‘z ona tili bo‘lgan ozarbajjonchani bir oz unutgan, o‘zbek, turkman so‘zlarini aralashtirib gapirardi. Rus ayoli esa o‘zbek-chani mukammal o‘rganib olgan edi.

...Alyonka knyaz Borovskiyga qarashli bir dehqoning arzanda qizi edi. Otasi knyazning yerini haydab, ekinini ekar, qizi esa onasi bilan knyazning qo‘rasida mato to‘qir edi. Kecha-kunduz ishlasalar ham qorinlari nonga to‘ymas, qish kunlari qora unga kepak qo‘shib, non yopib yer edilar.

Alyonka yoshi o’n oltiga yetganda, knyazning Ivashko degan bir qaroli bilan sevishib qolgan edi. Biroq knyaz oshiq-ma’shuqlarning to‘yiga ruxsat bermadni. Alyonka novdadek xipcha bel, chiroyli bir qiz edi. Knyazning niyati buzilgan bo‘lsa kerak, uni o‘z uyiga oqsoch qilib olmoqchi bo‘ldi. Qiz esa yigit bilan janubga – Don tomonga qochmoqqa ahd qilishdi. Ota-onalari ularga oq yo‘l tilab, oziq-ovqatlarini g‘amlab, yo‘lga uzatib qo‘ydilar.

Alyonka bilan Ivashko ne mashaqqatlar chekib, Dondagi kazak qishloqlarining biriga yetib olishdi. Bu yerda ularga o‘xshash qochoqlar juda ko‘p ekan. Usti yirtiq-yamoq, qorni och bo‘lgan bu odamlar ovqat uchun har qanday ishga yollanaverar ekanlar. Alyonka bilan Ivashko ham bir kazakka yollanib kun kechira boshlashdi. Qisqa bir muddat birga yashab, shirin umr kechirdilar. Biroq ularning bax-

---

---

ti qora bulutlar orasida chaqnagan yashin kabi lip etib o'tib ketdi.

Oradan uch yil o'tgach, ularning qishlog'iqa qoq yarim ko'chada no'g'oylar bostirib kirib, boy kazaklarni talab, ko'p odamlarni bandi qilib olib ketdilar va Xivaga olib kelib sotdilar. Quljallob Alyonkani eridan ayirib, urganchlik bir boyga ellik tillaga pullagandi.

Quldarlar erni xotindan, akani ukadan ajratib sotar edilar. Chunki eri xotinini, aka ukani niyati buzuq odamlardan himoya qilishi mumkin edi.

Zahroni ham akasi Zaynoldan ajratib, quljallob Berdiniyozga sotgan edilar. Zahro Xurosonning kumbotar tomonidagi Sadanrustoq bo'limida yashovchi ozarbayjonlik bir dehqonning qizi edi. Abdullaxonning kallakesarlarbu qishloqqa bostirib kirib, qarshilik ko'rsatgan erlarni qirib tashladilar, yosh qiz va yigitlarni bandi qilib, Buxoro, Xiva, Chorjo'y bozorlarida mol kabi sotdilar.

Oriqlab ketgan ohu ko'z Zahroni Berdiniyoz bir askardan arzon-garovga sotib olib, uyiga olib kelgan va uni ko'z qorachig'idek asragan, paypaslab boqayotgandi.

\* \* \*

– Oh, o'z qardoshimi go'ran vaqtim o'larmi? – dedi Zahro betoqat bo'lib.

– Umidingni uzma, singlim, albatta, ko'rasen. «Tog' tog' bilan qovushmaydur, ammo odam odam bilan qovushadur», degan gap bor.

– Oy ollo, dedig'ing galsin, – dedi Zahro duo o'qib. So'ngra shialar mazhabida avliyo bo'lgan shaxslarning nomlarini tilga olib pichirladi: «Ey imomlar, madad aylang man notavona».

Alyonka ham bir burchakka o'girilib, tiz cho'kib oldi-da, o'qtin-o'qtin boshini toshga urib, ibodat qila boshladi.

Berdiniyoz shoyi ko'rpacha ustida yonboshlab yotgan mahalda darvozadan atlas chopon kiygan o'rta yoshli bir kishi ko'zlarini chaqchaytirib kirib keldi. Bu katta savdogar Hoji Baxshillo edi.

Saroybon bilan quljallob o'tinlaridan irg'ib turib, ta'zim qilishdi.

- Kelsinlar, marhamat qilsinlar.
- Karvonboshi Qutlug' Murodboy shu yerdami? – deb so'radi kelgan kishi salomga alik olib.
- Yo'q, taqsir, Poyostonaga ketib erdilar.
- Hay, attang, ul kishiga zarur bir ishim bor edi.
- Janoblari o'tira tursinlar, karvonboshi hademay kelib qolar.

Hoji Baxshilloning yuzi soxta bir tabassum bilan yorishgan bo'lsa ham, lekin uning chag'ir ko'zlar o'qrayib turar, bu ko'zlar shishadan qilinganga o'xshardi. Sovuq basharasi uning rahmsiz, dag'al, ri-yokor bir odamligidan dalolat berganday bo'lardi.

Saroybon dasturxonga o'tirishga qistasa ham mutavalli shoshib turgan, bir narsani axtargan kishidek alanglay boshladi. Ketish oldidan u Berdiniyozga il-jayib:

- Sizda bir raqqosa qiz bor, deb eshitdim, – deb qoldi.
  - Ha, taqsir, rost aytadilar. Buxoroda bu yanglig' o'yinch'i qizni topmoq qiyin. Agar xarid qilmoq bo'lalar...
  - Yo'q, yo'q, shunchaki so'rab to'xtadim.
- «Ha, ayyor, – deb o'yladi quljallob, – Zahroning ta'rifini eshitgan, lekin uni arzon-garovga sotib olish uchun tulkidek muqom qilyapti».

Hoji xuddi ketmoqchi bo'lgan kishidek darvozaga qarab yurdi. Quljallobning tarvuzi qo'lltig'idan tushib:

---

---

«Chindan ham odam niyatida emas ekan», deb o'yla-di. Biroq shu on riyokor Hoji:

– Akun, sotib olmasam-da, yesiringizni bir ko'rib ketay, – deb qoldi.

– Marhamat.

Berdiniyoz xaridorni kutib, ayollarni yasantirib qo'ygan edi. Zahroning egniga shoyi ko'ylak, boshiga zar do'ppi kiygizib, beliga kavkazcha kamar bog'latgan, sochini orqasi bilan bitta qilib o'rdirgan edi. Alyonka ham doka ko'ylak kiygan, boshiga oq solgan edi.

Hoji bedanaga ko'zi tushgan qarchig'aydek Zahroga qiya boqib, turgan joyida bir nafas qotib qoldi. O'rta bo'yli, xipcha bel, qorachadan kelgan bu qizning yumaloq yuzi xuddi yangi pishgan shaftolidek mayin tuklar bilan qoplangan, chehrasi ma'sum va hazin bir tabassum bilan yorishib turardi. La'l singari qip-qizil lablari orasidan sal-pal ko'rinish turgan tishlari durdonaga o'xshardi. Ko'zlari yumilganda, uzun kipriklari ostiga soya tashlab, husniga husn qo'shardi. Falokat girdobiga tushgan bu ajoyib gul o'z chiroyini yo'qotmagan, hayot niholchasi balo toshlari orasidan yorib chiqib, gullab turardi.

Badnafs Hoji bu hayot gulini ko'rgach, qo'l cho'zib, uni uzib olgisi keldi, nafasi tiqildi, ko'zi tinayozdi. Bi-roq quljallob oldida turganini va agar sir boy berib qo'ysa, ortiqcha chiqimdar bo'lib qolishini anglab, darrov o'zini o'nglab oldi, shu on yuzida soxta mensimaslik alomati paydo bo'ldi. O'zini beparvolikka solib:

– Qancha beray, akun? – deb so'radi.

– Ellik besh tilla, kamiga unamayman.

– Ellik besh? Ibi! Gapurmang-e! Undan ko'ra ikki yesir olsam bo'lmaydimi, oxe? – Hojining yuzi cho'zilib ketdi.

– Men bu qizni ikki tugul, to'rt yesirga ham alishmayman. Bu yanglig' raqqosa xon saroyida ham yo'q.

– Qirq beray.

– Bo'lmaydur.

Mutavalli imlab, jallobni bir chekkaga chaqirdi-da, qulog'iga bir nima deb shivirladi.

– Yo'q, yo'q, – dedi jallob bosh chayqab, – o'z qizim-dek asraganman, azbaroyi xudo!

Eski quljallobning so'ziga ishonsa bo'lardi. Ko'ngli xijil bo'lib turgan mutavalli uning gapini eshitib, taskin topdi, savdolashib, ellik tilla bermoqchi bo'ldi.

– Manavi o'ris ayolini ham qo'shib olib keting.

– Darkori yo'q.

– O'ris bandilar g'alamislikni bilmaydur, – dedi darbozabon so'zga aralashib. – Yaxshi boqsangiz, xushmuomala bo'lsangiz, joningizni kirgizadur.

– Oling, arzon beray. O'zi pazanda, buning ustiga, mato to'qishni ham biladur.

Alyonka bilan Zahro bu savdo-sotiq manzarasini tashvish bilan kuzatib turardilar, ularning ranglari bo'zarib, yuraklari po'killardi. Xaridorning chaqchaygan ko'zlari, yuzidagi dag'allik alomati ularni qo'rquvga solgan edi.

«Ey imomlar, madad aylang, panohingizda saqlang», deb pichirladi Zahro. Alyonka ham xristian avliyolarining nomini tilga olib, duo o'qir, tinmasdan pichirlardi. Mutavalli qiyisha-qiyisha Alyonkani ham o'ttiz tillaga sotib oldi. Sakson tillani naqd sanab berib, yesirlarni o'z hovlisiga jo'nattirdi.

### III

Hoji Baxshillo Alyonkani Romitondagi mulkiga yuborib, Zahroni shahardagi hovlisida olib qoldi. Uning quldan ham xor xotini Shirbudinda turardi. Hoji o'z xotini, bola-chaqalarini ham unutib, ke-

---

---

cha-yu kunduz Zahroning atrofida parvona bo'lib qoldi. Uning ko'nglini ovlash uchun harir ko'yaklar, qimmatbaho taqinchoqlar olib berdi. Biroq bularning hech biri qizning yuragiga sig'mas, ko'nglini ko'tarmasdi. Boshda u og'ziga tuz ham olmay, ro'moli bilan yuz-ko'zlarini berkitib o'tirar, Hojiga xotin bo'lgandan ko'ra ochdan o'lishni afzal ko'rardi. Uning xizmatida bo'lgan cho'ri xotin (bir vaqtlar Hojining otasi qul bozoridan sotib olgan eroniy kampir) unga laziz taomlar pishirib, aldab-suldab yedirmoqchi bo'lardi. «Yemasang oriqlab ketasan, xunuk bo'p qolasan, unda seni Hoji qishloqqa og'ir ishga yuboradi, kasal bo'lib o'lib ketasan. Sen noumid bo'lma, balki keyinroq ozod bo'lib ketarsan», deb avrardi u. Zahro uning so'ziga uchib, oz-ozdan ovqat yeydigan, hech kimga ko'rsatmay harir ko'yaklarini kiyib ko'radigan bo'ldi...

Yoshligida Zahro chiroyli yigiltlarni ko'rganda, muhabbat unga erishib bo'lmaydigan baxtga o'xshab ko'rinardi... Endi nafratlari Hojining domiga ilingandan keyin muhabbat so'zini eshitganda, ko'ngli gum ketadigan bo'lib qoldi... Lekin bora-bora, qush o'z qafasiga o'rgangandek, u ham o'z ahvoliga ko'nika boshladi. Ba'zan hech kim yo'g'ida u yoq-bu yoqqa qat devordagi qoziqqa osig'liq doirani olardi-da, sekin-asta chertib, gardishdag'i halqalarning shildiragan ovozlariga quloq solar, yelkalarini uchirib qo'yari, beixtiyor oyoqlari o'yinga tushib ketardi. Biroq tash-qaridan tiq etgan ovoz eshitilsa, o'yindan to'xtab, doi-rani ilib qo'yardi.

Oradan bir oy o'tgach, Hoji rus eliga safar qilayotganini, uni ham o'zi bilan olib qolmoqchi bo'lganini bildirganda, negadir Zahroning ko'ngli ochilib ketdi. Alyonka unga o'z yurtidagi ilvasin to'la qalin o'rmonlar, oqqushlar suzib yuradigan tiniq ko'llar, dengiz kabi keng daryolar to'g'risida gapirib bergen edi. U

---

xo'jasining gapini eshitib: «Alyonkaning yurtini ko'rib kelaman», deb xursand bo'ldi, yosh yuragi yaxshilik-dan darak berayotgandek quvonchga to'lib, dukillab ura boshladi. Hoji o'z yesirining xursand bo'lganini ko'rib, ko'ngli taskin topdi-da, safar anjomini tayyorlashga tutindi.

Elchi Muhammadali, Do'sim va mulla Shokir ham safarga hozirlana boshladilar. Muhammadali o'zi bilan birga o'g'li, qizini, uch nafar xizmatkor quli, bakovulini ham olib ketayotgan edi. Do'sim ham undan qolishmay, besh-olti navkar-chokarini ergashtirib olib ketmoqchi edi. O'nlab xizmatkorlar, qullar, nozanin joriyalar qurshovida yashab o'rganib qolgan asirlar safarda ham rohat-farog'atlarini tark etishni istamas edilar. Shu sababdan Haji Baxshillodek boy kishining o'zi bilan birga faqat ikki kishini – bir xizmatkor quli bilan joriyasini olib ketayotgani ko'p odamlarni taajjublantirdi.

Ikki haftalik tayyorgarlikdan keyin, o'nlab tuyalariga mollari ortilgan karvon sahar chog'ida Hazrati Imom darvozasidan chiqdi. Eng keyingi tuyaning bo'yniga osilgan katta qo'ng'iroq jarang-jurung qilib, hunarmand-kosiblarning ishlariga kushoyish tilagandek bo'lar edi. Eng oldindagi nortuyani kichkinagina oq eshak mingan telpakli yo'l ko'rsatuvchi yetaklab borar, savdogarlarning ba'zilari tuyalarga, ba'zilari otga minib olgan, karvonning oldida, orqasida, ikki tomonida qurolli soqchilar borardilar.

Savdogarlar, elchilar va ularning xizmatkorlari ham ichlaridan qilich taqib olgan edilar.

Karvon bepoyon va suvsiz qum sahrolaridan o'tib, Xorazmga, u yerda ovqat g'amlab, Ustyurt orqali Kaspiy dengizi bo'yidagi Mang'ishloqqa yetib olishi kerak edi. Mang'ishloqda rus darg'alari qo'mondonligidagi kemalarga o'tirib, serto'lqin Kaspiy dengizi

---

---

orqali Hojitarxonga yetib olar edilar. Yo'l mashaqqatli va xatarli edi. Yuragida bir bor g'ayratli kimsalargina tavakkal otiga minib, bunday og'ir safarga chiqar edilar. Ba'zan savdogarlar kimsasiz cho'llarda qaroqchilarga duch kelib, qurol kuchi bilan o'zlariga yo'l ochar edilar.

Elchilar Astraxanga yetib, Volga daryosi bo'ylab Qozonga, keyin Nijniy shahriga yetib olishar, u yerdan qora, qalin o'rmonlar orqali Moskvaga jo'nashardi. Bora-borguncha sahro shamoli – garmseldan, sovuq izg'irindan yo'lovchilarning betlari qorayib, lablari tars-tars yorilib ketardi.

\* \* \*

Muhammadali boshchiligidagi elchilar, savdogarlar karvoni Astraxan va Qozon shahar boshliqlariiga boj to'lab, ming mashaqqat bilan qish o'ttalarida Moskva bo'sag'asiga yetib oldi<sup>1</sup>. Shahar tashqarisida buxoroliklarni ustlariga qora tulki po'stin, boshlariga uzun telpak kiygan pristav bilan boyarlar va amaldorlar qarshi oldilar. Hamma yoq ko'kish qor bilan qoplangan, sovuq chirsillar edi. Buxoroliklar egnilariga ko'k movut sirilgan pochapo'stin, boshlariga qorako'l telpak, oyoqlariga jun paytava o'rab, kavush-mahsi kiygan bo'salar ham sovuqdan junjikib turardilar.

Ikki beti qip-qizil, barvastadan kelgan pristav elchilarni uzoqdan ko'rgach, otdan tushib, ularning istiqboliga kelaverdi. Oldinda kelayotgan Muhammadi bilan Do'sim ham darhol egardan tushib, podshoh amaldori bilan qo'l berib ko'rishishdi. Pristav ularning sog'-salomatligi, yo'lda qanday kelganlikla-

---

<sup>1</sup> Elchi Muhammadali 1589-yilning 18-fevralida Moskvaga yetib olgan edi.

---

rini so'ragach, oliymaqom mehmonlarni tabriklab, qisqacha nutq so'zlagan bo'ldi. So'ngra hammalari yana otga minib, shahar tomon jo'nadilar.

Moskva aziz mehmonlarni tantana bilan qarshiladi. Kreml to'plari baravariga o'q uzib, mehmonlarni tabrikladи. Shahar aholisi, kosiblardan tortib boyarlarga buxoroliklarni zo'r quvonch va maroq bilan kutib oldilar. Ko'chalar tirband va olag'ovur. Keng ko'chalarning har ikki tomonini telpak ustidan ro'mol o'rab olgan rang-barang kiyimli ayollar, soqollaridan sumalak osilib tushgan po'stinli erkaklar band qilgan, qo'llariga oybolta ushlab olgan askarlar orqalari bilan ularni to'sib, elchilarga yo'l ochib berardilar. Mehmonlarni otliq streletslar qo'riqlab kelardi.

Niglinnaya soyi Moskva daryosiga kelib quyiladigan joydagi tepa ustiga qurilgan Kremlning baland kungurador g'ishtin devorlari, munaqqash minoralari, baland devorlar orqasidan ko'rinish turgan saroylarning tomlari, ibodatxonalarning oltin qubbalari yangi kelgan kishida kuchli ta'sir qoldirardi. Moskva Rossiyaning poytaxti bo'lsa, Kreml Moskvaning yuragi edi.

Kreml devorlarining balandligi ba'zi joylarda o'n yetti metrcha kelar, qalinligi to'rt yarim metr edi. Moskva daryosi va unga quyiladigan daryochalar o'rmon bilan qoplangan bu o'lka viloyatlarini bir-biri bilan bog'lovchi savdo yo'llari edi. Rus viloyatlariga va G'arbiy Yevropaga Sharqdan boradigan turli-tuman tovarlar Moskva orqali o'tardi.

Ko'chalarning qori kurab tashlangan, Tverskaya ko'chasiga tosh o'rniga ko'ndalangiga uzun-uzun g'o'lalar zich qilib yotqizilgan edi. Ikki chekkada yangi po'stin kiygan streletslar saf tortib, qotib turishardi. Ustiga qimmatbaho tovarlar ortilgan chanalar turnator bo'lib ko'chadan o'taverdilar.

---

---

Elchi va savdogarlar otliq soqchilar, amaldorlar qurshovida Tverskaya ko'chasidagi katta qo'raga kelib tushdilar. Ular issiq xonalarda dam olgach, hammomga tushib, yuvinib-taranib oldilar, kiyimlarini alishtirdilar. Elchilik mahkamasi mehmonlarga so'yib yeyish uchun o'ntacha qo'y, ichish uchun ikki chelak sharob, turli oziq-ovqat yubortirdi. Buxoroliklarning holidan xabar olib turish uchun Ivan Bochkov degan kichik bir amaldor mutasaddi qilib tayinlangan edi. Mehmonlarni o'z darajalariга ko'ra alohida-alohida izbalarga joylashtirdilar. Bosh elchiga g'ishtin uy, Hojiga qaraq'ay g'o'lalariдан qilingan ikki xonali izba ajratildi. Mehmonlar issiq uylarda, yumshoq to'shaklar ustida orom oldilar. Ertasiga bakovullar qo'y go'shtidan buxorocha qovurma, qozonkabob tayyorlab, o'z xojalarini xursand qilishdi.

O'ttizlarga borib qolgan, barvasta, qora soqol amaldor Ivan Bochkov tatarcha biladigan bir soldat bilan bosh elchining huzuriga kirib, u bilan holahvol so'rashgandan so'ng Hoji Baxshillo turgan uyga qarab yurdi.

Bochkov izbaga kirishi bilan boshidan telpagini oldi-yu, odaticha, burchakka qarab cho'qinishga chog'landi, biroq ikona yo'qligini payqab, jahl bilan yana telpagini bostirib kiyib oldi. Uning ko'zi qovurmani yeb, yog'li qo'lini ko'k gulchinli mahsisiga artayotgan Hojiga tushdi. Hojining ko'zi esa jizza o'g'irlab yegan mushukning ko'zidek yiltirardi. Zahro stol ustidan idish-tovoqlarni yig'ishtirmoqda edi, u bo'sag'ada turgan yigitni ko'rib, angrayganicha unga qarab qoldi.

– Kiraversam bo'ladimi? Xo'sh... yaxshi uxbab turdinglarmi? – dedi Ivan boshidan telpagini qo'liga olib.

– Kiring, kiravering... Ming qatla shukur, yangi joyda yaxshi tushlar ko'rib uxladik. Qani, mahram, shined, shined<sup>1</sup>.

Bochkov eshik og'zida unga qayrilib qaragan Zahroga ko'z qirini tashladi-da, skameykaga sekin o'tirdi. Charosday ko'zlari chaqnab, gulday yuzi yorishib ketgan ozariy qizni ko'rgach, ikona yo'qligidan ta'bi xira bo'lgan yigitning ko'ngli ochilib ketdi. Bu go'zal ayol ikona o'rnnini bosgandek bo'ldi.

– Zahro, dasturxon olib kel! – deb baqirdi Hoji.

Zahro stol ustiga Buxorodan keltirilgan pista, bodom, quruq mevalar, to'qochlar keltirib qo'ydi-da, chiqib ketdi.

– Xotiningizmi? – deb so'radi Ivan sanamning orqasidan suqlanib qarab.

– Yo'g'e! Xotinim bo'lganda, nomahramga ko'rsatmagay erdim. Joriyam. Tillo barobariga xarid etganman.

– Baxtli ekansiz, – deb xo'rsindi yosh amaldor.

Mo'g'ulbashara soldat ularga tarjimonlik qilib turdi.

Hoji kumush qadahlarni tizib, stol tagidan bir ko'vecha oldi-da, mehmonlarni sharob bilan siylay boshladi.

– Oq podsho sihat-salomat yuribdilarmu? – deb so'radi Hoji bir oz qizishib olgach.

– Xudoga shukur, tan-jonlari sog'. Butun faqir-u fuqaro tojdorlarimizning sog'-salomatligini kecha-yu kunduz xudodan tilab yotibdilar.

– Salomat bo'lsinlar.

Hoji chechak izlari qolgan yuzini bosib ketgan qo'ng'ir soqolini asta silab, Ivan bilan u yoq-bu yoq-dan gaplashib o'tirdi. U yo'lda ko'rgan-kechirganlarni qisqacha gapirib bergandan keyin, suhbatdoshining qulqlari qizarib qolganini ko'rib, qo'yniga qo'l solib ko'rmoqchi bo'ldi.

<sup>1</sup> O'tiring (tojikcha).

---

---

– Faqir-u fuqaro oq podshodin xursand emish, deb eshitadurman, – dedi Hoji kulimsirab.

– Rost. Olamga Fyodor Ivanovich singari yumshoq ko'ngil, rahmdil, xudojo'y podsho kelmagan va kelmaydi, afsuski, bolalari yo'q-da...

– Bachalari yo'q? Malika xonim bacha ko'r'maganmu, oxe?

– Shiringga bir qizlari bor edi, vafot etdi, oti Feodosiya edi, – dedi Bochkov xo'rsinib.

– Hay, darig! Xudoyi taolo yakka-yolg'iz farzandni ham ko'p ko'ribdur chog'i. Valiahd bo'lmasa, mammakatga fitna devlari kirib to'xtagay.

– Xudoga shukr, fitnachilaridan qutuldik, hammasi jazosini tortdi, shu jumladan, Ivan Petrovich Shuyskiy ham...

– Ibon Shuyskiy? Hah-ha! U nobakor fitna qilg'onmu edi?

– Ha, endi fitnachilar jazolarini tortdi. Ivan Petrovichning jiyani Vasiliy Shuyskiy hozir Boris janoblari ning oyog'ini yalaydi...

– Boris deganlari kim bo'ldi? Podshoning o'ng qo'l vazirlarimu?

– Ha, yurtimizda podsho Fyodor Ivanovichdan so'ng eng obro'li odam o'sha kishi. Malika Irina ul kishining singillari.

– E, shundog' deng. Maynasi to'la ekan. Podshoga o'z hamshirasini berib, ani o'ziga domod qilib olibdur. Aqli odam ekan, Boris Gudunop janoblari...

U eshitgan gaplarini xotirasida olib qolish uchun peshonasini tirishtirar edi. Hojining qiziqsinib qu-loq solayotganini ko'rgach, Ivan o'z xatosini anglatdi. Garchi uning aytgan gaplari maxfiy sir emas, butun olam bu voqeadan xabardor bo'lsa-da, buxoroliklar oldida bu qadar laqmalik qilish podsho amaldoriga yarashmaydigan ish edi. U ezmaligi uchun o'zidan

xafa bo'lib, tishlarini asta g'ijirlatib qo'ydi. Biroq eshikni qiya oolib qarab turgan Zahroni ko'rgach, negadir ko'ngli taskin topganday bo'ldi. U Hoji bilan bir oz gaplashib o'tirdi-da, non-u tuz uchun mezbon-ga tashakkur bildirib, o'rnidan turdi.

Yo'lovchilar ikki kun dam oldilar, uchinchi kuni Duma amaldori kelib, shu bugun ularni Butun Rus podshohi qabul qilishini bildirib ketdi. Darvoqe, nonushtadan keyin podsho uchta yasatilgan ot yubortirdi. Ko'zlari yoqutdek chaqnab turgan ot-larga kumush yugan urilgan, o'mildiriq to'qalari, taqinchoqlariga tilla suvi yogurtirilgan, yopqichi baxmaldan edi.

Shahar atrofini o'ragan qarag'ayzor, archazorlar ustida oqqushdek suzib yurgan parcha-parcha oq bulutlar orasidan oftob zarrin nurlarini hovuchlab sochar, ibodatxonalarning oltin gumbazlari yarqirab ko'zni qamashtirar, Ivan Velikiy ibodatxonasi jomxonasidan atrofga qo'ng'iroq sadosi taralardi. Odamlar to'xtab, boshlaridan telpaklarini olar, cherkovga qarab cho'qinardilar-da, yana boshlariga bostirib kiyib olib, jo'nab qolardilar. Havo toza, otlarning tuyog'i os-tida qor g'ijirlardi.

Elchilar Kremlning tagidan oqib o'tgan Niglinnaya daryochasi ustidagi tosh ko'priordan o'tib, Troitsk darvozasi oldida to'xtadilar. To'g'on bilan to'sib, sathi ko'tarilgan, qirg'oqlari botqoqlik Niglinnaya daryochasi Kremlni g'arb tomondan mudofaa qilishga qulaylik tug'diradi. Kremlning kunchiqish tomonida (Qizil Maydonga qaragan devor tagidan) keng va chuqur xandaq qazilgan edi. Bu xandaq, bir tomon dan, Niglinnaya, ikkinchi tomondan, Moskva daryosiga tutashar edi.

Troitsk darvozasining ikki tavaqasiga tunukadan o'yilgan sher surati yopishtirilgan edi. Sherlar hamla

---

---

qilishga hozirlanib, og'izlarini katta ochib turar, shishadan qilingan ko'zları o'tdek chaqnar edi. Sherlar ustida qora burgutlar parvoz etmoqda. Elchilar bu suratlarni tomosha qilar ekanlar, darvoza g'irchillab asta ochildi, ular savlat bilan Kremlga qadam qo'ydilar. Kremlning g'o'la yotqizilgan ko'chalari ozoda, qorlari kurab tashlangandi.

Kreml darvozaxonasida va palatalarning zinalarida qora telpak kiygan amaldorlar, savdogarlar, doryanlar ta'zim qilib turar edilar. Egnilarida avrasi qora, jigarrang movutli po'stin, po'stinlarining yoqasi, yenglari, etaklariga jigarrang barradan uqa tutilgandi.

Elchilar Granovitaya palatasining oldida otdan tushdilar. Pristav ularni pastakkina, shifti gumbaz taxlit qilib ishlangan issiq uyga olib kirdi. Bu shinam xonaning devorlariga turli-tuman suratlar solingandi.

Ular movut sirilgan kursilarda joylashib o'tirib olib, devorlardagi suratlarni tomosha qila boshladilar. Oradan ko'p vaqt o'tmay, qo'lida uzun aso ushlagan, egniga oltin tugmali baxmal kaftan kiygan Duma amaldori Shchelkalov viqor bilan kirib keldi. Boris Godunovning eng yaqin kishisi bo'lgan bu odam o'sha mahalda elchilik mahkamasining boshlig'i edi. U buxoroliklarga mensimaganday qarab qo'ydi-da, salomlariga shoshilmay javob berib, salobat bilan:

– Buxoro hukmdori Abdullaxon sog'-salomatmilar? Zahmat chekmay, bizning poytaxtimizga sog'-salomat yetib keldingizmi? – deb so'radi, uning savoliga javob ham kutmay, ishonch qog'ozlarini so'radi.

– Abdullaxonning yorliqlarini ko'rsak bo'ladimi?  
– Biz yorliqni oq podshoning o'z qo'llariga beramiz,  
– dedi Muhammadali viqor bilan.

– Mayli, ammo men yorliq bilan bir tanishib chiqishim shart. O'qib, yana qo'lingizga qaytarib beramiz.

Shchelkalov Abdullaxonning yuborgan yorlig‘ini o‘qir ekan, peshonasi tirishib, avzoyi buzilib ketdi:

– Janoblar, – dedi u bir oz sukut qilib turgach, yorliqda ulug‘ podshohimizning barcha unvonlari sanab chiqilmagan. Tojdorimiz va ularning maslahatgo‘ylari Boris Godunov janoblari xafa bo‘ladilar-da.

Elchilar o‘ng‘aysizlanib, sukutga ketedilar. Ularga tilmochlik qilib turgan barvasta, yalpoq yuzli tatar achinganday bosh chayqar, tilini taqillatib qo‘yardi.

– Bu to‘g‘rida Boris janoblari sizga achchiq bir gap aytsa, o‘zlariningidan ko‘ravering, – dedi Shchelkalov sukunatni buzib. – Xo‘s, Ulug‘ Rus podshohiga qanaqa sovg‘alar olib keldingizlar?

Ko‘zлari katta, qora mo‘ylov, xushsurat Muhammadali yaxshi taralgan soqolini silab, podshoga qabul marosimida topshiradigan sovg‘alarini sanab chiqdi. Elchilik mahkamasining boshlig‘i uning javobini indamay tinglab turdi-da, keyin sovg‘a-salomlardan mammun ekanini bildirdi.

Muhammadali har ikkala mamlakat o‘rtasida savdo-sotiq munosabatlari o‘rnatish, savdogarlarni boj-xirojdan ozod qilish to‘g‘risida mehtarning aytganlarini takrorladi. Agar shu to‘g‘rida bir bitimga kelishsa, Buxoro qanday rus tovarlarini sotib olishi va Rossiya bozorlariga qanday mollar chiqarish mumkinligini so‘zlab ketdi.

– Yaxshi, bu to‘g‘rida o‘ylashib ko‘ramiz, – dedi amaldor peshonasini tirishtirib.

Shchelkalov Buxoro bozorlaridagi narx-navo va hunarmandchilik mahsulotlari to‘g‘risida uzoq surishtirdi. Bosh elchi uning savollariga batafsil javob berarkan, Hoji Baxshillo xonaning devorlaridagi suratlarga nafrat bilan qarab, ijirg‘anib o‘tirardi. Bir suratda bahaybat qush bir panjasida oyni, bir panjasida quyoshni changallab turar, uning ostida «do‘zax»

---

---

olovi langillab yonib yotar, «gunohkor» odamlar olov ichida to'lg'anib, azob tortmoqda edilar. «La'natilar, – deb g'ijinar edi Hoji suratga qarab. – Kofirlar, qismat kuni bu odam va jonivorlar, bizga jon topib ber, desa nima qilasiz?»

Mutaassib Hoji elchi bilan amaldor o'rtasidagi mu-zokaralarga quloq solmay, bir chekkada tumtayib, kofirlarni qarg'ab o'tirardi.

O'sha mahalda hukmdorlar chet eldan kelgan elchilarni qabul qilishdan oldin ularni toza kuttirib, mahtal qilar-dilar. Shchelkalov chiqib ketgandan keyin Muhammadali o'z sheriklarini podsho saroyidagi urf-odatlar bilan ta-nishtirdi. U bundan bir necha yil ilgari Xiva elchisi bilan birga podshoning qabul marosimida bo'lgan, saroy rasm-lari bilan yaxshi tanishgan edi.

– Yuragingizga quloq solib, sabr etib o'tiring, ha-li-beri bizni chaqirmaydilar, – dedi u betoqat bo'layot-gan sheriklariga kulib qararkan.

Elchilar juda sabrli, matonatli, jasoratlri va og'ir bo'lishlari kerak. Ajnabi hukmdorlar ularni haftalab, oylab qabul qilmas, ba'zan nojo'ya gaplari uchun qa-matib ham qo'yardilar. Elchi bunday hollarda sabr-toqat qilish, g'azablanganini bildirmasligi kerak edi.

Muhammadali toza yuvilgan soqolini tarab, usti-ga barqut sirilgan kursi ustida bamaylixotir o'tirar, Do'sim bilan Hoji Baxshillo esa betoqat bo'lib, u yoq-dan-bu yoqqa yurardilar.

Podsho Fyodor<sup>1</sup> bilan Boris Godunov Buxoro elchi-larini Granovitaya palatada qabul qildi. Uzunligi qirq metr, eni o'ttiz yetti yarim metr bo'lgan bu katta zal haddan tashqari bezatilgan: uning munaqqash de-vorlari va shiftlariga tovlanib turgan pushti, qizil movutlar qoqilgan, skameyka va kursilar qimmatba-

---

<sup>1</sup> Ivan Grozniyning o'g'li Fyodor 1584–1598-yillarda podsho bo'lgan. U o'lgandan keyin taxtga Boris Godunov o'tirgan.

ho movut va barqutlar bilan qoplangan. Darchalarga atlas va shoyi pardalar tutilgan, yerga Eron va hind gilamlari solingan edi.

O'sha zamonda botirlar yakkama-yakka jangga chiqqanlarida, o'z ustilaridagi sovtlari va boshlari-dagi po'lat dubulg'alarining yarqirashi bilan dushmanlarining yuragiga dahshat solmoqchi bo'lganlaridek, podsholar ham shohona liboslari, zeb-ziynatlari bilan ajnabiy elchilarni hayratda qoldirishga urinardilar.

Podsho va boyarlarning liboslari, bu koshonadagi bezaklar – Moskva podshohi oddiy bir knyaz emas, balki ulug' bir mamlakatning hukmdori ekanini namoyish qilishi kerak edi.

Podsho Fyodor o'z otasi Ivan Grozniydan meros qolgan kiyimda – asl toshlar bilan bezalgan zarrin libosda taxt ustida, dastasi gavhari shamchiroqdek yonib turgan javohirlar bilan bezalgan aso ushlab o'tirar edi. O'ttiz to'rt-o'ttiz besh yoshga kirgan Fyodor o'z qiyofasi bilan otasiga bir oz o'xshasa-da, biroq fe'li unga sira o'xshamas, shakli shamoyili Ivan Grozniyning no'noq bir rassom tomonidan ko'chirilgan suratini eslatardi. Uning xayolparast, devonasifat odam ekanligi aftidan va qiling'idan bilinib turardi. Davlat ishlarini idora qilishga aqli yetmaganidan, siyosat va rayosat jilovlari Boris Godunovning qo'lida edi.

Elchilar podshoning yonidagi mo'tabar o'rinda keng peshona, qirraburun, basavlat Boris Godunovni ko'rib, Moskvaning haqiqiy hukmdori ana shu odam ekanini darrov payqadilar. Borisning yurish-turishidan, chimirilgan qoshlari, barvasta qomatidan uning qattiqqa'l, o'z dushmanlariga beomon va mag'rur odam ekanligi ko'rinish turardi.

Buxoro elchilari podsho bilan Boris Godunovning ro'parasiga kelib turgach, Shchelkalov baland ovoz bilan:

---

---

– Xudoning marhamati bilan butun Rusning ulug‘ podshohi, Moskva, Kiyev, Novgorod, Tver, Qozon va Astraxan hukmdori Fyodor Ivanovich hazratlari, Buxoro xoni Abdulla senga qulluq qilib o‘z elchilarini yuboribdi, – dedi. – Elchilarostonangga bosh urgali keldilar.

Shundan keyin elchilar taxt yoniga borib, yorliqlarini Boris Godunovga berdilar va sukut qilib turdilar. Boris ta’zim bilan podshoning qo‘liga yorliqlarni topshirdi. Podsho ularni ochib, yana Borisga qaytarib berdi. Yorliqlarni o‘qib berganlaridan keyin podsho elchilarning yelkalariga navbat bilan qo‘lini qo‘yib, Abdullaxonning sog‘ligini so‘radi. Ularning javobini tinglab bo‘lgach, bir amaldor oltin ko‘za bilan oltin dastsho‘y keltirib, podshoning qo‘liga suv quydi. «Basurmanlar»ning yelkasiga tegib «harom» bo‘lgan qo‘llarini» podsho hazratlari yuvib tozalashlari kerak edi!

Elchilar yana o‘z joylariga borib turgach, Shchekalov xonning sovg‘alarini namoyish qilib:

– Ulug‘ podsho, Buxoro xoni Abdullaning elchilarini senga to‘qqiz dona katta-kichik yoqut, og‘irligi o‘n uch misqol keladigan to‘rtta la‘l, ikkita guldor gilam, to‘qqiz jo‘ra zarbok va to‘qqiz jo‘ra barqut keltiribdilar, – dedi.

Xonning sovg‘alarini qabul qilganidan keyin podsho Fyodor tanobi bo‘sab qolgan soatdek birdan to‘xtab, o‘rgatilgan gaplarni esidan chiqarib qo‘ydi va indamay Borisga baqrayıb qarab qoldi. Shunda Boris o‘rnidan turib:

– Podshohimiz sovg‘a-salom yuborgan birodarlari Abdullaxonga tashakkur bildirib, unga uzoq umr tilaydilar va yuboradigan elchilarini u ham do‘stona qabul qiladi, deb ishonadilar, – dedi. – Xo‘sish, ulug‘ podshohimizga nima arzlarining bor?

Shunda Muhammadalibek bir juft qulluq qilib:

— A’lo hazrat, — dedi. — Bahri Hazarda kema darg‘asi bizdan o’n besh so’m boj puli va yana Hojitarxon keposi o’n bir so’mlik tomg‘a puli oldi. Qozonga kelib, yo’l xarji uchun yuz so’mlik mol sotib oldik, askarboshi Bulgakov yana o’n so’m boj soldi. Savdo ishlariiga o’ris keposlari raxna soladurlar, bas, biz qanday bordi-keldi qilamiz? Xususan, Hojitarxon ulug’lari...

Podsho bilan Boris elchingin uzundan-uzoq gapi-ga indamay qulq solib turishdi. Tilmoch uning gapini tarjima qilib bergandan keyin, Boris Godunov Shchelkalov bilan ko’z urishtirib oldi-da, keyin elchi-ga qarab:

— Sizdan nohaq olgan boj pullarini qaytarib bera-miz, — dedi. — Agar sizlar Buxoro va Balxga boradigan rus savdogarlarini yaxshi qo’riqlab, ulardan tomg‘a puli olmasangiz, biz ham sizning barcha iltimoslarin-gizni qabul qilamiz. Endi Kuchumxon xususiga kelsak, biz Sibir xoni bilan savdo-sotiq qilishingizga xalal bermaymiz, ammo unga qurol-yarog‘ yetkazib beradigan bo’lsangiz... biz ham qarab turmaymiz. Bultur ataman Jarenoy Irtish daryosidan o’tib keta-yotgan Buxoro savdogarlarining molini tintiganda, qurol-aslaha, sovut-qalqon topib, ularning barcha mollarini musodara qilibdi. Agar bundan keyin...

Buxoroliklar Borisning bu gapini eshitib, damlari ichiga tushib ketdi. Ular savdogarlarning Kuchum-xonga yashirincha qurol-yarog‘ tashib turishlarini yaxshi bilardilar.

— Siz qo’rqmay, elchilarga savdogarlaringizni bizingning yurtga yubora bering, yo’llar xatarsiz, — dedi Muhammadalibek o’siq qoshlarini kerib, katta-katta ko’zlarini Borisga tikib. — Abdullaxon hazratlari butun Buxoro-yu Farg’ona, Xorazmni o’zlariga tobe qilib, bebos beklar bo’yniga itoat halqasini solg‘on-lar, qaroqchilarni qirib tashlaganlar. Inshoollo, yur-

---

---

timiz tinch. Ammo Buxoro savdogarlarining Sibir hukmdori Kuchumxonga qurol-yarog' sotayotgani-dan xabarimiz yo'q.

– Biz har bir savdogarning ishi uchun javob berol-maymiz, – dedi Do'sim qiyiq ko'zlarini yumib. – Biz Ku-chumxonga yarog' yetkazishni qatog'on qilg'onmiz...

Muzokalar cho'zilib ketdi, podsho Fyodorning uyqusi kelib, esnay boshladi. Buni payqagan Boris qabul marosimini tugatishga, muzokalaralni keyinga qoldirishga qaror berdi.

– Ulug' podshohimiza yana nima arzingiz bor?

Muhammadali o'rnidan turib, taxt tomonga bir juft qulluq qildi.

– Bizga yo'lda ikki yuz pud mum, ellik pud asal, besh yuz adad bulg'ori charm, xon hazratlari uchun ellik chelak sharob sotib olmoqqa va yana kumush idishlarga ishlatmoqqa ming so'mlik kumush pul olib ketmoqqa ijozat bersalar, – dedi. – Bizga yana o'n nafar farangi, nemis qul, besh yuz charm, besh-olti lochin xarid qilmoqqa ruxsat etsalar...

Muhammadali so'zini tamomlab, ta'zim qilgach, girdig' umdan kelgan, yuzi kepchikdek Do'sim o'rni-dan turdi-da, Borisga qarab:

– Balx hukmdori Abdulmo'min hazratlari uchun o'ttiz chelak sharob, o'n lochin, besh nafar nemis bandi sotib oluvga, yana ikki yuz charm, yigirma pud asal, yuz pud mum oluvga ijozat bersalar, – dedi.

– Bu iltimoslaringizni qabul qilurmiz va bu haqda sizga yorliq berurmiz, – dedi Boris podsho nomidan.

– Sizning taklifingiz ustida muzokara olib borib, bitim tuzishga tayyormiz. Men o'z podshohimning Abdulla-xon bilan do'stona munosabatda bo'lishini istayman.

Podshohning xotini, Borisning singlisi go'zal Irina Granovitaya palataning zaliga kiriladigan eshikning tepasidagi xilvatxonada o'tirib, darcha oynasidan tan-

tanali qabul marosimini tamosha qilardi. O'sha vaqt-lardagi rasmga ko'ra, malika chet el mehmonlarining, xususan, Sharq mamlakatlaridan kelgan elchilarni, savdogarlarni qabul qilish marosimida ishtirok etish huquqidan marhum edi. Bolalari turmagan va shu sababdan boyar xotinlarning ta'nasiga qolgan ko'ngli siniq malika uchun xilvatgohda o'tirib, davlat arboblarining so'zlariga qulq solish bir ermak edi.

#### IV

Shifti gumbaz taxlit qilib ishlangan palatada Boris Godunov elchilik mahkamasining amaldorlari va Buxoroga jo'natiladigan elchilar bilan kengash qu-rardi. Uning egnidagi qora baxmal kaftani, qo'lidiagi oltin uzuklari yarqirab turardi. Yonida boshiga uzun telpak kiygan, qo'lida aso ushlagan, yashil kaftanli Shchelkalov, ro'parasida – eshik yonida boshlaridan shapkalarini olib, ikki mansabdor tik oyoqda turardi. Kichik amaldorlar devorga qapishganlaricha qotib qolgan edilar. Shchelkalov buxoroliklar bilan olib borgan muzokarasi to'g'risida ma'lumot berardi.

– Biz Buxorodan keladigan mollar va Buxoroga chiqariladigan mollar to'g'risida kelishib oldik, – dedi u do'rillab. – Buxoroliklar suvsar va qora tulki terisi, mum, asal, igna, qozon kabi mollarga qiziqadilar...

– Suvsar teri sotish man qilinsin, – deb uning so'zini bo'ldi Boris. – Suvsar – bizning tillamiz, ayab sarflash kerak. Dengizning narigi tomonidagi ellarga qimmatroqqa sotish mumkin.

– Biz ham shu to'g'rida buxoroliklar bilan ancha tortishdik, lekin bu safar o'n besh-o'n olti bog'lam suvsar teri sotib olishlariga ruxsat berdik. Ular pulidan qochishmayapti.

– Hay, attang, bo'shlik qilibsiz, hay, bu galcha mayli, lekin bundan buyyon ruxsat berilmasisin, ammo

---

---

mum, asal, igna, qozon singari buyumlarni ko'proq sotishga harakat qilish kerak. – U Buxoro bilan bo'ladigan savdo-sotiq va do'stlik munosabatlarining ahamiyati to'g'risida uzoq gapirdi.

– Biz Muhammadalining podshohimizga keltirgan sovg'alarini baholattirib, Abdullaxon uchun shunga yarasha tuhfalar tayyorlab qo'yidik. Agar Abdulla bizza sakiz yuz so'mlik mol yuborgan bo'lsa, biz ming so'mlik mol yuborishga qaror berdik, – dedi Boris cho'qqi soqolini siypab.

– Ziyon qilamiz-ku, – dedi Shchelkalov bezovtalanib.

– Yo'q, ziyon ko'rmaymiz. Eng oldin buxoroliklarni tijorat ishiga qiziqtirib olishimiz kerak, keyin ishimizni bilib qilamiz.

Kengashda hozir bo'lganlar bosh egib, uning so'zini tasdiqlagan bo'ldilar.

– Biz Buxoroga elchi qilib Boybur Taishevni yuborishga qaror qildik, – dedi Boris ro'parasida turgan mo'g'ulbashara, yonoqlari chiqqan, ko'sa bir amaldorga ishora qilib. – Boybur o'zbeklarning tili va urf-odatlarini yaxshi biladi, o'zi bizga sodiq odam, chin xristian. – So'ngra Boyburning yonida qaqqayib turgan norg'ul qora soqol yigitga kulib qaradi. – Ivan Bochkov bosh elchining noibi bo'lib boradi. Bu botir yigitni ko'p marta sinab ko'rganmiz, unga ishonsak bo'ladi. – Amaldorlarning hammasi ta'zim qilib, yana uning gapini ma'qulladi.

– Siz elchilar – ulug' podshohimizning nomusini o'z nomusingizdek asrang. Davlatimiz sha'niga tegadigan ishlarni qilmang, – deb gapida davom etdi Boris yangroq ovoz bilan. – Ammo muloyimat bilan Abdullaxonni o'z tomonimizga og'dirib, do'stlik iplari bilan chulg'ab olish kerak, toki Kuchumxonga yordam beradigan qo'li bog'liq bo'lsin...

Boris so'zining oxirida elchilik mahkamasining amaldoriga qarab:

– Siz elchilar uchun mukammal bir dasturilamal yozing, – dedi. – Ularning ajnabiy mamlakatda bosa-digan har bir qadaminib belgilab berish kerak.

Zehni o'tkir, zukko Shchelkalovga Boris ishonar, Sharq va G'arb mamlakatlari bilan qanday munosabatda bo'lish kerakligi to'g'risida ikkovlarining fikri bir edi. Ammo shunday bo'lsa ham, chet ellar bilan munosabat ishlari yolg'iz Godunovning qo'lida edi. Jang rasm-rusumini uncha yaxshi bilmasa-da, elchilik ishiga mohir bo'lgan bu odam chigal bog'langan tugunlarni qilich bilan chopmasdan aqli bilan yechardi.

Boris o'rnidan turib, yana bir narsani eslagandek, keng peshonasini ushlab qoldi.

– Ha, aytgandek, yo'lda Buxoro elchilariga ehti-yot bo'linglar. Biz ruksat etgan miqdordan tashqari sovut-qalqon, lochin sotib olmasinlar, nemis qul deb tag'in bizning fuqarolarimizdan olib ketmasinlar...

Buxoro elchilari Kremlda elchilik mahkamasi-ning amaldorlari bilan muzokara olib borayotgan bir paytda buxoroliklar tushgan qo'raga Moskva savdogarlari kelib, mollarning namunalari bilan tanishdilar. O'z ishiga puxta, epchil, shirinso'z rus savdogarlari keltirilgan mollarni arzonroqqa olish-ga, ko'pni ko'rgan Buxoro savdogarlari esa qimmat-roqqa sotishga urinar edilar, biroq qiyisha-qiyisha, har ikki tomon ham yon bosishga majbur bo'lardi. Savdogar foyda ko'radigan bo'lsa, qo'lidagi tovarlarini tezroq pullab, o'ziga kerakli mollarni arzonroqqa olishga harakat qiladi.

Savdogarlar uch oydan ortiqroq muddat ichida ish-larini bitirganlardan so'ng elchilar bilan birga Moskvadan jo'nab ketdilar. O'zi bilan birga bakovullari, xiz-matkorlari, qarchig'aylarini olib ketayotgan Moskva elchisi ham buxoroliklar bilan birga yo'lga chiqdi.

---

---

Elchilarning yuki ortilgan aravalar tong paytida yo'lda tushdi. Ularni qurolli soqchilar qo'riqlab bordilar.

Karvon bir necha soat yo'l bosgandan keyin qalin o'rmonlar boshlandi. O'rmon ichidagi tor yo'ldan borarkanlar, botqoqlar uchraganda, ustiga shox-shabba, yog'och tashlab o'tar edilar. Chivin chaqaverib, yo'lovchilarning yuzlarini shishirib, ranglarini sarg'aytirib yuborgan edi. Karvon ahli ahyon-ahyon-da uchraydigan qishloqlarda tunar edilar, ko'pincha o'rmonda yotib qolishga to'g'ri kelardi. Shunday mahalda ular o'rmon ichida ochiq bir joy topib, o'z chodirlarini qurar, tevarak-atrofga soqchilar qo'yib tamaddi qilar, so'ngra uyquga ketar edilar. Uyqularida ham halovat yo'q, chivin chaqar, bo'rilar uli tortib, uyqularini qochirardi. Shu yo'sinda yo'lovchilar bir necha kun yo'l yurib, Oka daryosi bo'yidagi Kolomna shahriga yetib oldilar. Shahar boshlig'i qal'a darvozasi yonida aziz mehmonlarini qutlab, ularni ichkariga taklif etdi. Elchilar bu yerda bir kun dam olib, yo'llik oziq-ovqatlarni g'amladilar, katta qayiqlarga o'tirib, Nijniy-Novgorod sari jo'nadilar.

Aravalarda yurishdan ko'ra qayiqlarda sayohat qilish maroqliroq edi. Beligacha yalang'och bo'lib olgan eshkakchi qullar qayiqni tez yurgizib borar, yo'lovchilar esa daryoning ikki chetidagi ko'm-ko'k ekinzorlarni, qalin o'rmonlarni tomosha qilar, ba'zan ovozlarining boricha ashulani qo'yib yuborardilar. Ular Ryazan, Kasimov, Murom shaharlaridan o'tib, ikki haftada Nijniy-Novgorodga yetib bordilar. Baland tepa ustiga qurilgan Nijniy shahrining kremlini to'p otib, Buxoro va Moskva elchilarini tabrikladi. Shahar boshlig'i knyaz Vyazemskiy Moskva elchisi knyaz yoki boyar emas, oddiy bir amaldor, buning ustiga tatar ekanini bilib, unga peshvoz chiqmadi. «Borisning o'zi kim edi-yu, uning elchisi nima bo'lardi», deb o'yladi

mag'rur knyaz. Boybur Taishev bilan Bochkov o'zlarini  
uning dargohiga borishga majbur bo'ldilar.

Oradan uch kun o'tgach, yo'lovchilar Nijniy shahrida  
o'zlariga oziq-ovqat g'amlab, eshkakli kemalarga  
o'tirdilar-da, Volga daryosining oqar tomoniga qarab  
ketdilar. Buxoro elchilari Qozonga yetib kelishlari  
bilan voyevoda Bulgakov ularni tantana bilan qarish  
olib, katta ziyofat berdi. Muhammadaliga berilgan  
yorliqni ko'rib, o'tgan safar undirib olgan boj pulini  
oshig'i bilan qaytardi. Mehmonlarni kemalarga o'tqa-  
zib, qo'riqlab borish uchun ularga streletslar berdi.

Azim daryo suvlarini toshgan, chap qirg'oqdagi  
o'rmonlar, o'tloqlarni suv bosgan edi. O'ng qirg'oqda-  
gi do'ngliklar qarag'ay, qayin daraxtlari bilan qoplan-  
gan, tik qirg'oqlarga in qo'ygan qaldirg'ochlar chug'ur-  
lashib, yo'lovchilarni tabriklaganday bo'lar edilar.

Muhammadali o'z odamlari bilan birinchi kema-  
da, boshqa yo'lovchilarning kemalari turnaqator tizi-  
lishib, uning ketidan borishardi. Savdo bitimi tuzib,  
o'z ishlarini bitirib, kayflari chog' bo'lgan elchilar va  
savdogarlar oralaridagi imomdan hayiqmay, sharob  
ichib, o'yin-kulgi bilan qaytishar, ashula aytishardi.

Kemalar karvoni Volgaga quyiladigan Sviyaga  
daryosi etagidagi xushmanzara yerda langar tashla-  
di. Daryoning o'ng qirg'og'idagi qarag'ayzorga buxo-  
roliklar ipak chodirlarini tikib, ovqat pishirishga  
tutindilar, bir-birlarini va rus og'aynilarini ziyofatga  
chorlab, imomning ko'zini shamg'alat qilib, o'lgudek  
ichkilik ichdilar, o'yinda tushdilar.

Kech kirgach, Moskva vakili Ivan Bochkov muta-  
vallining chodiriga mehmon bo'lib keldi. U keyingi  
vaqtarda pashshaxo'rda bo'lib qolgan edi. Buning  
sababini Hoji yaxshi bilar, lekin boshda mehmon-  
do'stlik odatiga xilof ish qilishni istamay, uni ochiq  
yuz bilan qarshilardi.

---

---

Ivanni ko'rganda, Zahroda g'alati bir o'zgarish yuz berar, yuzlari anordek qizarib, qora ko'zları chaqnab ketar edi. Yoshi o'ttizlarga borib qolgan, barvasta, qora soqolli, xushsurat Ivanning yurish-turishidan, gapidan sodda, oqko'ngil va xushchaqchaq yigit ekanligi bilinib turardi. U hech mahal sekin gapirolmas, ovqatni ham tez-tez yeyar edi.

Zahro uni ko'raverib o'rganib qolgan, do'rillagan ovozini uzoqdan eshitganda, yuziga iliq bir tabassum yugurar, ko'ngli quvonchga to'lardi. Karvon Qozon shahri yaqinida dam olayotganda, Ivan bir kuni Hojinikiga mehmon bo'lib kelgan va xo'jasining ko'zini shamg'alat qilib, Zahroning biqinidan chimchilab olgan: «Xorosho Masha, da ne nasha!» – deb hazil-lashgan edi. Zahro uning gapini tushunmasa ham, o'zicha muhabbat izhor qilayotganini anglagan, lekin uning qo'lini siltab tashlab, yolg'ondan qovoqlarini solgan, ko'zlarini olaytirib qo'ygan edi. Bora-bora u Ivanning kelishini sabrsizlik bilan kutadigan bo'lib qoldi. Ko'pincha Ivan tushgan kemaga u ko'z tikib qolar, agar uning ashula aytayotganini eshitsa, turgan joyida qotib, qulq solardi.

Ikki yoshning qalb sirlari ziyrak odamlar uchun maxfiy qolmadi. Yo'lovchilar o'rtasida shivir-shivir boshlandi. Ivan har safar mehmon bo'lib kelganda, Hojining joni halqumiga kelib, rashk iloni ichini kemira boshlardi.

Bir kuni u Muhammadaliga shikoyat qilib:

– Har manzilda Ibon to'ppa-to'g'ri maning chodirimga keladur, aytib qo'yingiz, muncha kelabermasun, akun, – degan edi.

– Kelsa kelaversin, sening yesiringni yeb qo'yadimi, Ibon, – degan edi elchi. – O'ris hamrohlarimizni xafa qilmoq yaramaydi. Ular bizga mehmon bo'lib kehayotirlar.

Bu gapni eshitib, Hojining nafasi ichiga tushib ketgan, ammo Ivanning mehmon bo'lib kelaverishidan qo'rqqanligining sababini aytishga og'zi bormagandi.

Bu safar Hoji taklifsiz kelgan mehmonni sovuqqi-na qarshi oldi. Bochkov xuddi o'z uyidagidek ipak ko'rpa chaga bemalol yonboshlab, oldiga qo'yilgan bir tovoq qovurmadan ozroq yedi-da, cho'qinib bo'lib, yana bir narsani kutgan kishidek anchagacha o'rni-dan qo'zg'almay, yostiqqa tayanib yotdi. Keyin qarshisida: «Qachon ketasan?» – deganday kutib o'tirgan mezbonga kulib qarab:

- Yesir Zahro... biyib bersin, – dedi tatarchani oz-moz bilgan Ivan qo'llarini o'ynatib.
- Tobi yo'q, o'yin tushmaydi.
- Yolg'on aytasan, – dedi Ivan tahdid etib.

Mutavalli mehmonning beg'amligiga, yuraginiн kengligiga hayron qolardi.

– Hay, mayli, tobi kelishmay turgan bo'lsa, o'yin tushmasin, – dedi keyin Ivan ruschalab. – Kechqurun senga bir qayiq yubortiraman. Mening kemamga bor, seni bir siylay, menga qo'noq bo'l.

Uning imo-ishorasini anglagan mutavalli xo'p deganday boshini irg'ab qo'ydi. Mezbon nima qilib bo'lsa ham, mehmonni tezroq jo'natish payida edi, shu sababdan uning taklifini darrov qabul qila qoldi.

Ivan bir buzoqni so'ydirib, go'shtini qovurtirgan, kichik bir bochkada sharob keltirib qo'ygan edi. U Hojini ochiq chehra bilan qarshi olib, kemaning bosh tomonidagi qimmatbaho matodan tikilgan chodiriga taklif etdi, uni stolning to'r tomoniga o'tkazdi va o'z holiga qo'ymay sharob ichirib, ovqat yedirdi.

- Imom bilib qolsa, xafa bo'ladi, oxe, kamroq quy,
- dedi mutavalli olazarak bo'lib.

Ivan uning gapini tushunmadi, shekilli, boshini qashib turdi-da:

---

---

– Tinchurin, ey Tinchurin, – deya baqirib, bir qar-chig‘aychisini chaqirdi. – Bu yoqqa kel, bizga tilmoch bo‘l.

Qarchig‘aychi ularning yoniga kelib o‘tirdi.

– Xafa bo‘lsa, senga nima? Ularning o‘zlari ichmay-dimi? Ma, ich, – dedi-da, Ivan yana qadahni to‘ldirib, mehmonga o‘tkir sharob uzatdi.

– Sog‘ligimiz uchun!

Ichkilikka Ivanning endi ishtahasi ochilgan payt-da mutavalli mast bo‘lib chuldirab qoldi, qarshisida o‘tirgan chorpahil Ivan ko‘ziga ikkita bo‘lib ko‘rina boshladi.

Bochkov yong‘ichidan soqqalarini chiqarib:

– Kel, shoshqol o‘ynaymiz, – dedi. – Agar men yutqizsam, qirq tilla beraman, sen yutqizsang, yesiringni...

– Bo‘pti, akun, – dedi mutavalli mastlik bilan soq-qalarga qo‘l cho‘zib. Lekin shu paytda bir narsani es-lagandek og‘zi ochilib qoldi. – Yesiringni? Ibi! Qaysi yesir?

– Zahro-chi.

– Ibi! Maynang bormu? Jonimni qumorga tikib jinni bo‘llemme? – dedi u bir oz o‘ziga kelib.

– Lafzing bormi o‘zingning? Bo‘pti, deb aytding-ku!

– Lafz deb jonimdan ayrilaymu? Men seni do‘sit desam, dushman ekansan, akun! – Uning kayfi oshib, ko‘zlari suzilgan, soqoli qiyshayib qolgan edi: – Dar-kor emas menga sendaychikin do‘sit! Ketaman dedim, ketaman!

– Qayoqqa ketasan? Atrofing suv, katta daryo.

– Shuyam daryo bo‘lleme? To‘pig‘imdan kelmaydi!

Uni ushlab qolmoqchi bo‘lgan tilmochni Hoji itarib tashladi.

– Qo‘yaver, bilganini qilsin, – dedi Ivan mastona kulib.

Hoji so'kinib, o'zini daryoga tashladi, daryo sathi jimirlab, bahaybat ajdahoning po'stidek yiltirar edi. Suv Hojining bo'g'zidan keldi. Bir oz yurgach, og'zidan pufak chiqarib, qo'l-oyog'ini shapillata boshladi. Qирг'оqdagi streletslardan biri uni ko'rib, ye-chindi-yu, o'zini suvga otdi.

– Tegma unga, Ostashka, o'zi suzib chiqsin, – deb baqirdi soldatga Bochkov kemaning burnida turib. Botib borayotgan quyosh nurida Ivanning keng pe-shonasi yaltirar, shabada esa qora soqolini tortqildi. Biroq Ostashka degan barvasta soldat uning gapiga unamay, xon vakilini g'arq bo'lishidan qutqarib, qирг'оqqa olib chiqdi. Shovqin-suronni eshitib chiqqan Boybur voqeani anglab, darhol Hojini o'z chodiriga oborib, kiyim-boshini yechtirdi, yotqizib, ustiga po'stin tashlattirib qo'ydi.

Hoji Baxshillo shu uxlaganicha ertasiga kun yoyilib ketgandan keyin o'rnidan turdi. Ko'zlarini ishqalab, ancha vaqtgacha qayerdaligini bilib olishga urindi, keyin qars urib:

– Hoy, kim bor bu yerda? – deb qichqirdi. Shu on-dayoq Boybo'rining bir xizmatkori kirib keldi. Hoji uni tanib, qayerdaligini fahmlagan edi.

– Suv ber, labi tashna bo'llem!

Hoji bir kosa muzdek kvas ichib, yuragining o'tini so'ndirdi-da, to'nini yelkasiga tashlab, gandirakla-gancha tashqariga chiqdi. Daryoning narigi betidagi bepoyon dalalar zumradday tovlanar, quyosh jimir-jimir qilgan daryo sathiga oltin tangachalar sochmoqda edi.

Ivan Bochkovning langar tashlab, suv betida chay-qalib turgan kemasini ko'rgach, kechagi gaplar Hojining esiga tushdi, yuragi g'ash tortib, o'z chodiri to-mon yo'l oldi. Olabayroq to'n kiygan eroniq quli uni ko'rgach, har vaqtdagidan ko'ra engashibroq ta'zim

---

---

etdi. U ayb ish qilib qo'yan boladek ko'zlarini opqo-chib turardi.

– Nega xomush to'xtading? Nega gapurmaysan? Tiling bormu og'zingda?

Yuragi bir falokatdan darak bergen Hoji yugur-ganicha eshik pardasi ko'tarilib qo'yilgan ipak chodi-ri ichiga kirdi. Hayhot! Nozanin joriyasidan asar ham yo'q, sandig'ining qopqog'i ochiq, eski bir ipak ko'yla-gi bilan ro'moli yerda yotardi.

– Zahro qayda? Nega gapurmaysan, tilingni zog' cho'qidimi?

– Qarchig'aychilar olib ketdi...

– A? Qarchig'aychilar?

– Kechasi siz yo'qlizingizda Ibon o'zining davangir yigitlari bilan kelib, Zahroni olib ketdi.

– A? Zahroni-ya? U dod-voy solmadimi, oxe?

– Yo'q. O'zi lochinini kutib turgan ekan.

– Bas qil, yo'qol!.. Ha, mochaxar!.. Shoshmasin, adabini berib qo'yay, akun.

Mutavalli tishlarini gijirlatib, soqolining bir mo'yini yulib oldi. Agar bu voqeа Rossiya da emas, Buxoro yoki Xiva tuprog'ida ro'y berganda, Ivan bilan Zahroning jazosini bergen bo'lardi. Biroq bu yerlarda Bochkovning qo'li uzun, so'zi o'tkir. Lekin shoshmasin hali!..

Hoji qo'ldan chiqqan qushini qaytarish mumkin emasligini bilsa-da, yotib qolgandan ko'ra otib qol, degan maqolga amal qilib, so'nggi bir choraga muro-jaat qildi. U Moskva elchisi Taishevning oldiga yu-gurdi. Nafasi tiqilib, elchining chodiriga kirganida, qoshsiz semiz yuzi yiltillagan beg'am Boybur, hech narsani sezmagan kishidek, bemalol sharob ichib o'tirar edi.

– Dunyodagi gapdan xabaringiz yo'q, uyimni o'g'ri bosib to'xtadi, meni xudo urdi... Sho'rim quridi...

– O‘g‘rilar? – dedi elchi o‘ng qo‘lida qadahni ush-laganicha.

Mutavalli kechasi bo‘lib o‘tgan voqealarni shoshib-pishib gapirib berdi.

– Ivan haddan oshonti, adabini berib qo‘ying, bo ayolimni qaytarib bersin! – dedi Hoji harsillab.

– Ayolim? Ayollarling Buxoroda qolg‘on bit.

– Qulimni, yesirimni... Men uni tillo barobariga sotib olganman, oxe!

– Oshiqma, oltin kerak bo‘lsa, janjalni tinchlik yo‘li bilan bir yoqli qilabiz.

– Ming tillo berib to‘xtasangiz, dog‘i ko‘nmayman, yesirimni olib berasiz!

– Yo‘qqina narsa uchun nega shovliysen? Kel, bosh og‘riqqa manovi sharobdan bir kosa ko‘tarib ich, so‘ngra so‘ylashabiz.

– Araqning foydasini ko‘rdim, – dedi Hoji zahar-xanda qilib. – O‘g‘ri molini hazm qilib to‘xtamay, giri-bonidan olmoq kerak.

Moskva podshohi bilan Buxoro xoni o‘rtasida yax-shi qo‘schnichilik munosabatini o‘rnatishga o‘zini mutasaddi deb bilgan elchi Taishev o‘yga toldi. Bu ar-zimas voqeanning oqibati xunuk bo‘lishi mumkin edi. U o‘z ustiga yuklatilgan og‘ir vazifaning mas’uliyatini sezgach, yuzidagi beg‘amlik alomatlari yo‘qolib, peshonasi tirishib ketdi. Ustiga zarbof kaftanini, boshiga qora telpagini kiyib, aso ushlagan holda savlat bilan xizmatkorini ergashtirib, chodiridan chiqdi va kichkina bir qayiqqa o‘tirib, Ivanning kemasi tomon yo‘l oldi.

Hoji Taishevning chodirida o‘tirib, «muzokaralar»ining natijasini sabrsizlik bilan kutar, vasvas bo‘lgan kishidek, u bir joyda o‘tirolmay, u yoqdan-bu yoqqa yurib, o‘zidan-o‘zi vaysardi. «Ha, yaxshilikni bilmagan ko‘rnamak, burningdin maynang qatig‘ini

---

---

keltiray, shoshma hali, – deb valdirardi u. Ivanning kemasidan kelgan qattiq ovozlarni eshitib, valdirashdan to'xtadi-da, og'zini ochib, qulq sola boshladi. Biroq ruscha bilmaganligi uchun hech narsani anglay olmadi.

Ivan Zahroni egasiga qaytarib berish to'g'risidagi talabini qat'iy rad etgan edi.

– Zahroga men uylanaman, o'zi bilan kelishib qo'yganman, – dedi pinagini buzmay.

Boybur uning gapini eshitib, tutaqib ketdi.

– Ahmoq bo'lma, Astraxanda senga chiroyli bir qul xotin olib beraman.

– Menga qul emas, yostiqdosh kerak. Shu fors qizidan boshqasiga uylanmayman.

Zahro kemaning bir chekkasida boshini ro'mol bilan berkitib, teskari o'girilib o'tirar: garchi u rus tili ni bilmasa ham, bu janjal o'zi ustida ketayotganini yaxshi tushunar, o'z qismati to'g'risida o'ylardi. «Agar bosh elchi o'z so'zini o'tkazib, meni Hojiga qaytarib olib bersa, holimga voy! Hoji meni rosa qiyonoqqa soladi, keyinroq o'ziga o'xshash bir toshyurak odamga sotib yuboradi. Umrbod qullikdan, xor-zorlikdan boshim chiqmaydi. Ivan esa menga uylanmoqchi. Shoyi-atlasga belanib, qul xotin bo'lib yurgandan ko'ra, chit ko'ylak kiyib, ozod xotin bo'lgan yaxshi! Iloyo, meni Hojining zulmidan qutqaz! Yo Bibi Fötima-Zahro! O'zing qolla!» Shu topda uning miyasi ishq-muhabbat tuyg'usi bilan emas, balki o'z hayoti, ozodligi to'g'risidagi tashvish bilan band edi.

Kecha kechqurun ko'proq ichib, mast bo'lib qolgan Ivan Bochkov ikkita soldat bilan Hojining chodiriga kirganda, Zahro shoshib qolgan edi. Ivan gapni cho'zib o'tirmay uning qo'lidan ushlab yetaklagach, hang-mang bo'lib, qo'y singari ketidan ergashib ketaverdi. Yigit Zahroni dast ko'tarib, suv ustida

chayqalib turgan qayig‘iga o‘tirg‘izdi-da, o‘z kemasi tomon haydadi.

Garchi Zahro bu yigitni sevib, ichida u bilan qo-vushishni orzu etsa-da, uning bu qadar dag‘al harakat qilishini yoqtirmagan, joriya bo‘lsa hamki, ayollarga xos izzat-nafsini va sharm-hayosini yo‘qotmagandi. Ivanning to‘satdan kelib, bir buyumdek ko‘tarib olib ketishi uning jahlini chiqargandi.

Boshda Zahro qovog‘ini solib, teskari o‘girilib oldi. O‘z xatosini anglagan Bochkov unga muloyim gapirib, ko‘nglini olmoqchi bo‘lganda ham u miq etmay o‘tirdi. Uning qora ko‘zlari o‘tdek chaqnab, pistadekkina burun kataklari kerilib turardi.

– Jonim, xafa bo‘lma. Seni qullikdan qutqarish uchungina shunday qildim. Endi sen erkli bo‘lasan, xotinim bo‘lasan.

– Uydi! – dedi Zahro jahl aralash.

U keyingi vaqtarda bir necha ruscha so‘zni o‘rganib olgan edi.

«Boshda uni cho‘chitib yubormasdan, ehtiyyotlik bilan harakat qilsam bo‘lar ekan, – deb o‘yladi Bochkov. – O‘zi-ku, meni yoqtiradi, lekin uni ogohlantirmay, qo‘ydek sudrab olib kelganimga araz qilyapti. Hechqisi yo‘q, o‘zimga rom qilib olaman bu jononni!»

Erta bilan Boybur kelganda, Bochkov bilan Zahro bir-birlari bilan yarashib, apoq-chapoq bo‘lib qolgan edilar.

Boybur Bochkovga do‘q qilib:

– Ivan, men bosh elchi, senga buyuraman: yesirini egasiga qaytarib ber, – dedi qiyiq ko‘zlarini chaqnatib.

– Buyurasan? Sen-a?

– Ha, men buyuraman. Ahmoq! Men ulug‘ rus davlatining amaldori, sening boshlig‘ing bo‘laman-a!

– Meni o‘z holimga qo‘y, Boybur! Amringga itoat etolmayman. Sen amaldorgina emas, odam hamsan! Menga begona emassan...

---

---

Elchi noibining avzoyini ko'rgach, g'azabini yutib, o'zini bosib oldi. Hozir u bilan g'ijillashib o'tirishning foydasiz ekanini payqab, orqaga chekindi. Ammo oradan uch-to'rt soat vaqt o'tgandan keyin yana Ivan ning oldiga kelib, gapni yotig'i bilan tushuntirishga harakat qildi:

– So'zimga quloq sol, Bochkov, – dedi unga tikilib turib. – Men senga yomonlikni istamayman. Hozir biz rus askarlari soqchiligidagi ketyapmiz, rus tuprog'ida-miz, tilimiz uzun, lekin Kaspiy dengizidan o'tib, Mang'ishloqqa borganimizda, buxoroliklarning qo'lli uzun bo'lib qoladi: bizni rus soldatlari emas, Xiva, keyin Buxoro soqchilarini qo'riqlab boradi. Buxoro xonining fe'lidan hammamizga ma'lum. Agar...

Boybur gapini tamomlamasdan q mastligi tarqalib, hushi joyiga kelgan, Ivan uning fikrini anglab oldi.

– Gaping rost. Buxoroga borsak, Hoji meni omon qo'yaydi.

– Yesirini tortib olib, seni zindonga soldiradi, – dedi Boybur qat'iy qilib. – Birovning yurtida zo'ravonlik ketmaydi.

Ivan boshini qashlab, yerga qaraganicha qoldi.

– Molini egasiga qaytarish kerak, – dedi Boybur qomatini tiklab.

– Fors qizini qiynoqqa solib azoblaydi-da. Uni qutqarib qolishning iloji yo'qmi-a? Pul-mul berib...

– Hoji yesirini yaxshi ko'rар ekan, uni o'lsa ham sotmaydi.

Ivan bu gapni eshitgach, sarosimaga tushib, nima qilishini bilmay qoldi.

– O'zing o'yla axir, – deb gap boshladi yana Boybur ohista. – Biz Buxoro bilan do'stlik o'rnatgani ketyapmiz-ku! Xonning eng yaqin odamini xafa qilsak, yaxshi bo'ladimi? Eh, shu ishq mojarosi bo'limganda edi! Kel, Ivan, ishimizning foydasi uchun shu ha-

vasingdan kech! Men Hojiga hamma gapni tushuntiraman, – deb gapida davom etdi elchi. – Ivan mastlik bilan shu ishni qilibdi, deyman. Yesiring begunoh, agar uni qiyamasang, qaytarib beramiz, deyman.

Ivan noiloj uning gapiga ko'nishga majbur bo'ldi. «Kecha orqa-o'ngini o'ylamasdan ish qilgan ekanman. Ko'p ichib qo'yib, o'zim ham sharmanda bo'ldim, bechora Zahroni ham baloga giriftor qildim. Hay, attang!..» – deb peshonasiga urdi u.

...Hoji chodirda, sholro'molga burkanib, qovog'ini solib turgan yesirini ko'rgach, o'zini tutolmay, tarsaki qo'yib yuborgan edi, u gandiraklab ketdi.

– Ban o'lim, saning alingda durmam, – dedi yesir xo'jasiga tik qarab.

Bir kunga bo'lsa ham, ozodlik va muhabbat sharbatini totgan bu ayol taslim bo'lishni, o'z xo'jasining xohishiga so'zsiz itoat etishni istamas edi. Hoji tishlarini g'ijirlatdi-da, bir musht urib, uni yiqitdi, dodlashning foydasi yo'qligini bilgan Zahro esa tishini tishiga qo'ydi...

Dengiz kabi keng va katta karvon yo'li singari to'g'ri oqqan ajoyib go'zal daryo, qirg'oqlardagi zumrad o'rmonlarning manzarasi Hojining ko'ngliga sig'mas edi. Yaqindagina ro'y bergen sharmandali hodisa uning yuragini jarohatlagan, sha'niga dog' tushirgandi. Agar Zahroning ornida boshqa ayol bo'lganda, Hoji uni qiy nab o'ldirgan bo'lardi.

Buxoroliklar uning boshiga tushgan ishdan xursand bo'lgandek, bir-birlari bilan pichir-pichir qilar, Hojining kemasiga ma'nodor nazar tashlab, kulib qo'yar edilar.

O'z mollarini Moskva bozorida foydasiga sotgan mulla Shokir kemasida gumashtalari bilan birga, toytoy yuklar orasida o'tirib, tanbur chertar va baqirib, yangi to'qigan ashulasini aytar edi:

---

---

*Ey do'stlarim, bir so'z tinglang torimdan,  
Ajray dedim noziknihol yorimdan.  
Tutun chiqar hasratimdan, zorimdan,  
Lochin chovut soldi kabutarimga!..*

Orqadagi kemalarda kelayotgan buxoroliklar bu ashulani eshitib, xoxolab kulishar, bu ta'na toshlari kimning sha'niga otilayotganini tushunishardi.

Hoji esa gijinib, Hamdamboyning gumashtasini ichida so'kar: «Ha, bachchag'ar, tagi past, savdogar-chilikni kim qo'yibdi senga!» – deb to'ng'illardি. Otasi shoyibof hunarmand bo'lgan mulla Shokir xon bilan mehtarning yaqin odami, uning ovozini o'chirishga Hoji ojiz. Shu sababdan uning yuragiga qil sig'mas, ta'bi xira, ko'ngli g'ash edi.

Yo'lovchilar esa kemalarda xursandchilik bilan vaqt o'tkazib, qanday qilib Astraxanga yetganlarini bilmay qoldilar.

## V

Astraxanga turli mamlakatlardan: Erondan, Turkiyadan, Hindistondan, arab davlatlaridan, O'rta Osiyodan, Sibirdan savdogarlar turli-tuman mollar keltirar edilar.

Buxoro va Moskva elchilari Moskvadan olib kelgan mollarning bir qismini shu yerda sotib, uzoq sahro yo'llarida kerak bo'ladijan buyum va oziq-ovqatlar xarid qildilar. Yuklar qayqlardan olinib, tuyalarga yuklandi. Karvon oltmisch soqchi himoyasida Astraxandan chiqdi, jilg'alar, tuz ko'llari bo'ylab cho'lma-cho'l ketaverdi. O'n kun deganda, Yoyiq daryosi etagidagi shu nomli shaharga yetib keldi.

Yo'lovchilar qayiqda dam olib, meshlarini suvga to'ldirib, yana yo'nga chiqdilar, o'n kundan so'ng Embaga yetib keldilar. Bu yerda ularni Buxoro xoni

yuborgan soqchilar kutib turardi. Rus soqchilari elchilar bilan xayrlashib, Astraxanga qaytib ketdi.

Bu yerdan Xorazmgacha cho'zilgan Ustyurt sahrosi karvon uchun eng og'ir yo'l. Jazirama cho'lning qaynoq nafasi odamning damini qaytarar edi. Tars yorilgan zarang yerlar ustida qizil qanot chigirtkalar uchib yuradi, yerda esa katta-kichik kaltakesaklaridan bo'lak jonivor ko'zga tashlanmaydi. Kunduzlari misdek qizigan sahro kechalari sovib qolardi, tongga yaqin muzdek shamol esib, odamning badani ni junjitar, kunduz kunlari yo'l bosish amrimahol bo'lgani sababli karvonlar kechalari yurib, kun yoyilib, isib ketguncha biror quduq tepasiga yetib olishga shoshiladi.

Bu kimsasiz bepoyon cho'l qaroqchilar uchun juda qulay: charchab-horib, dam olgani yotgan karvonni to'satdan bosib, molini talab, keyin keng cho'l bag'rida shamol singari g'oyib bo'lish oson gap.

Karvonni qo'riqlib kelayotgan yigirma chog'li askar o'q-yoy, eski qilich va nayzalar bilan qurollangan edi. Suyagi askariy xizmatda qotgan Do'sim bu askarlar ga boshchilik qilishni o'z qo'liga oldi. Savdogarlar va elchilar ham qilich taqib olgan, ular o'z mol-jonlarini saqlashga tayyor turardilar.

Yo'lovchilar Ustyurt sahosida o'n besh kun yo'l yurib, toza charchadilar, tuyalar ham holdan toydi. Xorazmning ko'm-ko'k bog'lariga yetib olish uchun yana bir hafta bor. Kun chiqishiga yaqin karvon Shirinquduqqa yetib keldi. Yo'lovchilar ot va tuyalar dan mollarini tushirishdi, qovg'ada quduqdan suv chiqarib, chanqagan ot va tuyalarini sug'orishdi, so'ngra o'zlari tamaddi qilib bo'lib, mollarini bir joyga uyub qo'yishdi-da, ularning atrofiga joy solib, uxlagini yotishdi. Hamma kechasi bilan egar ustida chay-qalib horigan, oyoq-xo'llar uvushgan, a'zoyi badan

---

---

karaxt. Shu sababdan ko'plar boshini yerga qo'yishi bilan xurrak ota boshladi.

Soqchilardan bir kishi navbatchi qilib qo'yildi, qolganlari uxlagani yotdi. Oradan ikki soat o'tgach, navbatchini ham uyqu bosdi, nayzani mahkam chanchallab olgan qo'liga bosh qo'yib, mudray boshladi.

Do'sim sardor juda charchagan bo'lsa-da, birmuncha vaqtgacha ko'zlarini yirib ohib yotdi. «To'satdan qaroqchilar bosib qolsa-ya», degan fikr uning miyasi ni kavlardi. Kunbotish oldida u orqalaridan qorayib ko'ringan bir sharpani payqab qolgan, karvonboshiga uni ko'rsatib: «Qaroqchilarning ayg'oqchisi bo'lmasin tag'in?» – deganida, karvonboshi: «Be, bu yerlarda qaroqchi nima qilsin, ehtimol, bir cho'pondir», degan edi. Endi Do'sim sardor yotgan joyida, uzoqdan ko'ringan bu odam kim bo'ldi ekan, deb bosh qotirar, o'rnila xuddi chaqirtikanakka ag'anagandek to'lg'anardi. Nihoyat, yuragi siqilib, sanchib turdi-da, tashqariga chiqdi. Cho'l huvillab yotar, chirillab turgan hasharotlarning ham tovushi o'chgan edi.

Sardor qarorgohni bir aylanib chiqib, ko'ngli tinchigach, yana chodirga kirib yotdi va oradan bir daqiqa o'tmay xurrak ota boshladi.

Hoji Baxshillo ham o'z chodirida qattiq xurrak otib yotar, tuyaga ortilgan kajava ichida o'tirib, kechasi bir oz mizg'ib olgan Zahro esa uxlay olmay, xojasining qiyshayib ochilib qolgan og'ziga, dikkaygan soqoliga nafrat bilan qarab: «Ey xudoyim! Qachon qutqarasan meni bu balodan?» – deb o'ylardi. Bu xunuk va surbet odam bilan norg'ul Ivanni xayolan bir-biriga solishtirib, birini qora tikanga, ikkinchisini gulta o'xshatardi: «Bu qaqshagul Qorabotirdan qachon qutulaman-u, Tohirimga qachon erishaman?» der edi u ozarbayjonlar o'rtasida ham mashhur bo'lgan dos-ton qahramonlarini eslab. Shu paytda tashqaridan

dukur-dukur tuyoq tovushi, hayqiriq va ingragan ovozlar eshitildi. Zahro bir cho'chib tushdi.

Ikki kundan buyon qaroqchilar, xuddi qo'y suruvi orqasiga tushgan bo'rilardek, karvonni ta'qib etib kelmoqda edilar. Ular yo'lovchilar qattiq charchab uyquga ketganlarini, soqchining mudrayotganini ko'rgach, to'satdan hamla qildilar. O'g'riboshi asta ke-lib, nayzasiga tayanib mizg'iyyotgan soqchining orqasidan xanjar solib, uni qulatdi. Boshlariga cho'girma kiygan norg'ul qaroqchilardan to'rttasi o'rtaga uyub qo'yilgan mollarni uchqur otlariga orta boshlashdi. Biroq bu vaqtida poyloqchilar uyg'onib qolib, hayqirganlaricha ular ustiga tashlandilar. Ikki o'tada pala-partish qo'l jangi boshlanib ketdi.

Qaroqchilar ustun kelib, hali uyqulari ochilmagan poyloqchilarni orqaga sura boshladilar. Katta o'ljani qo'ldan bermaslikka urinib, ular jon-jahdlari bilan urishar edilar. Qilichlarning shaqir-shuquqi, qiyqiriq ovozları hammani uyg'otib yubordi. Agar karvon safida rus savdogarlari bo'lmanida, yo'lovchilarning holi xarob edi. Bu narsadan bexabar bo'lgan qaroqchilar endi yengdik, deb suron ko'targan paytda besh-olti nayzabardor Ivan Bochkov boshchiligidagi ularning orqasidan hujum qildi. Buni kutmagan o'g'rilar nima qilishlarini bilmay esankirib qoldilar. Ulardan bir nechasi nayzaga sanchilib, qo'llaridan egri qilichlarini tushirib yuborishdi. Bochkov esa qo'lidagi olti parlik og'ir shashpar bilan qilich o'ynatib turgan qaroqchiboshining kallasiga tushirdi. Qaroqchilar o'g'riboshining chilparchin bo'lganini ko'rib, o'lgan sheriklarini qoldirganlaricha nariroqda turgan otlariga minib qochdilar.

Zahro chodirdan chiqqan mahalda bir necha kishi qonga belanib, yerda cho'zilib yotardi. Qo'rqqanidan uning qo'l-oyog'i bo'shashib, turgan joyida serra-

---

---

yib qotib qoldi. Biroq Ivanning yengi qonga belanib, yerga chak-chak qon tomayotganini ko'rgach, uning oldiga yugurib bordi.

– Ay, jonio, sana na o'ldu? Alingdan qon oxiyur!

– Qo'rqma, hech... hech... gap yo'q, yelkamni qilich tirnab ketdi, – dedi Ivan harsillab.

Zahro kutilmagan jasorat va g'ayrat bilan Ivanning yengini yirtib, jarohatini ochib ko'rdi. Qon sizib tursa-da, yara uncha katta emasligini ko'rib, ko'ngli bir oz tinchigach, boshidagi ro'molini shartta oldi-da, Ivanning yarasini bog'ladi.

– Yur, bir oz yotib, istirohat et, – dedi u Bochkovni chodir tomon etaklab.

Shu yaqin orada bo'lgan mulla Shokir ham Zahroning gapini tasdiqlab:

– Rost aytadi, yur, – deb Ivanning qo'ltig'iga kirdi va ikki kishilashib, uni chodirga yotqizib qo'yishdi.

Boshda Ivan og'riq sezmagan edi, lekin to'qim ustiga cho'zilib, boshini egarga qo'ygach, yarasi achishib og'riy boshladi, o'zi istamagan holda ingrab yubordi.

– Zahro, sen uning yonidan jilmay suv ichirib tur, – dedi mulla Shokir chodir ustida turgan kishilarni haydab. – Bezovalta qilmanglar, unga tinchlik kerak.

Bochkov rangi o'chgan holda yaltiragan ko'zlarini Zahrodan uzmay tinch yotar edi.

– O'z qo'ling bilan suv ber, – dedi u meshdag'i suvni ko'rsatib. – Lablarim qaqrab ketdi, ichim yonyapti.

Zahro xuddi o'z uyidagidek u yoqdan-bu yoqqa yugurib, mard yigitning xizmatini qilar, suv ichirar, boshidagi egarini to'g'rilab qo'yardi. Agar Hoji Baxshillo bu ajoyib manzarani ko'rsa, rashkdan yuragi tars yorilib o'lgan bo'lardi. Biroq u tashqariga chiqmay hali ham o'z chodirida miq etmay yotardi. Shovqin-suron boshlanib, Zahro chodirdan chiqib ketishi bilan u uyg'onib ketdi, tashqariga qulq solib,

nima hodisa bo'lganini anglaganidan keyin ham o'zini uxlaganga solib, qimir etmay yotaverdi. O'ziga mute bo'lgan odamlar oldida juda jasoratli bo'lgan bu odam, aslida, o'lgudek qo'rroq edi.

Qarorgohda tinchlik o'rnatilgandan keyin u xuddi o'g'ri kishidek chodir pardasidan mo'ralab, ko'zlarini ishqalab, asta tashqari chiqdi.

– Uyqungiz muncha qattiq? – dedi yoniga qilich osgan mulla Shokir uni ko'rib qolib. – Bir yeringizni kesib ketsalar ham bilmay qolar ekansiz-da!

– Rost, uyqum qattiq. Menga ayting-chi, o'zi nima bo'lopti, aka mullo?

– Qo'ying-e... O'zingizni bilmaslikka solmang, ko'rmayotirsizmi yerga to'kilgan qonlarni!

Hoji og'zini qiyshaytirib:

– Mollarimiz omon qoldimu? – deb so'radi.

– Ha, lekin yesiringizni qaroqchilar olib qochdi.

– Ibi! Rostdanmn? Qo'ying-e, hazil qilmang, aftingizdan yolg'on gapurganingiz ko'rinish turibdu, akun. Rostdan ham Zahro qay go'rga ketdi?!

Savdogar chap ko'zini qisib:

– Sovliq qo'yingizni bir qo'chqor ergashtirib ketdi, – dedi va boshi bilan ishora qilib, Bochkovning chodirini ko'rsatdi. Hojining rangi qog'ozdek oqarib, ko'zlari ola-kula bo'lib ketdi.

– Nima qilib o'tiribdi uning qaftolida, borib ko'raychi!

Mulla Shokir shartta uning yo'lini to'sib:

– Bormang, Moskop vakili qattiq yarador, – dedi. – Zahro yarasini bog'lab, suv ichirib o'tiribdi. Ivan uni yeb qo'yarli ahvolda emas.

– Qattiq yarador? – Hoji jilmaygandek bo'ldi. – Dog'i o'lib qolmasin, bechora!

– Xudo xohlasa o'lmaydi. Yuring, mol-holimiz omon qolganiga bir piyoladan... suv ichaylik.

---

---

Ivanning yarasiga mumiyoyi asil qo'yib, qaytadan bog'lab qo'yishgandan keyin u o'zini yaxshi sezaboshladi. Garchi jarohati achishib, og'rib tursa ham ruhi yengil edi. U yarasining og'rig'ini unutib, tevaragida parvona bo'lib yurgan sevgilisiga suqlanib qarar, husniga sira to'ymas, Zahro ham bu dovyurak kishidan ko'zini uzolmas edi.

Oradan ikki kun o'tgach, Ivan o'nidan turib yuradigan bo'lib qoldi. Zahro esa hech narsa bo'lмагандек yana o'z xojasining xizmatini ado etish bilan ovo-ra bo'ldi. Yaradorlar oyoq bosib, egar ustida o'tirib keta oladigan bo'lганлардан keyin karvon yana yo'lga chiqdi va ming azob bilan o'n kun yo'l bosib, Urganchga yetib keldi.

## VI

Muhammadali boshchiligidagi karvon Buxoroga Moskva elchilaridan bir kun ilgari yetib keldi. Boybur Taishev o'z odamlari bilan Rometonda to'xtab dam olmoqchi, hammomga tushib, ust-boshlarini, anjom-larini tartibga solmoqchi bo'ldi.

Abdullaxon Moskva elchisini qarshilash uchun Fathulla qushbegi bilan martabasi pastroq bo'lgan ikki-uch odamini tayinladi. Mehmonlar keladigan kuni Fathulla qushbegi zarbof chopon kiyib, beliga tilla kamar bog'lab, o'z navkarlari bilan Hazrati Imom darvozasi tashqarisidagi guzarda poylab turdi.

Butun yuz-ko'zini soqol bosgan, girdigum qushbegi kumush yugan urilgan arg'umoq ustida viqor bilan o'tirar, ulug' bir vazifani bajarayotgan kishidek ko'kragini ko'tarib, qoshlarini kerib, elchilarning ya-qinlashishlarini kutardi. Elchilar ertalab soat onda yetib kelishlari kerak edi. Xuddi mo'ljallangan vaqtda uzoqdan karvonning qorasi ko'rindi.

Eng oldinda elchi Taishev bilan uning yordamchisi Ivan Bochkov otliq kelardilar. Ular yaqinlashishi bilan qushbegi otdan tushmoqchi bo'lgandek, o'ng oyog'ini uzangidan olib, so'l tomonga qiyshaydi. Boybur, xonning odami piyoda kelib ko'rishadi, shekilli, deb o'ylab, darhol otidan tushdi-da, qushbegi tomon yuraverdi. Biroq qushbegi shu payt o'zini o'nglab, oyog'ini uzangiga qo'ydi-da, yana egar ustiga joylashib o'tirib oldi. Podsho elchisi oyoq ustida, xonning a'yoni ot ustida turib ko'rishishdi. Sharqda ajnabiy elchilarni qabul qilish marosimida ishlatalidigan ba'zi nayranglardan Boyburning xabari yo'q edi.

Elchining yordamchisi Ivan Bochkov o'z podshosining hurmatini tushirgan Boyburni ichida so'kib, g'ijinib turardi. U rangi bo'zargan holda otini jahl bilan qattiq niqtib, qushbegining oldiga bordi-da, gerdayib turib ot ustida ko'rishdi.

Yashil kaftan kiygan, ikki yuzi qip-qizil, ko'sa Boybur o'zining qilgan xatosidan xunob bo'lib, terlab-pishib ketgan edi. Rus podshosining nomusini o'z nomusi deb bilgan bu ishchan va oqko'ngil odam xafa bo'lganini bildirmaslik uchun zo'r berib iljayishga urinar, biroq uning toza yuzida hayajonlangani, shoshib qolgani aniq-tiniq aks etib turardi. Egar ustida qomatini tik tutib, viqor bilan o'tirgan Ivan Bochkov lablarini qimtib, qoshlarini chimirib: «Eh Boybur Taishevich, xato qilding, biroq endi sir boy bermay, o'zingni tutib ol!» – demoqchi bo'lganday unga tikildi. Baland bo'yli, keng yag'rinli Bochkov hozir qirqlarga borib qolgan kishiga o'xshab ko'rinaldi. Cho'l shamoli va oftobdan qoraygan chehrasi uning doim ot ustida umr kechirganidan va issiq mamlakatlarda bo'lganidan darak berar, yurish-turishi, ko'zlaridagi ifoda uning qo'rmas va g'ayratli bir kimsa ekanini ko'rsatib turardi.

---

---

Qushbegi u bilan qo'l berib ko'risharkan, vajohati-ga qarab: «Ulug' elchi shu emasmikin? Men adash-madimmikan?» – deb o'yladi. U mehmonlar bilan hol-ahvol so'rashib, yo'lda qanday kelganliklarini surishtirgandan keyin qisqacha nutq so'zlab, ularni tabriklagan bo'ldi va oq podshoga uzoq umr tiladi, so'ngra baland ovoz bilan:

– Shahrimiz Buxoroyi sharifga marhamat qilsin-lar, qadamlaringizga hasanot! – dedi.

Karvon Buxoro tomon yo'l oldi. Sovg'a-salomlar ortilgan tuyalar orqada jangir-jungur qilib kelmoqda edi. Hazrati Imom darvozasi tepasida karnaylar olam-ni buzib, na'ra tortar, surnaylar chiyillardi. Yelkalari-ga oybolta qo'ygan soqchilar shahar darvozasi yonida saf tortgan, ular qomatlarini tik tutib, ko'zlarini bir oz qiyshaytirib qaqqayib turishardi.

Qushbegining qilig'idan ko'ngli og'rigan elchi bu tantana va dabdabani ko'rib, bir oz yupandi va yengil nafas olib, bozorchilarning olag'ovuri bilan to'lgan shaharga qadam ranjida qildi. Moskva elchilarini ko'rmoq va qutlamoq uchun butun xalq ko'chaga chiqqan. Ko'k salsa, bo'z chopon kiygan kambag'al-lar o'rtasida chit va adres chopon kiygan kosiblar, shoyi to'n kiygan savdogarlar ham ko'rinaldi. Xalo-yiq ichida tekin tomosha payida yurgan sayoq kishilar, qalandarlar, meshkobchilar qatorida elchilarning kelishidan behad suyungan shoyi, baxmal, zarbof to'quvchilar, mo'ynado'zlar, miskarlar ham bor edi. Oddiy xalq do'stlik qaldirg'ochlari bo'lgan Moskva elchilarini chin ko'ngildan qutlamoqda edi.

Kuz endi boshlangan bo'lsa-da, havo issiq va dim. Belini kamar bilan tang'igan zarbof kaftanli elchi terga botib, dam shahar ko'chasini to'dirgan rang-barang kiyimli olomonga, dam yapasqi uylar ustida gerdayib turgan shahar o'rtasidagi mahobatli arkka

tikilardi. Yassi tomlar ustida boshiga chophon yopin-gan qiz-juvonlar, bolalar qaldirg'ochday tizilishib turar, elchilarni qo'llari bilan ko'rsatib:

– Voy o'lay, xotinlarga o'xshab soch qo'yishgan-a! Voy tavba, – deb yoqalarini ushlashardi.

Bir karvonsaroy darvozasi yonidagi supacha usti-da bo'z yaktak kiygan, rangpar bir kavushdo'z bilan beqasam to'n kiygan bir shoyibof bir-birlarini suyab, bo'yinlarini cho'zib, ko'chadan o'tib ketayotgan kar-vonni tomosha qilardi.

– O'ris savdogarlar nima keltiribdilar, xabaringiz bormi, aka Navro'z? – deb so'rab qoldi kavushdo'z sherigidan.

– Nima keltirar edilar, o'ris yurtida mo'l bo'lgan suvsar teri, bulg'ori charm, mum, asal, yana cho'yan qozon, igna keltiradilar-da.

– Mum bilan charm arzon bo'lar ekan-da, – deb suyundi kavushdo'z.

– Kampirning dardi g'o'zada degandek, siz kosib-larning dardingiz mum, charm, farangi ipda, – dedi kulib aka Navro'z. – Mo'ynado'zga suvsar, qora tulki teri kerak.

– O'rislar bu yerdan nima sotib olar ekanlar-a?

– Xomtama bo'lma, sening kavushingga ular zor emas. Mo'ynado'zlar tikkan chaqmoq telpaklarni ham boshlariga urmaydilar. Ammo ularga biz to'qiy-digan shoyi, baxmal, zarbof kerak.

– Pichog'imiz moy ustida, deng! Kasod bo'lib qol-gan bozoringiz yana taraq bo'lar ekan-da!

– Shundog'. O'rislarning kelgani juda bizga qo'l keldi.

– Bizga ham, – dedi kosib kulimsirab.

Qo'llariga uzun arg'uvoni y tayoq ushlagan, bosh-lariga qo'zi terisidan papax kiygan yasovullar: «Po'sht, po'sht!» – deb elchilarga yo'l ochib, ko'chaning chetiga

---

---

chiqib ulgurolmagan anqovlarning boshiga tushirib qolardilar.

Fathulla qushbegi Boybur bilan oldinda asta gaplashib borar edi. Hashamatli madrasalarning peshtoqlari va devorlaridagi koshinlar oftobda jimmima qilar, ko'zlarni qamashtirardi. Minorai Kalon masjid-madrasalar ustida qad ko'tarib, o'z naqshlari ni ko'z-ko'z qilayotganday edi.

Abdullaxon Xurosonni talab, qo'lga kiritgan boyliklar hisobiga o'z poytaxtini bezatgan, ulamolar, mullavachchalar uchun madrasalar, savdogarlar va hunarmandlarning ko'nglini ovlash uchun usti yopiq chorsular, timlar qurdirgan edi. Xonning yaqin kishilari – Ko'kaldosh, Do'stbek va Xoja Islom, Fathulla qushbegi bir-birlaridan qolishmaslik uchun serhasham madrasalar, karvonsaroylar, hammomlar, xonaqohlar, masjidlar soldirgan edilar. Xon o'zini xalqqa ilm-ma'rifat homiysi qilib ko'rsatish uchun minglab mullavachchalarga nafaqa berib turar edi. Biroq bu madrasalardan ilmi nujum va riyozat fanlari chiqarib tashlangan, mullavachchalar faqat «ilmi hol», ya'ni diniy masalalarining o'rganishar edi.

Bu hashamatli binolarga qarab, ko'zlari javdiragan Boybur:

– Bu qadar biyik... ya'ni madrasa va mechetlarni hech bir yerda ko'rmagan edim, bik aybat, bik aybat, – der edi tatarcha va o'zbekcha so'zlarni aralashtirib. Qushbegi esa bu binolarning hammasini o'zi qurdirganday g'ururlanib, burnining kataklarini kerib, qoshlarini uchirib qo'yardi.

Nog'orabozordan chiqqach, qushbegi otining boshini chap tomonga burdi-da, mehmonlarni tor ko'chadan boshlab, chorrahalarga qurilgan toqlar tagidan, Timi Abdullaxon yonidan olib o'tdi. Uning maqsadi

– Buxoroning misli yo'q timi, usti yopiq chorsulari,

---

hashamatli imoratlarini ko'rsatib, mehmonlarni lol qoldirmoq edi.

Elchilar Toqi Sarrofon yaqinidagi kichik bir saroyga kelib tushdilar. Saroy sahniga meshkobchilar suv sepgan, hammayoq supurilgan, hujralarga joy solingan edi.

Mehmonlar bu yerga kelib, ustlaridagi changni qoqib, yuz-ko'zlarini yuvib oldilar. Ular uchun xon oziq-ovqat, ikki chelak sharob, beshta qo'y yubortirdi. Uzoq yo'l yurib horigan moskvaliklar ovqatdan keyin uxlagani yotdilar. Ularni qo'riqlash uchun saroy darvozasiga ikki soqchi qo'yildi. Qorong'i tushishi bilan bu soqchilar yerga bo'yra solib, oyboltalarini quchoqlaganlaricha pinakka ketdilar.

\* \* \*

Ertasiga ertalab xon saroydan shig'ovul<sup>1</sup> egarlangan bir ot keltirib, ta'zim bilan elchini arkka chorladi.

– Nega bir ot keltirding? – dedi Boybur yelkasini qisib. – Biz... biz ikki kishi bit.

– Ikkinchchi elchi o'z otini minib borsin.

– Oloy yoromiy. Ivan Bochkov podshoning vakili, oni hurmatlov kerak. Onga-da bir ot... olib kel, – dedi Boybur o'zbekcha gapirishga urinib.

Elchi shig'ovul bilan tortisha-tortisha, arang so'zini o'tkazdi.

– Ark darvozasi yonida otdan tushasiz, – deb ta'kidladi shig'ovul elchini qabul marosimi bilan tanishtirar ekan. – Arkka Ko'kaldosh janoblaridan o'zga hech bir a'yon ot minib chiqmaydur.

– Yoriy, – dedi Boybur pishillab. – Podsho yorlig'ini xonga o'z qolimiz bilan topshirabiz.

---

<sup>1</sup> Shig'ovul – saroy marosimlarini boshqaruvchi elchilarni xon huzuriga olib kiruvchi mehmondor, qo'noqchi.

---

---

– Yaxshi, ammo xon hazratlari huzuri oliylariga kirmasdan burun mehtar janoblari qoshida bo'lursiz, ul kishi sizni qabul rasm-rusumi ila tonishtiradurlar.

Elchilar turgan karvonsaroy bilan arkning orasi uncha uzoq bo'lmasa-da, Boybur bilan Bochkov yasog'lik arg'umoqlarni minib, tantana bilan qabul marosimiga jo'nashdi. Ark darvozasi ustida nog'oralar chalinib turar, karnaylar na'ra tortar, surnaylar chiyillar edi. Elchilar baland darvoza oldida ottan tushdilar-da, shig'ovulga ergashganlaricha, yo'lakda asta yurib, saroy sahniga chiqdilar. Shig'ovul ularni mehtarning devonxonasisiga olib kirdi. Xonning o'ng qo'l vazirlaridan bo'lgan mehtar boshqa mamlakatlar bilan bo'ladigan elchilik munosabatlariga mutasaddi edi.

Boshiga katta simobi salsa, egniga juda keng zar chopon kiygan, yuzi bir burda, qotmagina a'yon Boybur bilan Bochkovni o'z devonxonasi eshigi oldida kutib oldi, ular bilan qo'l berib ko'rishgandan keyin, uzun va tor darchalardan yorug' tushib turgan naqshinkor mehmonxonaga olib kirdi, shoyi ko'rpachalarga o'tqazib, yana hol-ahvol so'rashdi.

– Saferlar bexatar bo'ldimi, eson-omon etib keldin-gizlarmi?

– Ming qatla shukr, sog'-salomat keldik...

– Oq podsho hazratlari va alarning otabeklari Gundunop janoblari sog'-salomatmular?

– Xudoya shukr, sog'-salomatlar...

Mehtar elchilarning ishonch yorliqlarini ko'zdan kechirgach, podshoning xonga yuborgan yorlig'ini ko'rsatishni so'radi:

– Men yorliqni o'z qo'lim bilan xonga topshirgay-men, – dedi Boybur qattiq turib.

– Mayli, andog' bo'lsa... Xo'sh, janob oliyga nima arzlarining bor?

---

Boybur har ikkala podsho o'rtasida yaxshi munosabatlar o'rnatish zarurligi to'g'risida Borisning uqtirgan gapini takrorlab, so'zni savdogarlarning xavf-xatarsizligi, boj-tamg'a masalasi ustiga ko'chirdi. So'ngra Kuchumxon bilan bo'lgan munosabatlar ustida to'xtalib, Moskva podshosining nuqtai nazari ni tushuntirdi.

Gap cho'zilib ketdi, mehmonlarning qorni ocha boshladi. Hushyor vazir buni payqab, eshik tomonga qarab qo'ydi-da, qars urib, bakovulni chaqirdi. Etaklarini bar urib, yenglarini shimargan epchil bakovul obdasta bilan dastsho'y ko'targan holda mehmonxonaga kirib, elchilarning qo'llariga suv quydi. Ular qo'llarini yuvib bo'lgach, yelkasidagi sochiqni ularga uzattdi. So'ngra dasturxon yozib, eng oldin bir dasta non, keyin anjir, uzum, karj qilingan qovun keltirib qo'ydi. Nonlarni burdalab, qo'li bilan dasturxonni ko'rsatdi-da:

– Qani, olinglar, mehmonlar, – deb qo'ydi. Oradan yarim soatcha vaqt o'tgach, laganlarda qovurdoq, qozonkabob keltirildi.

Ovqat mahalda mehtar mehmonlarni gapga solib o'tirdi. Mehtar xon singari katta savdogarlarga dastmoya berib, Hindiston va Eron bilan savdo-sotiq qilar va bundan ko'p foyda ko'rар edi. Shu sababdan u Moskvada ishlab chiqariladigan matolar va Rossiya bozorlari to'g'risida surishtira boshladi.

Boybur Moskvada yuz xil kasb egalari yashashini, har bir mol uchun ayrim-ayrim bozor va rastalar borligini, tagcharm boshqa rastada, tanavorcharm boshqa rastada sotilishini gapirib berdi. Bu bozorda alohida etik tikuvchilar rastasi borligini ham aytib o'tdi.

Podsho elchisi kerilib, Moskva atrofida ishlab chiqariladigan buyumlarni sanay ketdi va bu sha-

---

---

harlarda har yili bo'ladigan katta yarmarkalarni tas-virlar, Buxoro savdogarlari bu yarmarkalarga qat-nashsalar, katta foyda ko'rajaklarini uqtirdi.

– Balli, sizning bu gaplaringizni xon janoblarining go'shiga yetkazurman. Podsho Ivan vafot etgandan so'ng yetib qolgan savdo-sotig'imiz yana rivoj topib to'xtaydur!

– Agar Kuchumxon bilan bordi-keldi qilsangiz, siz bilan savdo-sotiq bitimi tuza olmaymiz, – dedi Boybur qat'iy qilib, – chunki siz Rossiyadan temir,sovut-qalqon kabi aybirlar olib, alarni Sibirga – Kuchumxonga yuborasiz. Kuchum esa bizning Sibiriyadagi shaharlarimizni vayron eta, xalqimizni toliy.

Mehtar ichida Moskva elchisining gaplari haq gap ekanligini bilib turardi, shuning uchun u Rossiya bilan do'st bo'lib, u bilan savdo-sotiq qilib turishga xoni ko'ndirish kerakligini ko'nglidan o'tkazib qo'ydi. Uning o'zi ham Moskvaga va boshqa shaharlardagi yarmarkalarga gumashtalar orqali mol yuborib, bo'yish niyatida edi.

– Bizning yana bir talabimiz bor, – deb so'zida davom etdi elchi. – Buxoro xonligida rus bandilari ko'p. Qrim totorlari, boshqirdlar rus yigit-qizlarni o'g'irlab olib kelib, bu yerlarda sotalar. Siz alarni ozod etib qaytarib yuborishlarингiz kerak. Bu yerlarda ruslarning xor-zor bo'lib yuruvlari Rossiya davlatining sha'niga yarashmiy.

Elchining bu gapi mehtarga uncha yoqmadı, chunki o'zi ham quzdorlardan edi. U zo'rma-zo'raki kulimsirab:

– Bu mushkul masala, – dedi. – Albatta, biz ham qullarni ozod etib yubormoqni tilaymiz. Ammo bu qullarni sotib olgan kimarsalarning ziyonini kim to'laydur? – Shoyi ko'rpa cha ustida mehtar bilan

yonma-yon o'tirgan elchi Bochkovga bilinar-bilinmas ko'z qisib qo'ydi.

– Biz qullarni egalaridan sotib olobiz, – dedi Boybur iljayib. – Xon hazratlari ruxsat bersalar, bas. Ul janobning lutf-karamlariga ishonabiz.

– Janoblar, – dedi mehtar o'rnidan turib, – siz larning bu talablaringizni xon hazratlariga ma'lum qilurmen. O'z arzingizni bo ul hazrat qoshida bayon qilursiz. A'lo hazrat sizlarni biror soat ichida qabul qilsalar, ajab emas.

– Mehtarnig tomog'i moylanmagan arava g'ildiragidek g'ich-g'ich qilyapti, – dedi Boybur mehtar chiqib ketgach ruschalab, – bir narsa bilan og'ziga urmasak, ishimiz yurishmaydigan ko'rinadi.

– Rost, yigirma-o'ttiz so'm va'da qilmasak, aravamiz yurmaydiganga o'xshaydi. Agar biz bu yerda gi bandilardan jilla bo'lmasa yigirma-o'ttiztasini ozod qilib obormasak, Boris Godunov janoblari xafa bo'ladi-lar. Bu yerda poraxo'rlik ayb emas, deb eshitaman.

– Bu ishni menga qo'yib ber. Ularning tilini bila-man, – dedi Boybur qochiriq qilib.

Mehtar elchilar bilan muzokara olib borayotgani-da, Abdullaxon devonxona yonidagi qorong'i hujra-da o'tirib, hamma gapni eshitgan, elchilarning mud-daosini bilib olgan edi. Lekin mehtar mehmonlar oldidan chiqib ketishi bilan u ham xilvat hujrani tark qildi, shu sababdan elchilarning keyingi gaplarini eshitmay qoldi.

Mehmonlar kutaverib, ta'blari xira bo'la boshla-ganda, udaychi<sup>1</sup> kelib, ularni ko'rinishxonaga taklif etdi.

Abdullaxon to'rda marmar toshdan yo'nib ishlangan taxt ustida zarbof to'n kiyib o'tirar edi. Tishlari tushib, sochlari oqargan, mo'g'ulbashara, ko'sa va

<sup>1</sup> Udaychi – shig'ovulning ikkita udaychisi – yordamchisi bo'lgan.

---

---

puchuq xonning boshidagi qimmatbaho toji o'ziga yarashmay turardi. Uning bigizdek o'tkir ko'zlari ning qarashidan, o'ng qo'lining mushtini tizzasiga tirab, qiyshayib o'tirishidan, butun vajohatidan qahri qattiq, bir nazar bilan katta qo'shinni o'ziga tobe qilib oladigan, irodali kimsa ekanini fahmlab olish qiyin emasdi. Xonning so'l tomonidagi faxrli o'rinni yasovulboshi, Qulbobo Ko'kaldosh, eshik og'asi, miroxo'r, mirzaboshi, xazinaboshi ishg'ol qilgan, o'ng tomonida Xojai Kalon, mehtar va boshqa amaldorlar, taxtning orqasida esa qurchi (soqchi) boshi va yasovulboshi, Fathulla qushbegi tik turardilar.

Elchilar xonning ro'parasida, o'zlari uchun ko'rsa tilgan joyda ta'zim qilib turdilar. Shig'ovul baland ovoz bilan Moskva elchilarining xon ostonasiga «bosh urib» kelganliklari va oq podshoning salomini keltirganliklarini e'lon qildi. Shundan so'ng Abdullaxon iltifot qilib, elchilar bilan hol-ahvol so'rashdi. Shig'ovul bilan udaychi elchilarni qo'ltiqlab, taxt yoniga olib bordi. Elchilar, odatga muvofiq, xon yonida bir lahma sukut qilib turishdi. Ular g'ayridin bo'lganliklari sababidan xon o'pish uchun qo'lini cho'zmadidi, faqat navbat bilan yelkalariga qo'lini qo'yib, iltifot qilgan bo'ldi. Xon elchining qo'lidan tatarcha yozilgan yorliqni olib, naridan-beri o'qib chiqdi-da, shig'ovulga uzattdi. Elchilar orqalari bilan yurib, yana o'z joylariga borib turdilar.

Butun Movarounnahr va Xorazmni qilich kuchi bilan birlashtirgan va o'zini ikkinchi Temurlang deb hisoblagan Abdullaxon mag'rurlidanmi yoinki qartayib, esi kirar-chiqar bo'lib qolganidanmi, Rossiya podshohining sog'lig'ini so'rashni unutib qo'ydi. Rus podshohining hurmati joyiga keltirilmagani uchun Ivan Bochkovning g'azabi kelib, yonida turgan udaychiga dedi:

– Men Rum imperatori saroyiga chopar bo'lib borganimda, imperator ulug' podshohimizning va Rossiya hokimi Boris Godunov janoblarining sog'lig'ini so'rigan edilar.

– Nima deydi bu o'ris? – deb so'rab qoldi xon udaychidan jahl aralash.

Tilmoch Bochkovning gapini yumshatib, muloyim-roq ifodalar bilan tarjima qilib bergach, ko'rinishxonaning bir on sukunatga cho'kib, pashsha uchsa eshitiladigan bo'lib qoldi. Xon odatga xilof ish qilgani uchun vakilning bu pichingini qult etib yutdi-da, taxt ustida o'zini o'nglab olib:

– Birodarimiz oq podsho hazratlari va alarning maslahatgo'yлari Boris Godunov janoblari sog'-salomatmilar? – deb so'radi. Uning ta'bi xira bo'lgani, kayfi buzilganligi aftidan bilinib turardi.

– Alhamdulillo, salomatlar, – dedi Boybur yengil nafas olib. – Xudo marhamati ila butun Rusning ulug' podshohi, Moskva, Kiyev, Novgorod, Tver, Qozon va Astraxan hukmdori Fyodor Ivanovich zoti shohonalarini sihat-salomatdirlar, sizning-da sog'ligingizni xudoydan so'raydurlar.

Elchingining «Qozon va Astraxan hukmdori Fyodor Ivanovich...» degan gapi Abdullaxonning g'ashiga tegdi. Ichini mushuk tirnayotgandek o'tirgan joyida ijirg'anib qo'ydi. So'rashish marosimi tamom bo'lgach, amaldorlar Moskva podshohi yuborgan sovg'alarini: po'lat Sovutlar, to'rt lochin, suvsar po'stin, to'rt bochka sharob va boshqa narsalarni uning oldidan olib o'tdilar. Yasovulboshi baland ovoz bilan bu sovg'alarning nomini aytib turdi.

Xon bu sovg'a-salomlarni ko'rib, bir oz taskin topdi.

– Mehtar siz janoblarining iltimoslaringizni menga yetkazdi, odamlarimiz bilan bu haqda maslahatlashib, so'ngra javobini berurmiz, – dedi xon o'rnidan turib.

---

---

Shu bilan tantanali qabul marosimi tugadi. Xon yasovulboshi va mehtar bilan birga o‘z hujrasiga ketdi. Saroy amaldorlari elchilarni qurshab olib, xonning iltifoti bilan ularni tabriklay boshladilar. Xon esa «G‘ayridinlarning yelkasiga tegib, harom bo‘ldi», deb qo‘lini yuvib oldi.

## VII

Moskva elchilari rus bandilarni ozod qilib olib ketar emish, degan xabar quldlarni tashvishga solib qo‘ydi. Hoji Baxshilloning qo‘lida ikkita rus asiri bor edi. Hozir u bularni sotib olganiga pushaymon yer: «Hay, attang, eroniq qul olsam bo‘lar ekan, – deb achinardi. – Yotib qolgandan ko‘ra, otib qolish kerak, nima qilib bo‘lsa ham, bu ikki bandini qo‘ldan chiqarmaslikka urinib ko‘ray».

Kun og‘ib, soyalar uzaygan paytda Hoji Baxshillo otiga minib, Rometondagi qo‘rg‘oniga jo‘nadi.

Uning qullari, qullardan hech farqi bo‘lmagan qarrollari va chorakorlari yanchilgan g‘allani omborlariga tashimoqda edilar. Xo‘jayin har hafta o‘z mulkiiga borib, ishlarning borishi bilan tanishib kelardi. U yo‘lda turli fikrlarga berilib, to‘rt paxsa devorli qo‘rg‘oniga qanday qilib yetib kelganini sezmay qoldi. Darvoza yonida turgan kaltabaqay sersoqol bir kishi ikki bukilib salom qildi-da, bir qo‘li bilan otning jilovidan ushlab, bir qo‘li bilan xo‘jayinni qo‘ltiqlab, egardan tushirdi. Bu kishi Hojining gumashtasi edi. Xo‘jayin gumashta bilan qisqacha hol so‘rashgandan keyin daladagi ishlarning borishini surishtirdi.

– Bug‘doylarni o‘rib bo‘ldik, yarmini yanchib, omborga joyladik, xo‘jayin. Ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin.

– Yaxshi, – dedi xo‘jayin xayoli parishon holda. Uning miyasi ekin-tikindan ko‘ra ko‘proq boshqa bir narsa bilan band edi. Peshonasini tirishtirib, uvush-

gan oyog‘ini qo‘li bilan ishqalay-ishqalay, oqsagan-chacha mehmonxonaga kirdi va Mikifor bilan Alyonkani o‘z oldiga chaqirtirdi. Baquvvat Mikifor dalada ishlar, har turli taomlarga pazanda bo‘lgan Alyonka esa qullar bilan qarollarga ovqat pishirardi. Eshikdan tortinib kirib, uyining o‘rtasida to‘xtagan bandilarini Hoji ochiq chehra va muloyimlik bilan qarshi oldi.

– Xo‘sish, hol-ahvollaringiz qalay? Ustingiz but, qorningiz to‘qmi, akun?

– Qornimiz to‘q, xudoga shukr, – dedi basharas-si xuddi go‘dakka o‘xshagan puchuqqina soqolsiz, barvasta Mikifor. Uning sodda va semiz basharasi beg‘amlik, itoatkorlik va ko‘r-ko‘rona sadoqatning timsoli edi. – Lekin chorig‘im yirtilib ketdi, yalang oyoq qoldim.

Hoji ish hayvonlarini yaxshi boqqanidek, qul va qarollarini ham to‘q tutar, buning evaziga ularni moldek ishlatalard, biroq ust-boshlari bilan ishi yo‘q edi. U qars urib gumashtani chaqirdi va Mikiforni yalang oyoq qoldirgani uchun koyigan bo‘ldi. Bir juft yangi choriq keltirganlaridan keyin:

– Mana endi oyog‘ing ham but bo‘ldi, – dedi Miki-forga qarab. – Nimaiki darkor bo‘lsa, darhol gu-mashtaga aytinglar, muhayyo qiladur. Sen, Alyonka, nega mum tishlagandek xomush to‘xtading?

Aqli ayol xo‘jayininining tilyog‘lamalik qilayotgani-dan shubhalanib, buning zamirida bir gap borligini sezib turardi.

– Menga hech narsa kerak emas, – dedi Alyonka.

– Boshqa xojalar yanglig‘ men berahm ermas-man. Ko‘nglimda rahmim bor, – dedi Hoji riyokorona xo‘rsinib. Biroq uning tikandek o‘tkir ko‘zlarining qarashi og‘zidan chiqqan so‘zlarni tasdiqlamasdi. – Vale, yaxshi ishlasalaring va itoatgo‘y bo‘lsalaring, ozod qilib yuborsam ham, ajab ermas.

---

---

Soddadil Mikifor bu soxta so'zlarni chin deb bilib, tishining oqini ko'rsatib turardi.

– Ozod bo'lib to'xtaganlaringdan so'g'in menga ishlaysizlarmi yoki birovga yollanib ishlaysizlarmi, ixtiyor o'zlaringga, vale, hozircha... hm, – mutavalliy yo'talib qo'ydi. – Mabodo birov sizlarga qayu xalqdan-siz, deb savol bersa, bizlar no'g'oymiz, deb aytinlar, zinhor o'rismiz, deb aytu ko'rmanglar.

Gapning tagiga yetolmay qolgan Mikiforning betidagi jilmayish birdan so'nib, og'zi ochilib qoldi. Al-yonkaning rangi bo'zarib, lablari qimtindi.

– Rus va xristian bo'laturib, nega endi o'zimizni no'g'oy deb atar ekanmiz? – dedi u boshini g'oz ko'tarib. – Sen bizlarni pulga sotib olgan bo'lsang ham dinimizni sotib olmagansan-ku!

– Gapga qulq sol, lodon. Men senlarni, muslimon bo'l, deb aytopganim yo'q-ku, oxe! Dilingiz bilan emas, faqat tilingiz bilan o'ris ermasmiz, deb aytosalaring kifoya.

– Bu gaplarni aytgandan ko'ra tilimiz kesilgani yaxshi!

– Ko'p gapurma, og'zim bor, deb valaqlayberaykanda. Tillaringizni ildizi bilan sug'urib olishdan ham toymayman, akun. Hali senlar mening siyosatimni ko'rganlaring, kaltagimni yeganlaring yo'q. Badan-laringni tilib, tuz septirganda, o'zgacha gapuradigan bo'laydinglar.

– Mayli, o'ldirsang o'ldir, lekin aytganiningni qilmaymiz, – dedi Alyonka xojasiga tik qarab.

U o'ng qo'lining ikki barmog'ini baland ko'tarib, cho'qina boshladи, rangi o'chgan Mikifor ham unga taqlid qildi.

Mikifor bolalik chog'ida qul egalarining tayog'ini yeb, yurak oldirib qo'ygan va jasoratini yo'qtgan yigit edi. Uni otasidan ayirib sotayotganlarida, dodlab

yig'lagani uchun jallodlar tovonini tilib, tuz sepgan edilar. Xo'jasining gaplarini eshitib, bolalik chog'ida tortgan azoblari esiga tushdi-da, yuragi orqasiga tortib ketdi.

«Hay attang, ilgariroq bularning yuragini olib qo'ysam bo'lar ekan, – deb o'yladi Hoji. – Endi vaqt o'tdi, Moskva elchilari yetib kelib qoldi. To'ydan keyin nog'ora qoqishning foydasi yo'q, hay attang!»

U o'rnidan sapchib turib, alamiga chiday olmay, qul yigitning orqasiga qamchi bilan bir urdi-da:

– Oldiraman sizlarni, mabodo aytganlarimni qilmasanglar, tiriklayin terilaringizni badaningizdan shildiraman! – deb baqirdi.

Hojining ko'zları kosasidan chiqib ketayozgan, cho'qqi soqoli qiyshayib qolgan edi. U qo'lidagi kumush bandli qamchisini mahsisiga tars etib bir urdi-da, tashqariga chiqdi, miroxo'rni chaqirib, otini keltirishni buyurdi.

\* \* \*

Darvozaxona yonidagi shiftini is bosgan qorong'i bir qo'shxonada, lipillab yonib turgan jinchiroqning xira yorug'ida juldur kiyimli eroniy qullar va yerli qarollar kichiri yeb o'tirar va katta xo'jayinning Rometonga nima uchun kelgani, nima sababdan o'ris yigit bilan oshpaz xotinni o'z oldiga chaqirtirgani to'g'risida bosh qotirar edilar.

– Bir balosi bo'lmasa, shudgorda quyruq na qilur, – dedi qo'tir telpak kiygan novcha Abdunazar. – Xoja hech mahal qulini yaxshi niyat bilan o'z oldiga chaqirtirmaydur. Chamasi, bundan besh yil ilgari meni Hoji o'z mehmonxonasiga chaqirtirdi. Kirsam, boy bilan qozi pichir-pichir qilib o'tirgan ekan. Qozi gap boshlab: «Otang qarzini uzguncha sen bu kishining eshigida xiz-

---

---

mat qilib yurasan, – dedi. – Biz bu haqda vasiqa yozib, guvohlar oldida otangga qo'l qo'ydirib oldik».

Qoziga qarshi gapirib bo'ladurmi? Men noiloj qo'l qovushtirib, bo'ynimni egib: «Xo'p», dedim. Otam bechora soddalik qilib, meni qullikka solganiga nadomat qiladur, biroq nachora!

Eroniy qullar qatorida o'tirib, bir tovoqdan osh yeyayotgan «ozod» o'zbek va tojik qullar indamay uning gapiga qulq soldilar. Garchi Abdunazarning boshidan o'tgan voqeani allaqachon eshitgan bo'salar ham ular churq etmay tinglar, hasrat olovi yuraklarini kuydirar edi. Kichirini yeb, laganni yalayotganlarida, eshikdan Mikifor bo'zarib kirib keldi. Uning oyog'iga Abdunazarning ko'zi tushgach, kinoyaomuz iljayib:

– Muborak bo'lsin yangi choriq, – dedi.

Mikifor bu gapga qo'l silkib, indamay uning yoniga o'tirdi.

– Qani, gapir-chi, boy seni nima uchun chaqirtirgan ekan?

Mikifor voqeani gapirib bergan edi, Abdunazar:

– Hah-ha! – deb kekirdagini cho'zdi. – O'ris emasman deb aytgin, deydimi xo'jayin? Buning tagida bir gap bor!

Oraga sukunat cho'kdi. Hamma xayol daryosiga cho'mib, bu gapning mag'zini chaqishga urinardi.

Davra qurib o'tirgan juldurvoqi odamlarning saratton oftobidan qoraygan serajin peshonalari tirishgan, qovoqlari uyilgan.

– Topdim, – dedi bo'yi qisqa, soqoli oppoq, tetikkina bir chol. – Boya men guzarga chiqqanimda, do'kon-dorlar pichir-pichir qilib, Maskopdan elchilar, sav-dogarlar kelibdur, shoyi, olacha chaqqon bo'ladur, deyayotgan edilar...

– Elchilar kelsa nima qipti? – deb so'radi eroniyl qul. – Bu gapga ularning nima daxli bor?

– Ie, haliyam tushunmadingmi? Maskop elchilarini o'ris bandilarini ozod qilib olib ketsa, nima deysan?

Bu gapni eshitib, hammaning yuzi yorishdi.

– Rost aytdingiz, Nazirqul aka, aqlingiz borakan, – dedi Abdunazar bosh irg'ab, so'ngra Mikiforga qarab, gapida davom etdi: – Sen, Mikifor, bo'sh kelma. Kim so'rasha ham «o'risman», deyaver, qutulib ketgaysan.

– Rost, qattiq tursang, qutulib ketursan. Boyning dag'dag'asidan qo'rhma, aslo no'g'oymen, deb aytma. Shu bechorayam qutulib ketsin. U ham xudoning bandasi-ku.

Qullar va qarollar o'zlarining jabrdiyda birodarlari ni o'rtaga olib, unga dalda berar, bo'sh kelmaslikka da'vat qilardilar.

O'rislar o'z asirlarini olib ketarmish, degan gap ularni qattiq o'ylatib qo'ysi. «Bizlarni ham qutqaradiganlar bormikin?» – degan fikr hammaning xayolidan o'tardi.

Qullar dasturxonga fotiha qilib, o'rnilaridan turishdi. Shu vaqtgacha gapga aralashmay o'tirgan qotma yuzli, qora yigit bir chekkada yer chizardi.

– Mardon, nimaning hisobiga yetolmay turibsan? – deb so'radi Abdunazar uning yonida cho'qqayib.

Qoracha yigit engashib, unga bir narsa deb shivirladi. Keyin:

– Mana biz turgan joy, – dedi u boshini ko'tarib.  
– Mana, Qalamazor, – u pastroqni chizib ko'rsatdi,  
– orada Qarshi cho'li bor. Agar Beshkentdan o'tib ol-sak, marra bizniki. Qochamiz!

– Qarshining cho'lida qanchadan-qancha odamning suyagi qolib ketgan, bilasanmi? – dedi Abdunazar istehzo bilan.

– Bilaman, kunda o'lgandan ko'ra birato'la o'lgan yaxshi. Pichoq borib, ustuxonga qadaldi-ku.

Endi o'ttizga kirgan bu yigitning burushib ketgan, cho'l shamolidan qoraygan qotma, horg'in

---

---

yuzi, o'qraygan ko'zlari, qora kosov qo'llari og'zidan chiqqan so'zlarni tasdiqlab turgandek edi.

O'z qishlog'i, xesh-aqrabolaridan ajrab, xo'jayin uchun ter to'kib ishslash, hamma qullar kabi bu ja-fokash yigitning ham joniga tekkan. Xo'jayinning navkarlari qullarni doim nazorat qilib turar, kecha-lari kishanlab qo'yari, kunduzlari arg'uvon tayoq bi-lan urib ishlatardilar.

Mardon asli Sherobod tumaniga qarashli bir qish-loqlik yigit, Abdullaxon Xurosonga bostirib kirmas-dan ilgariroq u Turshiz shahridagi amakisini ko'rgani borgan edi. Abdullaxonning kallakesarlari bu sha-harni ishg'ol qilganda, Mardon ham boshqalar qatori bandi qilib olindi. Askarboshilardan uni sotib olgan jalloblar: «Agar sendan mazhabingni so'rasalar shia-man, deb ayt», deb pishiqlagan edilar. Mardon ular-ning gapiga unamaganda, tovoniga behi tayoq bilan urib, o'lesi qildilar.

Sotqin mullalar: «Shialar musulmon emas, ularni qul qilib sotish joiz!» – deb fatvo bergen edilar. Qul jalloblarning zo'ri bilan «qizilbosh», ya'ni shia bo'lib qolgan Mardon Buxoroga keltirilib, moldek sotildi. Mana endi Makkaga borib, gunohlari «yuvilgan» Ho-jining dalalarida yetti yildan beri moldek ishlaydi.

– Qarshining cho'li xatarli, – dedi Abdunazar qovog'ini solib. – Serqatnov yo'l, igna yo'qolsa – topiladi.

– Bo'lmasa nima qilamiz?

– Kunchiqar tomonga, Qarnab cho'liga qarab qo-chamiz. Men bu cho'lda yetti yil tuya boqqanman, har bir quduqni bilaman. Ko'chmanchilar orasi-da oshnalarim ham ko'p, yo'lda och qolmaymiz. Tuzquduqqa yetgandan keyin shartta kunyurish to-monga burilamiz.

Abdunazar o'z rejasini barmog'i bilan yerga chizib ko'rsatdi. Yuzi yorishib ketgan Mardon unga mehr bilan qarab:

– Men iningiz bo'laman, o'la-o'lguncha xizmatin-gizni qilaman, – deb yubordi.

– Menga xizmatkorning darkori yo'q, qadrdon jo'ra kerak!

– Men jo'rangiz, iningiz bo'laman. Biz tomon-da qo'ychivon boylar ko'p. Birortasi bilan kelishib, qo'yalarini boqamiz.

– Yana boylarga qul bo'larkanmiz-da.

– Qul emas, qarol. Ishqilib, ozod bo'lamiz-da. Tog'larda ko'kragimizni shamolga berib, qo'shiq aytib, qo'y boqamiz. Siz cho'pon bo'lsangiz, men cho'liq.

– Gapni bir joyga qo'yaylik, men kechasi... Abdunazar shivirlab gapira boshlabi. Ko'zлari o'tdek chaqnab turgan Mardon uning og'ziga tikilib qulq solgancha qotib qoldi.

## VIII

Hoji Baxshillo otini qamchilab, bir yarim soat deganda shaharga yetib keldi-da, Urganch saroyi yaqinidagi hovlisining katta darvozasini taqillatdi. Qorong'i yo'lakda mudrab o'tirgan eroniq qul yugurib kelib eshikni ochdi. Hoji o'ng oyog'ini egardan oshirib, yerga tushguncha uzangini ushlab turdi. Olt-mishga yaqinlashib, soch-soqoli oqargan bo'lsa-da, hali tetikkina chol terlab, ko'pirib ketgan otni otxona ustuniga qantarayotganda, Hoji tez-tez yurib, hovliga kirdi. Zahro mana shu tor hovlida, xizmatkori bilan oqsoch kampir nazorati ostida yashardi.

Oqsoch oshxonada osh pishirish, Zahro uy ichida kashta tikish bilan mashg'ul edi. Hoji kirishi bilan Zahro o'z ishini yig'ishtirib, igna-iplarini savatga solidi-da, o'rnidan turib, ta'zim qildi. Uning guldek yuzi bir oz so'lgan bo'lsa-da, avvalgi tarovatini yo'qotma-gan, yuzidagi hazin ifoda, qora qoshlar ostidagi shah-lo ko'zlarning ma'yus boqishi qorachadan kelgan

---

---

chiroyli yuzining husniga husn qo'shar edi. Uning jamolini ko'rgach, Hojining tosh ko'ngli yumshagan-dek bo'ldi. Shoshib-pishib ustidan yaktagini yechib olgan yesiriga shirin gaplar aytib, uning sochlarini silagisi keldi. Biroq yilt etgan muhabbat uchquni uning qora ko'nglini bir dam yoritdi-yu, yana so'ndi. Yo'lda bo'lgan voqealar Hojining esiga tushib, rashk iloni ichini kemira boshladи. Birdan g'azabi qo'zib, qo'rqa-pisa kulimsiragan joriyasining chiroyli yuziga ustma-ust ikki tarsaki tushirdi.

– Na aybim vor? Naya vuruyursan? – deb ingradi Zahro tisarilib.

– Senda ayb yo'q! Hah-ha! Sen kulib boqmasang, Ibon bul ishni qilmaydi edi. Mochaxar! Safarda bo'lgan ishlar xotiringdan faromush bo'llemi?

– Volloh, banda ayb yo'q. Ban... – Hoji bir tarsaki uring, uning gapini bo'ldi-da, jahl aralash ko'rpachaga yonboshladи.

Zahro uning qiynashlaridan ham, erkalashlaridan ham bezor bo'lgan, ba'zan o'zini-o'zi o'dirgisi kelar, kechalari ko'z yoshi bilan peshonasining sho'rimi yuvishga urinardi. Biroq uning sabr-u toqatdan boshqa quroli qolmagan edi...

\* \* \*

Ko'kaldosh bir haftadan keyingina qo'li bo'shab, Hojini qabul qila oldi.

– Hoji, nega oriqlab ketdingiz? Kasal bo'ldingiz chog'i, – dedi a'yon istehzo aralash iljayib.

Ular Ko'kaldoshning Shirbudindagi chorborg'ida, hovuz bo'yidagi supa ustida o'tirar edilar.

– Yo'l azobi – go'r azobi, – dedi Hoji xo'rsinib.

– Boshqalar safardan semirib qaytganlar, – dedi a'yon tirjayib, so'l ko'zini qisib. – Yo'lda ajab-tavr ishlар sodir bo'libdur, qulog'imga chalindi...

Hoji indamadi, shu topda ro'parasidagi bir ko'zi qisiq a'yoning burushib ketgan bo'yni ko'ziga juda xunuk ko'rinish ketdi.

– Hay, mayli. Xo'sh, ayting-chi, Maskop podsho-hining saroyida ne tavr gaplar bor?

– Taqsir, hozirgi podsho Fyodor yosh bo'lsa dog'i, devonavash, kasalmand odam erkan, agar qazo qilsa, o'rniga valiahd yo'q...

Ko'kaldosh Hojining gaplariga indamay quloq solib o'tirdi.

– Asilzoda boyarlar Borisni xushlamas erkan, alar taxtga o'z youvularidin bir kimarsani o'tqizmoqchilar, – dedi Hoji nafasini rostlab olib. – Boris podsho bo'ladimi, boshqasimi, biz uchun baribir...

– Yo'q, baribir emas, – dedi Ko'kaldosh uning gapini og'zidan olib. – Boris dono va qattiqqo'l odam, qo'yib bersa, Sibirni ham qo'lga kirgizadi...

Ko'kaldoshning yo'tali tutib, gapi og'zida qoldi. Mehmon uning nima demoqchi bo'lganini bilolmadidi. Hoji Moskva podshosi va uning yaqinlari haqida eshitgan-bilganlarini gapirib bergandan keyin, a'yon:

– Xo'sh, Hojitarxon qanday shahar ekan, sizga yoqdimi? – deb so'rab qoldi.

– Hojitarxon – kichkinagina shahar, tepa ustiga voqye bo'libdur, topilg'usiz shahri bo'libdur. O'rislar qal'ani tiklabdurlar, cherkovlar quribdurlar.

– Hojitarxon ulug'lari sizni yaxshi kutib oldimi?

Mutavalli aftini bujmaytirib turib:

– Bir boshdan gapirib bera qolay, – dedi. – Kemandin qirg'oqqa tushmay burun, no'g'oy savdogarlar bizlarni qurshab olib: «Sotaturg'on nimangiz bor?»

– deb so'rayberdi, ammo shahar akobiri bir necha yasovullari bilan kelib, alarni quvib yubordi va bizlarni qo'riqlab, to'ppa-to'g'ri Hojitarxon shahar karvonsaroyiga olib bordi. Tonglasig'a karvonsaroyga bir necha o'ris savdogar kelib, bizlardin yuz so'mlikcha

mol xarid qildi. Alarning orasida pakanagina, o'g'ri ko'z, sersoqol bir odam olazarak bo'lib turar edi. Shu bo'lsa kerak, deb to'ppa-to'g'ri ollig'a bordim. Bir go'shaga chaqirib: «Yoqut olasizmi?» – deb so'radim. Ko'zlar o'ynab, shoshib-pishib: «Ha, olurman», deb aytdi. Aning kimligini aniq bilgandan so'g'in sovg'an-gizni berdim. U esa hamyonidan mana bu tumorni chiqorib topshirdi.

– Borakallo, – dedi mezbon tumorni olar ekan. – Xo'sh, karvon ahli o'tasida bizga qarshi fitna gaplar bo'ldimi?

Hoji qo'ynidan naycha qilib o'ralgan bir qog'oz chiqarib berdi-da:

– Hammasi ushbu qog'ozga darj etilgan, ammo oshkor fitna gaplar eshitmadim, – dedi.

A'yon qog'ozni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yida, Hojining bir holatda bo'lib qolgan, kesakday basharasiga tikilib:

– Sog'lig'ingiz joyidami, nega rangingizda rang qolmagan? – deb so'rab qoldi.

– Ey, holimga hamdunalar<sup>1</sup> yig'laydur, – dedi Hoji ko'ngil yorib. – Besh kun bo'lle, ikki qulim qochib to'xtadi. «Axtarib toping», deb chor atrofg'a navkarlar yibordim, topolmay keldilar. Birisi kun yesirim Zahro oqsoch kampirni uxlatib, uydan chiqib qochibdur.

– Hay, attang, yomon ish bo'libdur, – dedi a'yon achinganday, lekin uning aftidan ich-ichidan xursand bo'lganligi bilinib turardi. – Qidirtirmadingizmi?

– Arqasidan odam yiborib oxtartirdim, hech yerda andin xabar topolmadim. Guman qilurman: mazkur ishga Iboning oshnasi haligi savdogar mulla Shokir bosh qo'shgan, akun.

– Bunga nima dalilingiz bor? O'zingga ehtiyyot bo'l, qo'shningni o'g'ri tutma, degan gap bor. Haligi sav-

<sup>1</sup> Hamduna – maymun.

dogarning nomini bekorga tilga olaver mang. Aning zoti oliy qoshida xizmati bor.

– Taqsir, yo'lga Maskop vakili Ibon menga ko'p bedodlig' qille, ehtimol, go'shingizga etkandur. Men mazkur Ibon ustidan zoti shahonaga arznama yozdim.

Mezbon noxushlanib, uning qo'lidan naycha qilib o'rالgan qog'ozni oldi...

\* \* \*

Bundan to'rt-besh kun ilgari, qosh qorayganda, mulla Shokir Urganch saroyiga kelib, darvozabondan quljallob Berdiniyozni istagan edi.

– Hujrasida o'tiribdur, – dedi yuz-ko'zini soqol bosib ketgan, bir ko'zi g'ilay darvozabon do'rillab. – Bir-ikki kundan keyin yurtiga jo'nab ketsa kerak.

– Juda soz, – dedi savdogar suyungandek. U darvozabonga bir miri tashlab, qo'raning bir burchagidagi hujra tomon yo'l oldi.

Kumush tangaga liq to'la xurjunining ko'zini tikib o'tirgan quljallob savdogarni ko'rishi bilan turib ta'zim qildi.

– Keling, aka mullo, qani, bu yoqqa.

– Oldingizga bir iltimos bilan keldim, yo'q demaysiz, – deb gap boshladi mehmon nafasini rostlab, to'rдagi ko'rпachaga o'tirarkan.

Uning qip-qizil yumaloq yuzi yiltillar, ko'zlari chaq-nar edi.

– Siz iltimos qilasiz-ku, biz yo'q deymizmi?

– Bir savob ish qilish kerak. Bir mushtiparni falokat og'zidan tortib olish kerak.

«Savob» degan gapni eshitgach, quljallobning qotma, serajin yuzi bujmayib ketdi. U cho'michday burnini jiyirib, boshidagi katta papaxini to'g'rilab qo'ydi.

---

---

Mulla Shokir esa Zahroning boshidan o'tgan voqealarni, uni zolim xo'jayin qo'lidan qutqarish kerakligi to'g'risida uzoq gapirdi.

– Umringizda bir neklik qiling, o'la-o'lguningizcha eslab xursand bo'lib yurasiz, – dedi mehmon so'zining oxirida. – Shu bechora ayol bandilikdan ozod bo'lib, g'ayridin bo'lsa-da, bir odamning nikohiga o'tsin.

– Egasidan sotib oling-qo'ying-da.

– Egasi sotmaydi. Hoji Baxshillo qariganda, ishq-muhabbat qarmog'iga ilinibdi. Zahroni joni tannidek yaxshi ko'radi ekan.

– Bas, nima qilamiz?

– Zahroni o'zingiz bilan Urganchga olib ketasiz. Biz yo'lda uyingizga tushib o'tamiz. Xamir uchidan patir, olib qo'ying-chi. – Savdogar cho'ntagini kavlab, jallobning ko'zini o'ynatib shiqillatdi-da, yigirma tanga chiqarib, oldiga qo'ydi.

– Bu – qiyin ish. Agar Hoji bilib qolsa, payimni qirqadi.

– Qayoqdan biladi? – savdogar jallobning qulog'iga engashib, bir nima deb uzoq shivirladi.

– Yaxshi o'ylab topibsiz, shunday qilsak, hech kim bizni qo'lga tushurolmaydur, – dedi Berdiniyoz kulgisini to'xtata olmay. – Illonning yog'ini yalagan odam ekansiz.

Mehmon uning gapiga xafa bo'lmasdi. Ko'zlarining yaltirashidan bu gap unga moydek yoqqanga o'xshardi.

\* \* \*

Abdullaxon qabul marosimidan so'ng o'z hujrasiga kirib, orom oldi. Qartaygan xon tez charchaydigan bo'lib qolgandi. U shu salqin, nimqorong'i hujrasiga kirib, davlat ishlari to'g'risida bosh qotirar edi.

Karmana viloyatining hokimi Iskandar sultonning o'g'li bo'lgan bu xunuk, ko'rimsiz odamni hech kim

butun Turkistonning hukmdori bo'ladi, deb o'ylama-gan. Shayboniylar urug'idan bo'lgan Iskandar sulton Buxorodagi mashhur eshon Hoji Islom Jo'yboriyning sodiq muridlaridan edi. Minglab yilqilari, behisob yerlari, uch yuzdan ortiq quli bo'lgan bu eshon Mavarounnahrda eng nufuzli odam edi. G'ayratli, aqli Abdulla ham otasidan o'rnak olib, bu eshonga yuzlab qo'y, qoramol, chiroyli qizlarni nazr qilib turar, Buxoroni fath etish uchun qulay payt poylardi. Oradan ko'p o'tmay u juda ko'p askar to'plab, Buxoroni qamal qilganda, Hoji Islomning muridlari Buxoro xoni Burhon sultonni o'ldirib, shahar darvozalarini unga ochib berdilar<sup>1</sup>.

Taxtga o'tirgach, Abdullaxon Shayboniyxon urug'idan bo'lgan o'z raqiblarining yostig'ini quritdi: Baroqxon, Burhon sultonning avlodlari, hatto beshik-dagi bolalari, nevaralarigacha qatl ettirdi. Qilich ku-chi bilan butun O'rta Osiyoni zabit etib, yagona davlat qurdi. Temur o'z poytaxti Samarcandni qanday bezatgan bo'lsa, Abdullaxon ham boshqa shaharlar hisobiga Buxoroni shunday bezatdi: karvonsaroylar, madrasalar, hammomlar, tim va toqlar soldirdi, u o'zini Moskva podshohi bilan bellasha oladigan dara-jada kuch-quvvatga ega deb hisoblardi.

Abdullaxon hozir zarbof to'shakka yonboshlab, tir-sagini yumaloq kimxbob yostiqqa tiragan holda Boris Godunovning o'zbek tiliga tarjima qilingan yorlig'ini ko'zdan kechirardi.

«Sen, Abdullaxon, bundan so'ng podshohimiz oldidi-gagi gunohlarining yuvib, bizning ulug'hukmdorimiz-ga elchi bilan yorliq yuborganingda, uning podsholik unvonini mukammal yozishni odamlaringga buyurl!»

Buni o'qib, Abdullaxonning zardasi qaynab ket-di: «...Gunohlarining yuvib...» emish. Hm... Maskop podshohi menga tanbeh bermoqchi bo'ladi, men-

<sup>1</sup> 1557-yil.

---

---

ga o'rgatmoqchi bo'ladi, – deb o'yladi xon tishlarini g'ichirlatib. – Meni ham o'z podshosi yanglig' ovsar deb o'laydi, shekilli, bachchag'ar!»

«Bundan so'nggi tilagim shu: xudo marhamati bilan ulug' Rus podshohiga Moskva, Kiyev, Novgorod, Tver, Qozon va Astraxan hukmdori bo'lgan shohimizga bosh urib iltimos qilurmanki, u bilan sen, Abdulla, yaxshi aloqa bog'lab turinglar».

Bu satrlarni o'qib, xon yorliqni uloqtirib yubordi: «Qozon va Astraxan podshohi ermish! Ha, bachchag'ar! Tagi past Boris mendek ulug' xoqonga nasihat qilishga jur'at etibdi! O'zini katta olib, mening yelkamni qoqib, yaxshi bola bo'l, bizning podsho bilan yoqalashma, oshna bo'l, demoqchi bo'ladi-ya! Buning ustiga, Maskop vakilining mening huzurimda beadablik qilganini aytmaysizmi?»

Abdullaxon yumaloq zarb of bolishga o'ng tirsagini qo'ygancha, xayol surib ketdi. Tutun singari achchiq o'y va fikrlar uning butun vujudini zaharlagan edi. Yostiq tagidan Kuchumxonning yuborgan yorlig'ini olib, yana bir karra o'qib, izzat-nafsi bir oz taskin topganday bo'ldi. Bu yorliq xushomadgo'ylik bilan yozilgan, unda Kuchumxon o'zining Abdullaxonga qarindosh ekanini eslatgan va yordam so'ragan edi.

«Tavakkal qilib, Kuchumga yordam uchun askar yuborsammikan? U vaqtda Boris qozoq sultonı Tavakkalni bizga qarshi qayrab solishi mumkin. Tavakkalxon belga tepishi turgan gap, – deb o'yladi u. Ko'ngli hali muvozanatga kelmagan taroziga o'xshab, qaysi tomonga og'ishni bilmay turardi. – Moskva bilan do'st bo'lib, u bilan bo'ladijan savdo-sotiqni kuchaytirsak, men ham, savdogarlar ham katta foya da ko'raman. Moskva bozorlarida mollari chaqqon bo'lgan hunarmandlarning ham ishi kushoyish topadi. Agar Moskva bilan aloqani uzib, tavakkal qilib, Kuchumxonga yordam yuborilsa, Tavakkalxon po-

chamizdan oladi. Kazak o'rislarga qarshi urush qilish juda mahol, lekin Sibirdagi bir hovuch ruslar tor-mor qilinsa, askarboshilarining qo'yin-qo'nji to'lib keladi, xazina boyiydi».

Xonning boshi qotib, kalavaning uchini topolmay qoldi. U qars urib, eshik og'asini chaqirdi. Ikki bukchayib kirgan eshik og'asiga o'shqirib:

- Yasovulboshi shu yerdami? – deb so'radi.
- Ha, taqsir, shu yerdalar, o'z bargohlarida Xojai Kalon janoblari birla suhbatlashib o'tiribdilar.
- Chorla ikkovini!

Oradan ko'p o'tmay xonning hujrasiga yoshi yetmislarga borib qolgan bo'lsa-da, chertsa ikki betidan qon tomadigan Xojai Kalon eshon tasbeh o'girgan holda kirib keldi. Tirsagini lo'laga qo'yib, yonboshlab yotgan xon o'rnidan turib, ta'zim qildi-da, piriga joy ko'rsatib, o'z o'rniga o'tirdi. Eshonning orqasidan kirgan ot yuzli, katta burni qiyshiq yasovulboshi qilich-qinini avaylab ushlagancha kavush yechadigan joyda cho'qqaydi. Hammalari yuzlariga fotiha tortganlaridan so'ng:

– Bugun suhbatingizga musharraf bo'lib, maslahatlariningidan bahramand bo'lmoqni istagan edim, – dedi xon tavoze bilan. – Sihat-salomat yuribdurlarmu?

– Alhamdulillo, – deb javob qildi eshon qiroat bilan, – soyai davlatingizda sihat-salomat yuribdurmiz, sizdan minnatdor bo'lgan butun fuqaro duoyi joningizni qilib yotadurlar. Biz xizmatingizga tayyormiz.

Xon miyasini g'ovlatgan fikrlarini o'rtaga tashlab, ulardan maslahat so'radi.

Urushga to'yungan yasovulboshi Kuchumxon tarafdori bo'lgan, o'ja payida yurgan tavakkalchi sarkardalar guruhidan edi. Keyingi vaqtlargacha bu guruhga husni tavajjuhi bo'lmagan xon endi birdan uning tarafdori bo'lib qolganini tushungan yasovulboshi Kuchumxonga yordam berishni maslahat ko'rdi.

Xojai Kalon ham uning gapini ma'qullab:

– Oriy, rost aytadurlar, yasovulboshi janoblari, – dedi viqor bilan. – Kuchumxondek bir sultonimus limin yordam ilkini uzat, deb iltijo qilgan ekan, rad qilib bo'lmas. Kuchumxon majusiylarni islom dini ga da'vat etsa, askarlar birla mullalarni yuborgusimizdir, zeroki», – kunda oz-ozdan iste'mol qiladigan eshonning yo'tali tutib, gapi og'zida qoldi.

Yasovulboshi ta'zim qilib:

– Kaminani kechirsinlar, – deb qo'ynidan bir qog'oz chiqardi va bosh egib, uni xonga uzatdi. – Vakilimiz Hoji Baxshilloning arznomasi. Qabul chog'ida siz a'llo hazratning huzurlarida beadablik qilgan Ibon yo'lda elchilarimizga sitam va bedodlik qilbdur, yo'lda Hojining yesirini tortib olibdur...

Xon uning gapiga qulq solmay, mutavallining arznomasini o'qishga kirishdi. O'z huzurida beadablik qilgan Ivanga nisbatan g'azabi borgan sari ortib, undan o'ch olish hissi alangalandi.

– Hay, bachchag'ar, – deb so'kindi xon. – Bizning vakilimizni shunchalik behurmat qilgan ajnabiyni biz jazosiz qoldirsak yaxshimi?

– Yaxshi emas! – do'rillardi yasovulboshi.

– Jinoyatni jazosiz qoldirmoq joiz ermas! – ming'irladi eshon.

– Borisning malayiga o'zimizni ko'rsatib qo'yishimiz kerak, – dedi xon g'azab bilan. – Vakilimizni haqorat, huzurimda bizga beadablik qilg'on o'shal Ibon darhol zindonga solinib, zanjirband qilinsin!

Yasovulboshi o'z qulqlariga ishonmay, ikkilanib:

– Hazrat, bu odatga xilof... Elchilar daxlsiz-ku, – deb xirilladi.

Xon darg'azab bo'lib:

– O'chir tovushingni! – deb baqirdi. – Menga o'git beradigan senmiding hali! Farmonimni darhol bajo keltir!

---

– Bosh ustiga, a’lo hazrat!  
Yasovulboshi sapchib o’rnidan turib, qilich-qinini  
ushlaganicha, orqasi bilan yurib chiqib ketdi.

\* \* \*

Qo’l-oyog’i zanjirband bo’lgan Ivan Bochkov ikki kundan beri og’ziga tuz olmay gumbaz taxlit qilib solingan zindonda o’tirar, chorburchak g’ishtlar nam tortib, devorlardan rutubat hidi anqib turar, yer ostidan ingragan bir ovoz eshitilardi.

Yuzining qizili ketib, qovoqlari shishinqiragan Ivan Bochkov poxol ustida qimir etmay o’tirgancha, xayol daryosiga botar: Moskvadagi uyi, onasi ko’z oldida gavdalananar, yoshlik chog’lari esiga tushib, yuragi mumdek erib ketardi. Uning zindonga tushib qolishi bema’ni, tasodify narsaga o’xshar, hozir birov eshikni ochib, uni ko’chaga chiqarib yuboradiganday tuyular-di. Biroq oradan ikki kun o’tgach, tarvuzi qo’ltig’idan tushib, yuragini noumidlik iloni kemira boshladi.

«O’z maqsadiga erishish uchun daryo-daryo qon oqizishdan toymagan, asirlarning kallalaridan minoralar yasatgan bu yovvoyi xondan har narsa kutsa bo’ladi, – deb o’yladi Bochkov. – Mayli, u jallod meni Registonda tiz cho’ktirib, qo’limni orqamga bog’latib, qo’ydek so’ydirsin, o’limdan qo’rqmayman, o’z jonimga achinmayman, faqat kimsasiz qoladigan onam bilan dushman qo’lida azob chekayotgan Zahroga achinaman».

Zahroni esga olish bilan riyokor Hojining xunuk basharasi, cho’qqi soqoli ko’ziga ko’rinib ketdi: «Ha, kazzob, – deb so’kinib qo’ydi u. – Odam qiyofasidagi bo’ri! Bo’ri bo’lmasa, shunday nozaninga qo’l ko’taradimi?..» Qani endi shu topda u xiyonatkor oldida paydo bo’lib qolsa-yu, zanjirband og’ir qo’li bilan boshiga bir urib, miyasining qatig’ini chiqarsa!

---

---

Eshik orqasidan bir narsaning shiqirlagani eshitildi. Ivan sergaklanib, eshik tomon qarab qoldi. Katta burama qulfni olib, belbog'iga bir talay kalit osib olgan zindon qorovuli ichkari kirdi, uning orqasida oybolta ushlagan bir sarboz turardi.

Qosh-qovog'idan qor yog'ib turgan qorovul:

– Tur o'rningdan, – deb baqirdi. – Yur biz bilan!

«Meni qayerga olib borar ekan bu vahshiyalar? – dedi ichida Ivan kishanlarini shaqirlatib tashqariga chiqarkan. – Yo aziz avliyolar, qo'llang, madad qiling, yurtimga eson-omon yetib olsam, sizlarning muborak arvochlaringiz uchun bir pudlik sham yoqaman, madad bering!»

Soch-soqollari o'sib ketgan, juldurvoqi mahbuslarni sarbozlar haydab, Registonga olib keldilar. Bazaar kuni bo'lgani uchun maydon odam bilan gavjum, olag'ovur edi. Mahbuslar serqatnov yo'lning bir chekkasiga ro'molchalarini oldilariga yoyib cho'qqaydilar.

Ivan boshda bu hodisaning ma'nosini tushunmay, ancha vaqtgacha hayron qolib o'tirdi. O'tkinchilarning ba'zilari mahbuslarga chaqa pul tashlab yoki non qo'yib keta boshlaganlaridan keyin buning ma'nosini tushunib oldi: «E, bu sho'rliklar xalqning xayr-sadaqasi bilan kun ko'rар ekanlar-da», deb o'yldi u.

Oradan ko'p o'tmay, bir ayol paranjisining orasidan qoqshol qo'lini chiqarib, Ivanning tizzasiga bitta non qo'ydi-da:

– Bu bechora uzoqdan kelgan musofirga o'xshaydi. Sho'rlikning onasi bordir, xotini, bola-chaqasi bordir. E xudo, bandalaringga o'zing rahm ayla... – deb javray boshladi.

– Tezroq o't, kampir, – deb o'shqirdi bir sarboz yelkasidagi yaltiroq oyboltani qimirlatib qo'yib.

– Ko'p baqiraverma, sendan qo'rqaqidigan odam yo'q, – deb o'dag'ayladi kampir mahbuslar oldidan ketarkan.

Tushgacha Ivanga yana ikkita non va bir miri sadaqa tushdi.

## IX

Abdullaxon har kuni ertalabki ziyoftadan so'ng o'z vazirlarini qabul qilib, ularning ma'ruzalarini tinglardi. Boshlab Ko'kaldoshni qabul qildi. Xonning eng ishonchli odami bo'lgan bu a'yon qartayib qolgan, uning ustidagi yiltiroq zardo'zi choponi bukchaygan gavdasiga sira o'tirishmas, u xuddi bog'dagi qo'riqchiga o'xshab qolgandi.

– A'lo hazrat, – dedi u zarbof to'shak ustida chordana qurib o'tirgan xonning yoniga cho'kka tushib.  
– Noxush bir xabar keltirganim uchun afv so'raydurmen.

– Qanday xabar? – dedi xon sabrsizlanib.  
– Kecha Xoja Bahovaddin qishlog'ida bo'lgan hunarmandlar sayliga xufiyalar yuborgan erdim, – dedi Ko'kaldosh tovushini pasaytirib, go'yo uning gapini birov eshitib qoladigandek. – Shoyi va adresboflar kecha Bahovaddin qishlog'iga chiqibdurlar...

Xon aftini burushtirib, burnini jiyirib qo'ydi. Hunarmandlarning sayilga chiqib turishlari oddiy hodisa bo'lib, bundan davlat uchun hech qanday xavfxatar yo'q edi.

– Og'zi katta kosiblardan biri, Xoja Navro'z degani Maskop vakilining qamalishidan afsuslanib, yasovulboshi haqida haqoratomuz so'zlar aytib, hamkasblari orasiga g'ulg'ula solibdur...

Xon Ko'kaldoshning hikoyasiga diqqat bilan qulq sola boshladi.

Juma kuni shoyiboflar Bahovaddin qishlog'iga guli surx<sup>1</sup> sayliga chiqqan edilar. Daxma orqasidagi katta daraxtzorda har qaysi kasb-hunar egalarining o'z

<sup>1</sup> Guli surx – Navro'z bayramida ko'klam payti buxoroliklar Bahovaddin mozorida o'z sayllarini o'tkazishgan.

---

---

supasi, o‘z o‘chog‘i, qozon-tovog‘i bo‘lardi. Qator-qator sadaqayrag‘ochlar yashnab, gullar ochilgan mahalda hunarmandlar to‘planib, shu yerga chiqardilar. Bunday paytlarda bu yer juda gavjum bo‘lar, bog‘ning har tarafidan xushchaqchaq ovozlar eshitilardi.

O‘zlarining eng yaxshi liboslarini kiygan sallali shoyiboflar uzun dasturxonga dasta-dasta qilib qo‘yilgan nonlarni ushatib, piyolalardagi shinnilarga botirib yeb o‘tirar, bo‘z chopon kiygan ko‘k sallali xalfalardan to‘rtta-beshtasi yelib-yugurib, ularning xizmatini qilar, o‘choqqa olov qalab, ovqat pishirar edilar.

Ilgari shoyiboflar guli surx sayliga chiqqanlari-da ayri-ayri guruhlarga bo‘linib ketar, har kim o‘z jo‘ralari bilan o‘tirar, chaqchaqlashardi. Bu safar hamma xomush, go‘yo azaga kelgan kishilardek u yoq-bu yoqdan sekin gaplashishar, ammo miyalari faqat bir narsa bilan – bozorning kasodligi to‘g‘risida-gi fikr bilan band edi.

Abdullahxon Kuchumga yordam berish niyatiga tushgandan keyin katta savdogarlar Rossiyaga keta-digan shoyikimxbobi xarid qilmay qo‘ydilar. Sibir bo-zorlarida chaqqon bo‘lgan ip gazlama, bo‘zning narxi oshdi. Adrasbof-shoyiboflar tashvishga tushib qoldi.

To‘rda atlas ko‘rpacha ustida baland bo‘yli, qop-qo-ra soqoli ko‘kragiga tushgan baquvvat chol – shoyiboflar oqsoqoli Bobo Haydar viqor bilan o‘tirar, yoni-dagi ushoqqina oppoq soqol kishidan risoladagi ba‘zi duolarning mafhumini so‘rar, u esa ming‘illab javob qilardi. O‘z dardlari boshlaridan oshib yotgan kosib-lar esnashdan o‘zlarini zo‘rg‘a tiyib, cholning ming marta chaynalgan gapini tinglardilar. Hartugul, ora-dan ko‘p o‘tmay, bellarini tang‘ib xizmat qilayotgan xalfalar sopol tovoqlarda osh torta boshladilar. Osh kelgandan keyin chol gapdan to‘xtadi:

– Avval taom, ba’daz kalom, – dedi u yengini shi-marar ekan, – qani, oshga qarasinlar.

Hamma indamay ovqatni tushira ketdi, ora-sira bitta-yarimta gap eshitilib qolardi. Ovqat yeyilib, fotiha o'qilgandan keyni kosa-kosa sharbat ichildi.

Pastroqda o'tirgan kallasi xumday sersoqol, ko'zlarichaqchaygan Xoja Navro'z gap boshlab:

– Taqsir, kasb-korimizning kushoyishi uchun ham bir fotiha o'qing, – dedi.

Uzun duodan so'ng hamma yuzini, soqol-mo'ylovi ni silagach, Xoja Navro'z tagdor qilib gapirdi:

– Bozorimiz kasod, ishlarimiz yurishmay qoldi, hukumatdorlar beparvo...

– Hammasi o'z fe'l-xo'yimizdan, – dedi chol.

– Rost, hammasi o'zimizdan. O'zimiz temsila-tebramas, o'lgudek g'ayratsiz odamlarmiz. – Xoja Navro'z borgan sari qizishib gapirardi. – O'zimiz harakat qilmog'imiz kerak, ota-bobolar: «Harakatda barakat», deganlar. Bola yig'lamasa, ona sut beradimi?

– Nima qil deysiz axir? – dedi oqsoqol bezovtalanib. Hamma jim bo'lib, gapga qulq sola boshladi.

– Yasovulboshi oq podshoning choparini zindonga tiqib qo'ydi. Maskop ketaman, deb shaylanib turgan savdogarlarning yo'lini to'sdi, hamma kasofat shunda. Ulug'larimiz xon oldiga borib, ostonalariga bosh urib, bozor yo'llarini ochib qo'yishini iltimos qilsalar bo'lmaydimi? Biz nega indamay turamiz? Nega?..

– Bas qiling, Xoja Navro'z, og'zim bor, deb har narsani gapiraverasizmi? Maskop vakili bilan nima ishingiz bor?

– Qachongacha tilimizni tiyamiz? Qadimgi Buxoro kosiblari qo'liga yarog' olib, haqlarini talab qilar ekanlar. Hayf bizlarga! O'sha mard ota-bobolarga isnod keltiropmiz. Hech bo'lmasa ko'chmanchi qipchoqlardan ibrat olsak bo'lmaydimi? Orol qipchoqlari qo'llariga yarog' olib, To'qberdi mang'itni haydab yuboribdilar, o'zlariga o'zlarini xon, o'zlarini bek bo'libdilar.

---

---

– Qo'ying munaqa gaplarni! Boshingizga balo bo'la-d! Undan ko'ra, chaqchaqlashib o'tirsak bo'lmay-dimi? Keling, vaqtichog'lik qilaylik.

– Bozorimiz kasod bo'lgandan keyin ko'ngilga vaqtichog'lik sig'adimi? – dedi chol ming'irlab.

– Xoja Navro'z gapning ochig'ini aytdi-qo'ydi, ko'nglimizdagini gapirdi, – dedi bir kosib. Hamma hayajonga kelib, uning gapini ma'qullay boshladi, g'ovur-g'uvur ko'tarildi.

– Bas qiling! – deb baqirdi Bobo Haydar jahl bilan.

Boboning obro'si shu qadar zo'r ediki, uning shu gapi qaynab turgan bir qozon suvga quyilgan bir piyola sovuq suvdek ta'sir etdi. Hamma birdan jimb qoldi.

– Mojaroni tinchlik yo'li bilan bartaraf qilsa bo'ladi, – dedi u baqrayib qarab turgan hamkasblariga ko'z yugurtirib. – Bu ishni bizga qo'yib bering. Biz boshqa hunarmandlar oqsoqollari bilan gaplashib olaylik. Agar ular gapimizga ko'nsalar, har bir kasb egalaridan bittadan vakil saylab, xon oldiga yuboramiz. Ular zoti oliyga arz-dodimizni yetkazsinlar.

– To'g'ri, to'g'ri!

– Shunday bo'lsin.

Hamma oqsoqolning gapini bir og'izdan ma'qulla-di. Shundan keyin kosiblarning ko'ngli taskin topib, chiroylari ochildi...

Xon Ko'kaldoshning ana shu voqea haqidagi hikoyasini eshitib, xo'rsinib qo'ydi.

– Hunarmandlarning og'ziga burov solib qo'ymak kerak ekan, – dedi u ko'zini chaqchaytirib.

Ko'kaldosh xonning so'zini o'zicha tushunib:

– Nima, o'sha Xoja Navro'z bilan bir-ikkitasini zindonga qamatib qo'yaymi? – deb so'radi.

Xon chuqur o'nya toldi. Yakkam-dukkam soqolini qashlab turib:

— Yo‘q, — dedi bir ozdan keyin, — bu bilan biz uyqunda yotgan ilonning boshini qo‘zg‘atib qo‘yamiz. Yaxshisi, bilmaslikka solib ketaberish kerak.

Oradan uch-to‘rt kun o‘tgach, Karmanadagi lashkargohda bundan ham dahshatli bir voqeа yuz berdi. Bu yerda turgan cheriklar Toshkentga jo‘nash to‘g‘risida farmon olgan edilar. Odatda, safarga chiqishdan oldin yasovulboshi askarlarini ko‘rikdan o‘tkazib, ularning qurol-aslahalari va kiyim-boshlari ni ko‘zdan kechirar edi.

Yasov tortish mahalida nayman urug‘i bilan mang‘itlar o‘rtasida nizo chiqib qoldi. Mang‘itlar mo‘tabar o‘rin hisoblangan so‘l qanotda turishni istadilar. Biroq Ota nayman bunga yo‘l qo‘yishni istamadi.

— Bizning ota-bobolar juangarda<sup>1</sup> turgan, siz mang‘itlar doim burongarda<sup>2</sup> turar edingiz, — dedi u qat‘iy qilib.

— Nima, biz so‘l qanotda turishga loyiq emasizmi? — deb o‘dag‘ayladi Xalil mang‘it. Qorako‘l tel-pak ostidan uning chaqir ko‘zlari o‘t sochardi. Egniga a‘lo movutdan kamzul, oyog‘iga unuka etik kiygan bu barvasta odam xuddi kurash maydoniga qadam bosgan pahlavondek ko‘krak kerib, kumush soplilichning dastasidan ushlab turardi.

— Xuroson urushida Sabzavorga birinchi bostirib kirgan kim? Biz — mang‘itlar! Mashhad qal‘asini qamab, uni bosib olgan kim? Biz — mang‘itlar! Juangarda turish bizga munosib.

Ikki mingboshi so‘kishib qolib, qilichlarini qindan chiqarishdi. Agar yasovulboshi o‘rtaga tushib, qilich bilan ularni ajratib qo‘ymaganda, qon to‘kilishi turgan gap edi.

<sup>1</sup> Juangar — qo‘shtinning so‘l qanoti.

<sup>2</sup> Burongar — qo‘shtinning o‘ng qanoti.

---

---

Janjal bartaraf bo'lgach, yasovulboshi saras-karlarni koyiy boshladi:

– Cheriklarning oyog'i but emas, ba'zilar etik o'rni-ga choriq kiygan. Shu alfovda Sivirga bormoqchimi-sizlar hali! Balli-ye!

– Bormaymiz Sivirga! Istanasang o'zing bor! – degan nidolar eshitildi cheriklar orasidan.

– Kim u bormaymiz degan? Mard bo'lsa, oldinga chiqsin.

Naymanlar va mang'itlar qovoqlarini solib, qo'llari-dagi nayzalarini mahkam ushlaganlaricha indamay turardilar.

Yasovulboshi ularni so'kib, qo'riqni bir haftaga kechiktirganini bildirdi va o'zi Buxoroga ot choptirib ketdi.

Abdullaxon bu ko'ngilsiz voqeani eshitib, boshini changallab qoldi. Saf tizishda mingboshilar orasida chiqqan bu nizo umumiylorozilikning bir ko'rinishi ekani unga ayon edi. U o'z hujrasiga kirib, yuz bergen voqealarning mag'zini chaqmoqchi va undan o'zicha bir xulosa chiqarib olmoqchi bo'ldi, yumaloq kimxob lo'laga o'ng tirsagini qo'yib, oyog'ini cho'zdi-da, chap qo'li bilan top-toza qilib qirtishlangan boshini qashib o'yga toldi. Bosh qotirgan sari o'ylari mushuk yumalatib o'ynab yurgan bir koptok ipday chuvalardi. Dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar tinchlikni, turli mamlakatlar bilan savdo-sotiqni kuchayti-rishni istardilar, o'ljatalab sardorlar esa – urushni. Tarozining qaysi pallasiga o'z qaror toshini tashlasa ekan? «Ko'zim ochiqligida ahvol shu bo'lsa, o'limim-dan keyin nima bo'ladi? – deb o'ylar edi u. – Mendan so'ng o'g'lim Abdumo'min bu ulug' davlatni o'z qo'lida asrab tura olarmikan? Xudo biladi! U o'z dushman-larini ustalik bilan bartaraf qilishni, viloyat ustida siyosat toshini yumalatib, xalqni dahshatga solishni biladi. Yoshligida, mening yonimdaligida raqiblarim-

ni qanday qirib tashlaganimni ko'rgan va shu ruhda tarbiyat topgan, ammo obodonchilik bobida qilgan ishlarimni, ahli din va hunar ahli, savdogarlarga qilgan yaxshiligimni ko'rmasdi, zulmimni ko'rdi-yu, adlimni ko'rmasdi».

U Balxda hokim bo'lib turgan zolim va kaltafahm o'g'li to'g'risida o'ylarkan, yuragi siqilib, zardasi qaynab ketdi. Xunobgarchilikdan qutulish uchun sharob-dorini chaqirib, bir kosa sharob keltirishni buyurdi.

## X

Ustidagi zar choponi og'irlik qilgandek, Qulbo-bo bukchayib, hassasiga tayangan holda zinadan chiqib, yasovulboshining devonxonasisiga kirdi. O'rnidan turib qarshilagan a'yонига:

– Sizga... aytaturgan muhim... gap bor, – dedi u harsillab. – Bundan bir oy muqaddam... Tavakkalxon qoshiga Maskopdan elchi kelib to'xtabdur... qimmat-baho tortiqlar keltiribdur. – U nafasini rostlab olib, qaltiragan qo'li bilan qo'ynidan naycha qilib o'ralgan qog'oz chiqardi-da, yasovulboshiga uzatdi. Yasovulboshi ko'zlarini katta ochib, nomani qiyshayib qolgan sumakdek burni tagiga keltirdi. Qulbobo Ko'kaldoshning maxfiy darakchisi yuborgan ma'lumotnomani o'qir ekan, uning qip-qizil cho'zinchoq yuzi yana cho'zilib ketdi.

– Bu xabarni darhol zoti oliyga eshittirmoq zarur, – dedi do'rillab.

– Bugun ermas. Zoti oliy hujralarida orom olmoqdalar. Nazarimda, kayflari joyida yo'q.

– Andoq bo'lsa, tong-la o'zingiz eshittirgaysiz.

– Yo'q, bul ishni siz o'z zimmangizga oling, zero, men bir noxush xabar keltirib, kayflarini buzdim.

Ikki a'yon xonning zardasini qaynatadigan bu xabarni unga eshittirishni va shu bilan uning ko'zi-

---

---

ga shumshuk ko'rinishni istamasdi. Ko'pni ko'rgan hiylakor Qulbobo Ko'kaldosh harbiy ishni yaxshi bilgan, lekin siyosat va rayosat ishidan bexabar bo'lgan yasovulboshini avrab, uni o'z gapiga ko'ndirdi.

— Agar onhzarat nazarida e'tiborim zo'r bo'sin desangiz, bul nomani o'z ilkingiz birla topishtiring. Boshda zoti oliv bir oz xafa bo'salar dog'i, keyin sizdan behad xursand bo'lurlar. Bul ma'lumotni o'z darakchilarim orqali oldim, deb ayting...

Qulboboning keyingi gapi yasovulboshiga manzur bo'lgani uchun shilq etib tusha qoldi.

Darvoqe, qozoq sultonı Tavakkalxon huzuri-ga Moskva elchisi Velyamin Stepanov qimmatbaho tortiqlar bilan kelgan edi. Bu vaqtida Tavakkalxon aracha daraxtlari bilan qoplangan Olatov etagidagi yaylovga o'z o'tovini qurgan, biylar, botirlarning o'tovlari uning o'rtadagi oq o'tovini gavhar atrofini o'ragan inju donalaridek qurshab olgan edi.

Elchi Velyamin qarchig'aychilar, bakovul, yasovullar qurshovida dabdaba bilan xon qarorgohiga yetib keldi, keng yag'rinli norg'ul Ismoil botir yugurib borib, otining jilovidan ushladi.

Qo'ng'ir soqolli, moviy ko'zli, yoshi anchaga borib qolgan bo'lsa-da, yosh yigitga o'xshagan xushchaq-chaq Velyamin Stepanov epchillik bilan o'ng oyog'ini egardan oshirib, yerga tushayotganda, Ismoil botir bir qo'l bilan kumush uzangisidan ushlab turdi.

Sutemgenbiy va Qulmamat elchi Velyamin bilan ko'rishib, ular hamrohligida xonning o'toviga yo'l olishdi. Oq o'tovning lang ochiq o'ymakor eshigi yoni-da ikki botir soqchilik qilib turardi.

Yashil ipakdan to'n kiygan, qiyiq ko'zli, yuzi kephchikdek xon to'rtburchak kimxob to'shak ustida imom Bo'riboy Hoji bilan suhbatlashib o'tirardi. Velyamni ostona hatlab ichkariga kirkach, xon o'rnidan turdi-da, u bilan qo'l berib ko'rishdi va o'tirish uchun

yonidan joy ko'rsatdi. So'l tomonda Sutemgenbiy bilan Ismoil botir (u elchining hamrohlarini boshqa o'tovlarga joylashtirib bo'lgandan keyin kirgan edi), o'ng tomonda imom bilan Qulmamat elchi o'tirdi.

Xon Velyamin bilan hol-ahvol so'rashgandan so'ng Moskva podshohi Boris Godunovning sog'ligini so'radi.

– Xudoga shukr, eson-omon yuribdilar. Sizga Boris Godunov janoblarining yorlig'ini va sovg'alarini keltirdim, – dedi elchi ruschalab. Elchi Qulmamat unga tarjimonlik qilib turdi.

Tavakkalxon pishillab yorliqni qo'lga oldi-da:

– Afsuski, savodim yo'q-da, shunday ulug' zotning yorlig'ini o'zim o'qish baxt-saodatidan mahrumman. Mayli, keyin o'qitib, javobini yozarmiz, – dedi. – Xo'sh, menga ne sovg'alar keltirding?

Moskva hukmdori qozoq sultoni Tavakkalxonga keyingi vaqtida Sharq mamlakatlariga chiqarilishi man qilingan sovut-qalqon, qurol-yarog', suvsar terilar, qar-chig'ay-lochinlar yuborgan edi. Tortiqlar ichida qimmatbaho movutlar, bir bochka sharob-nob va boshqa narsalar ham bor edi. Yosh xonga lochinlar bilan mayda po'lat halqalardan to'qilgan yaltiroq sovutlar, sovut ustidan kiyiladigan kalta yengli qizil atlas kurtkalar manzur bo'ldi. Uning qiyiq ko'zlari chaqnab, go'shtdor yuzi yorishib ketdi. Boshidagi uchli taqyasiga kichkinagina salsa o'ragan cho'qqisoqol imom Bo'riboy Hoji makkor ko'zlarini qisib, po'lat sovutlar bilan boshqacha noxushlik bilan qarab qo'ydi.

Oradan bir necha vaqt o'tgach, xon o'z ro'parasida o'tirgan Ismoil botirga bilinar-bilinmas ko'z qisib qo'ydi. Bu vaqtida imom o'ng tomonida o'tirgan Sutemgenbiyga aftini burishtirib, bir narsa deyayotgan edi. Ismoil botir o'rnidan turib, tashqariga chiqdi-da, besh-olti daqiqa dan so'ng bir bahona bilan imomni chaqirib olib chiqib ketdi. O'tovda xonning yaqinlaridan Sutemgenbiy bilan Qulmamat elchi qoldi.

---

---

– Men mulla Bo'riboyga ishonmayman, aftidan, u Abdullaxonning ayg'oqchisiga o'xshaydi. Bu yerdagi gaplarni Buxoro xoniga yetkazib turadi! – dedi xon Qulmamat elchiga yuzlanib.

Bakovul dasturxon yozib, tovoqlarda beshbarmoq keltirdi, ayoqchi kumush qadahlarga sharob quyib, o'tirganlarni siyladi. O'tov ustidagi namatning chetlari ko'tarib qo'yilgan, salqin o'tovga shamol tizza bo'yi keladigan xushbo'y o'tlarning hidini keltirar, uzoqdan otlarning pishqirgani eshitilardi.

Bir-ikki qadahdan sharob ichib olgandan keyin elchi Velyamin o'zini mastlikka solib:

– Sen har qancha yordam so'rasang, biz yo'q demaymiz, – dedi xonga ko'zlarini suzib. – Boris Fyodorovich sening botirliging, mehmondo'stligingni har vaqt maqtaydi. Ta'rifingni orqavoratdan eshitganda... Biz bilamiz, Buxoro xonining taaddisi joningga tekkan, sen uning panjasidan qutulib, o'z boshingga mustaqil bo'lib olishni istaysan. Bu bobdagi har bir harakatingni biz qo'llab-quvvatlaymiz.

– Rahmat, og'o. Otam Shig'ay Abdullaxonning xizmatini qilib, undan yaxshilik ko'rmadi. Buxoro xoni boshiga ish tushganda, otam bilan meni yordamga chaqirardi. U Xorazmni bizning ko'magimiz bilan olgan.

– Mana, endi kimligingni ko'rsatishning vaqt soat yetdi. Olgan ma'lumotlarimizga ko'ra, Abdullaxon Kuchumxonga yordam uchun askar yubormoqchi. Fursatdan foydalanib, Toshkentni zabit et. Qo'rqlama, orqangda biz bor, Abdullaxon bilan bellashib ko'r.

Shu payt o'tov yaqinidagi bir ot qattiq kishnab yubordi.

Abdullaxon bilan bo'ladigan to'qnashish manzarasini ko'z oldiga keltirishi bilan Tavakkalxonning mastligi tarqalib ketdi. Xo'p ichib olib, bir so'yil bilan ayiq, oviga chiqqan ovchi uzoqdan lapanglab ketayot-

gan ayiqpolvonni ko'rishi bilan hushiga kelib, so'yilni tashlab qochganday, Abdullaxonning nomini eshitib, yosh xon birdan hovridan tushdi.

– Abdullaxon bilan urushish hazilakam ish emas. U qirq yillik tajribaga ega, jang ko'rgan sarkardalari ko'p.

Velyamin uning avzoyiga qarab, kulimsiradi-da:

– Biz ishonamizki, Abdulla seni ko'makka chaqirsa, sen taklifini rad etasan, biz sening bu ishga aralashmay, xolis qolishingni istar edik. Ko'zingni och, Tavakkalxon! Agar sen bilan bizni Abdulla xuddi qo'chqorlardek urishtirib qo'ysa, kimning boshi yorilib halok bo'lishi avvaldan ma'lum.

– Yo'q, endi u avvalgidek shoximga moy surib, meni urushga sololmaydi. Abdullaxonga xizmat qiladigan ahmoq yo'q endi. Orqamda sizdek og'alarim turganda, men Buxoro xonidan nega qo'rqay? Maskopning ulug' knyaziga borib ayt, meni o'z qanoti ostiga olsin.

– Ana endi esingni yig'ib olibsan. Shu so'zlarining eshitsa, Boris Fyodorovich og'zingdan o'pardi. Iltimosingni men ulug' podshoga, Rus hukmdoriga yetkazaman...

Tavakkalni Abdullaxon ta'siridan tortib olib, u bilan do'stlik munosabatini o'rnatish uchun yuborilgan elchi suyunib, terisiga sig'may ketdi, yelkasini bosib turgan og'ir yuk birdan tushib ketgandek bo'ldi...

Abdullaxon Bo'riboy Hoji yuborgan ma'lumotnomani o'qirkan, yuzi dokadek oqarib, quyi labini tishlab qoldi. Garchi ayg'oqchisi, Velyamin bilan Tavakkalxon nima to'g'risida gaplashganini bilolmay qoldim, deb yozgan bo'lsa-da, Abdullaxon ularning nimalar to'g'risida gaplashishlari mumkinligini bilardi: «Boris usta shaxmatchi singari asb yurish qilib, kisht, deyapti. Chekinish kerak. Hamma rejalarimni barbod qildi la'nati! Bu muammoni aql kaliti bilan ochib bo'ladi, qilich kuchi bilan emas», deb o'yladi u.

---

---

9

\* \* \*

Moskva vakilining zindonga solinishi mulla Shokirni tashvishga solib qo'yan edi. U boshda mehtarning oldiga borib, savdogarlar nomidan Ivanni qutqazishni iltimos qilmoqchi bo'ldi, chunki Rossiya bilan bo'ladi-gan savdo aloqalarining taqdiri shu masalaga bog'liq edi. Biroq o'yab-o'yab, bu fikridan voz kechdi.

«Men kimman-u, mehtar janoblari kim? Yer bilan osmon! U kishi bilan hisob-kitobni tugatganman, endi qaysi yurak bilan huzurlariga borib: «Moskva vakilini qutqaring», deb aytay? Zotan, bu mushkul masalani hal qilish uning qo'lida emas, xonning ix-tiyorida. Yaxshisi, Muhammadalibek qoshiga borib, maslahatini olay».

Elchi Muhammadalini yo'l chaqib qo'yan, bir necha kundan beri o'z mehmonxonasida dam olib yotardi. Safardoshi mulla Shokirni ko'rishi bilan yuzi yorishib, o'rnidan turib o'tirdi:

– Keling, mulla, sizni farishta olib kelipti, – dedi u xursand bo'lib. – Kelmasangiz, uyingizga odam yubormoqchi edim.

Salom-alikdan so'ng savdogar nima xizmat bilan kelganini bildirdi. Elchi ham shu muammo ustida bosh qotirib o'tirgan ekan. Moskva bilan aloqa uzilsa, buning oqibati nima bo'lishini gapira ketdi.

– Agar biz Moskoga yuzimizni teskari o'girib, aning dushmanlariga yordam bersak, o'ris podshohi ham qarab turmaydur, – dedi o'tirgan joyida oyoqlarini silab. – O'ris podshohi qozoq sultonni Tavakkalxonni qutquga solib, bizga qarshi oyoqlantiradur. Oqibati nima bo'lishi kundek ravshan. Biz Kuchumxon qo'li bilan Rusyaning orqasidan pichoq solmoqchi bo'lsak, Boris Tavakkalning qo'li bilan yelkamizga xanjar uradur.

– Rost aytadilar, taqsirim, rost, – dedi mulla Shokir ko‘zini chaqnatib, – bas, shundoq ekan, siyosat kemasini to‘g‘ri yo‘lga solmoq uchun ne qilmoq darkor?

– Boshlab xonning yaqin maslahatgo‘ylari bo‘lgan yasovulboshi bilan Xoja Kalonni qo‘lga olmoq kerak. Xonning so‘nggi qarori bu ikkala zotning bergan maslahati natijasi ekani barchaga ma‘lum. Men bu borada mehtar janoblari birla kengash qilib erdim. Ul kishi sizning vositangiz bilan ish ko‘rmoqni maslahat qildilar, – dedi Muhammadali tovushini pasaytirib, garchi yaqin orada hech kimsa bo‘lmasa ham. – Mening hisobimdan yuz tilla sarf qilsin, o‘z yonidan ham picha pul chiqarsin, kerakli odamlarning ko‘nglini ovlasin, dedilar. Men ham yaxshi niyat birla ellik tilla ajratib qo‘ydim...

Hushyor savdogar uchun elchining bir imosi kifoya qildi, unga gapni to‘qqiz puldek qilib tugib berishning hojati yo‘q edi.

\* \* \*

Oradan ikki kun o‘tmay mulla Shokir Xoja Kalon eshonning mehmonxonasida o‘tirar, turli-tuman meva-chevalardan tanovul qilib, «Moskop podshohi»ning boyligi va saxiyligini maqtardi.

– Ulug‘ podsho bu yerdan borgan kishilarning hech birini quruq qaytarmadilar va hatto sizga ham atab sovg‘a yubordilar, – dedi u kulimsirab.

– Menga? Qayerdan bilar ekan meni u kofir? – Xoja Kalonning yuzi cho‘zilib ketdi.

– Buxoro xonining maslahatgo‘yini tanimaydigan podsho olamda yo‘q, – deb lof urdi savdogar. – Siz hazrati oliylariga Maskop bir o‘ram suvsar teri birla mana bu isirg‘ani berib yubordi.

Savdogarning qo‘lida yonib turgan yoqut toshli oltin isirg‘a Xojaning ko‘zlarini o‘ynatdi. Isirg‘a-

---

---

ning yoshgina xotiniga juda munosib ekanini o'ylab, ko'ngli yashnab ketdi.

– Payg'ambari oxiri zamon ham g'ayridin podsholardin kelgan in'omlarni qaytarmay, bajonidil qabul qilur erdilar, – deb eshon isirg'aga qo'l cho'zdi, lekin shu on ko'nglidan, bu isirg'a Buxoro zargarlarining ishiga o'xshaydi-ya, degan fikr o'tdi.

Shundan keyin savdogar shoyi ro'molchaga o'rallgan qimmatbaho mo'ynalarni uning oldiga qo'ydi.

– Maskop podshohi rostdan ham saxovatpesha erkan! – dedi Xoja Kalon boshini g'oz ko'tarib. Uning qip-qizil beti yorishib, makkor ko'zлari chaqnadi.

Savdogar shu safar Moskvaga borganida, juda katta foyda ko'rganini so'zlab berarkan, mezbon uni maroq bilan tingladi.

– Bu yerda kasod bo'lib yotgan sariq shoyini Maskopda talashib oladilar, – dedi savdogar qora ko'zlarini o'ynatib, – bir diramga bir miri foyda qilish mumkin.

– Ibi! Rostdan-a? – deb so'radi eshon uning gapiga ishonqiramay.

– Agar siz besh-olti tuya yuk bilan bir gumashtangizni menga qo'shsangiz, Maskopga boshlab borur erdim.

– Sizdek mo'tabar bir odam maslahat bersa, yo'q deb bo'lmaydi, – dedi Xoja Kalon.

Abdullaxonning piri bo'lgan bu zotning yer-suvi, qul va qarollari behisob, shunga qaramay, u savdogarlarga sherik bo'lib, o'z boyligini orttirgani orttirgan edi.

Epchil savdogar pulga hirs qo'yan eshonni qo'lga olib, o'sha kuniyoq yasovulboshini ham tumshug'idan ilintirdi.

\* \* \*

Xon katta bir ishni boshlashdan burun beklar, nufuzli amaldorlar, ulamolardan iborat «arkoni dav-

latning maslahatini olar edi. U hatto xususiy masalalarni hal qilishda bir aql ojizlik qilishini bilardi. Shu sababdan Kuchumxonning ikkinchi marta yordam so'rab yozgan yorlig'ini muhokama qilish uchun katta maslahat majlisini chaqirdi.

Sochlari oqarib, qiyiq ko'zlar ichiga tushib ketgan Abdullaxon oltin taxt ustida o'tirib, ro'parasida davra qurban a'yonlariga qarab dedi:

– Sizlar davlat imoratining ustunlarisiz, men har bir qadamimni sizlarning maslahatingiz birla bosdim, xudoga shukr, kam bo'lmadim, zafar menga yor, azizlar madadkor bo'ldi. Xo'sh, endi siz yaxshilar, menga ne maslahat berursiz? – shuni deb, u so'l tomonidagi eng faxrli o'rinda o'tirgan yasovulboshiga qaradi.

Yasovulboshi Abdullaxonning siyosat va rayosat bobibagi mahorati to'g'risida xushomadgo'ylik bilan gapirib, bir yo'talib oldi-da, keyin o'z fikrini bayon qildi:

– Boshda men Kuchumxonga yordam yubormoq kerak, degan fikrda edim, biroq hozir bodi havo o'zgarib qoldi, zeroki, qo'shining birovlar uchun qon to'kishga tobi yo'q. So'nggi kunlarda ro'y bergen mojarolar qaror kemasini teskarisiga qarab haydashni taqozo etadur... Kuchumning omadi ketgan. Bizdek ulug' bir mamlakat o'z taqdirimizni omadi ketgan sulton bilan bog'lamasligimiz kerak. Anga yordam bermoq – daryoga hovuchlab tanga sochmoq bila barobardur...

Yasovulboshi Moskva bilan do'stlik shevasida gapirishga maslahat berib, Kuchumga rad javob yozishni ma'qul ko'rdi.

Yasovulboshidan keyin gapirgan Ko'kaldosh, mehtar ham uning gapini quvvatladilar. Xoja Kalon o'z fikriga diniy tus berib:

– Payg'ambari oxir zamon yigitlik chog'larida g'ayridin Qaysari rumning yurtiga borib tijorat qilur erdi-

---

---

lar, – dedi. – Oq podsho, garchi musulmon bo'lmasa ham, ahli kitoblardin, ya'ni Injilga iqrordir. Bas, ul podsho birla savdo-sotiqni qilmoq joizdur, illo...

– Shundoq taqsir, shundoq! – deb bosh silkib, uning gapini ma'qulladi «arkoni davlat».

Moskva vakilini zindonga tashlatib, besh oy qyinoq-qa solishgandan so'ng, xon ham hovridan tushgan, vakil beadabligiga yarasha jazosini tortdi, deb ko'ngli taskin topgan edi. Shu sababdan maslahatgo'ylar-ning gapi unga ma'qul tushdi. Yer tagida ilon qimir-lasa biladigan a'yonlari uning ko'nglidagi gapni topib gapirgan edilar.

– Hunarmand-kosiblar ham Moskva bilan do'st bo'lmog'imizni talab etmoqdalar, – dedi Abdullaxon xo'rsinib. – Tunov kuni alarning vakillari huzurimda bo'lgan edilar, men Ibonni zindondan ozod etib, Maskop elchisini yaxshilikcha kuzatib qo'ymoqqa va'da berdim. Mayli, alar o'ris bandilarni ham ozod qilib olib ketsin-lar. Bu haqda farmoni oliy hozirlang. – Mehtar xonning o'ziga qarab gapirganini payqab, indamay bosh egib qo'ydi. Kengash ahli xonning nutqini diqqat bilan ting-lab, uning har bir so'zini «donishmandlik dengizidan topilgan durru gavhar» deb topishdi.

\* \* \*

Ivan Bochkov zindonga solingandan keyin Boybur Taishev juda yomon ahvolga tushib qolgan edi. Ruslar turgan karvonsaroyning darvozasiga va tomiga soq-chilar qo'yilgan, ular maxsus ruxsatsiz hech kimni ko'chaga chiqarmas edilar. Besh oy ichida elchi bir necha martagina shahar aylanib keldi, lekin mehtar huzuriga uni kiritmadilar. Boyburning qip-qizil beti somondek sarg'ayib, ko'zları ich-ichiga tushib ketdi.

Ivan Bochkov zindondan qutulib kelganda, Boybur o'z inisini ko'rgandek, xursand bo'lib ketdi.

– Qalay, tan-jonning sog‘mi, kasal bo‘lib qolma-dingmi? – deb so‘radi u Ivanni quchoqlab. U besh oydan beri oftob betini ko‘rmay, oqarib ketgan Bochkovning yuziga, kerikib qolgan qovoqlariga qarab to‘ymasdi. Shu topda u oralarida o‘tgan nari-beri gaplarni unutib yuborgan edi.

– Ming qatla shukr, tanim sog‘, kayfim joyida. Xo‘sh, o‘zlarig qay ahvoldasizlar?

– Asti so‘rama, biz ham besh oy qamalda bo‘ldik, darvozadagi qurolli soqchilarni bugun olib ketdilar.

– Xayriyat! Xon bugun o‘ng yonboshi bilan turganga o‘xshaydi, lekin bir og‘iz gapim uchun rosa ada-bimni berdi-da.

– Nima, seni urganlari yo‘qmi? – deb so‘radi elchi tashvishlanib.

– Yo‘q, lekin oftob tushmaydigan joyda oylab yotish osonmi? Rostini aytsam, zindonlari bizning Kremlning Troitsk darvozasi ostidagi odam qamay-digan chohdan battar ekan.

– Xudo asrasin shunday joylardan, – deb pichir-ladi Boybur. – Hay, mayli, o‘tgan ishga salovat! Endi bundan buyongi ishlar to‘g‘risida o‘ylaylik. Ha, ayt-gandek, senga suyunchli xabar bor, – deya jilmayib Ivanning qulog‘iga shivirladi.

– Yo‘g-e! Rostdanmi? Juda qiziq ish bo‘pti-ku! – deb kulib yubordi Ivan. – Voy, mulla Shokir-ey! Bop-lapti-yu! Bunday yaxshilikni unutib bo‘ladimi? Lekin basurmanlar orasida ham yaxshi odamlar bor ekan.

– Bo‘lmasam-chi! Yaxshi odam hamma joyda ham bor. Hay, mayli, kel endi, sen bilan bir maslahatlashib olaylik. Xon yaqinda bir yorliq chiqaripi...

Ikkala vakil darvozaxonadagi so‘ri ustida o‘tirib, uzoq maslahatlashdilar.

Ivan Bochkov o‘z ishiga puxta edi. Rus bandilari ni ozod qilish to‘g‘risida farmoni oliy chiqqanini eshitib, g‘ayrat bilan ishga kirishdi. Buxoroda bo‘lgan

---

---

yirik quljalloblarning tomog'ini moylab, Buxoroda va uning atrofida qancha rus asiri borligini va ular kimlar qo'lida ekanini aniq bilib oldi. Bochkovning ro'yxatida o'ttizga yaqin bandining nomi yozilgandi. U qul egalarini ozgina pul bilan rozi qilib, rus asirlar ni ozod qilib olib kelaverdi.

Xonning farmonidan keyin Hoji Baxshillo ham o'z qo'lidagi ikki qulni o'n besh so'm badaliga bo'shatib yubordi.

Elchilar tushgan saroyga to'plangan yigirmatacha sobiq qullar terilariga sig'may shang'llashib gapiri-shar, bir-birlarining qaysi uezd, qaysi qishloqdan ekanliklarini surishtirardilar. Ularning ko'pi keksa bo'lmasa-da, sochlari oqargan, yuz va peshonalarini ajin bosgandi. Ba'zilari o'zbek nusxa chopon kiygan, lekin ko'plari, yirtilib ketgan bo'ssayam, o'z yurtlari ning liboslarini yuvib kiyib olgan edilar.

Mikifor bilan Alyonka saroyga kirgach, asirlar bir-dan ularni o'rab oldilar. Alyonkaning o'tkir ko'zları soqoli mosh-guruch barvasta bir odamga tushib, bir daqiqa qotib qoldi.

– Assalom, Ivan Andreevich, – dedi erini tanib.

Oq doka ko'ylyak kiygan, yuzi bir burda, novcha xottinni Ivashko darrov tanib:

– Alyonushka, – deb qichqirib yubordi va quchoqlashib ko'rishish uchun o'zini xotini tomon otdi. Bi-roq Alyonka qovog'ini solib, keskin bir ishora bilan uni to'xtatdi.

– Yaqinlashma menga, yaqin kelma, – dedi buyruq ohangida. – Men murdor qo'llarda bo'lganman...

– Bilaman, – dedi Ivashko ko'zini yerga tikib. U teztez nafas olardi. – Bilaman iflos quldorlarning fe'lini. Ammo diling pok bo'lsa, bas. Men hech qachon sendan yuz o'girmayman.

Shuni deb u Alyonushka tomon yurdi, u ham chidab turolmadi, jiqla yoshga to'lgan ko'zlarini yumib,

---

eriga otildi. Ko'zlariga kelgan yoshni yashirish uchun erkaklar teskari o'girilib olishdi, chol va kampirlar yoshga to'lgan ko'zlarini etaklari bilan artishdi.

## XI

Abdullaxon Moskva podshohi uchun sovg'a-salom hozirladi. O'sha vaqtarda xon bilan podshoning bir-birlariga yuboradigan sovg'a-salomlari bu ikkala hukmdor o'rtasidagi savdo-sotiqning bir shakli edi. Tijorat o'z qiyofasini o'zgartirib, sovg'a-salom libosini kiyib olgandi.

Tong qorong'isida tuyu karvoni shahar darvozasiidan jangir-jungur qilib yo'lga chiqdi. Balx va Kobul borgan, mollarini pullab, o'z yurtlariga o'ynab-kulib qaytayotgan rus savdogarlari elchilar karvoniga er-gashdilar.

Tuyalarga Movarounnahr hunarmand-kosiblari-ning dastgohlarida to'qilgan shoyi, atlas, beqasam, duxoba, zarbof matolar, gilamlar, Buxoro ustalari ishlagan oltin ko'zalar, dandon sopli pichoqlar, oltin suvi bilan gul solingan egarlar, Hindiston dorivor-ziravrorlari ortilgan edi.

Eng keyingi tuyaning bo'yniga osilgan katta qo'ng'iroq jaranglab, Buxoro bozorlarining ravnaqi va hunarmand kosiblarning ishi rivoj topishidan darak berar, bu ulug' karvonning yaxshi niyat bilan Moskvaga ketayotganini e'lon qildi.

Ot ustida yonma-yon ketayotgan Ivan Bochkov bilan mulla Shokir og'izlari quloqlarida, bir nimalar to'g'risida gaplashib borishar, katta qo'ng'iroq ularning gapiga jo'r bo'lardi.

\* \* \*

...Karvon Urganchdan jo'naganda, qorachadan kelgan chiroyli bir yigitcha ham yo'lovchilarga qo'shilib

---

---

oldi. U doim Bochkov bilan birga yurar, undan bir qadam ham jilmasdi.

Buxoro savdogarlari bilan birga ketayotgan Hoji Baxshillo boshda bu yigitga ko‘p e’tibor bermadi: «Ur-ganch bozoridan sotib olingan qul bo’lsa kerak», deb o‘yladi. Biroq Ustyurt sahrosidagi bir quduq yonida uni yaqindan ko‘rib qolib, rangi o‘chib ketdi. Yigitning aft-basharasi Zahronikiga o‘xshardi. Yigit ham Hojini ko‘rishi bilanoq, yuzini teskari o‘girib, quduq yonidan nari ketdi. Hoji og‘zini ochib, anqaygancha uning orqasidan qarab qoldi. Savdogarlardan biri uning holini ko‘rib, kulib yubordi va sheriklariga ko‘z qisib qo‘ydi.

Ziyarak Hoji bu «yigit» Zahroning o‘zginasi ekanini darrov payqagandi...

U o‘z yesirini qaytarib olish niyatiga tushib, shu haq-da mulla Shokirga og‘iz ochganida, u zaharxanda qilib:

– Bu yer Buxoro emas, Ustyurt sahrosi. Qo‘lin-gizdan kelsa, joriyangizni Ibondan tortib oling-chi, bir ko‘raylik, – dedi.

Hoji bu ishga qo‘li kaltalik qilishini anglab, boshini changallagancha qoldi. U hamrohlarining kayfiyatini yaxshi bilar, ulardan hech biri yordam bermasligini tushunardi. Buxoroliklar bir-birlariga ko‘z qisishib, zimdan kulishardi. Ular o‘z yori bilan topishgan Zahroga xayrixoh edilar.

Hoji alamini ichiga yutib, tishini qayrab borar, lekin yolg‘iz bo‘lgani uchun qo‘lidan hech ish kelmasdi.

\* \* \*

Taishev boshliq elchilar karvoni 1590-yil yozida Moskvaga eson-omon yetib keldi. Elchi, odatga mu-vofiq, elchilik mahkamasiga mukammal yozma his-sobot topshirib, safar chog‘ida ro‘y bergen hamma hodisalarни birma-bir bayon qildi.

U, avvalo, o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajo keltirganini, rus savdogarlari uchun O‘rta Osiyo bozorlari ochiq ekanini bayon etdi. Biroq o‘z ishida ro‘y bergan xatolarni ham yashirmadi, qabul marosimida Bochkovning ko‘rsatgan jasoratini batafsil hikoya qilib, shu bilan birga, Buxoroga ketayotganda, Sviyaga soyi bo‘yida bo‘lib o‘tgan mojarolarni, Ivan ning besh oy zindonda yotganini ham yashirmadi. Hisobot oxirida Bochkov Buxoroning eng mo‘tabar kishilaridan bo‘lgan Hojining yesirini tortib olgani ni, buning oqibati xunuk bo‘lishi mumkinligini qistirib o‘tdi.

Elchilik mahkamasi bu ish bilan batafsil tanishish uchun Bochkovni chaqirtirib, so‘roq qilishga qaror qildi.

Ivan Bochkov esa boshi uzra xatar bulutlari aylana boshlaganini sezmay, safardan keyin o‘z izbasi da orom olar, uning novchadan kelgan, barvasta, g‘ayratli onasi o‘g‘lini yosh boladay ardoqlab, atrofida parvona bo‘lar, uning og‘ziga yoqadigan ovqatlar ni pishirib berar, undan ko‘zini uzolmas edi. Ivan onasini xafa qilmaslik uchun Buxoro zindonida yotganini, bir necha kun bozordagi o‘tkinchilar sadaqasi bilan kun kechirganini gapirib bermagan edi. Biroq kampir bu gaplarni birovlardan eshitgan va o‘g‘liga mehr-muhabbati o‘n chandon oshgan edi.

Zahroni uyiga boshlab kelganida, onasi uni noxushlik bilan qarshi oldi, o‘g‘lini bir chekkaga chaqirib:

– Boshingga urasanmi basurmankani? Uni uydan jo‘nat, senga manaman degan savdogarlardan biring qizini olib beraman, – degan edi.

– Onajon, savdogar qizi kelin bo‘lib kelsa, seni mensimay qo‘yadi, mujikvachcha deb seni chiqishtir maydi, bu bo‘lsa tiling bilan teng aylanadi, xizmatningni qilib, joningni kirgizadi, – deb Ivan Zahroning boshidan o‘tgan fojiali voqealarni gapirib berdi, onasi buni eshitib, shashtidan tushdi.

---

---

– Bo'lmasa, xristian dinini qabul qilsin, keyin ko'rarmiz.

– Onajon, uning qalbi xristian, nima qilasan cho'qintirib?

– Tokaygacha cherkovga bir o'zim boraman, o'g'lim? Boshqa kampirlar o'z kelinlari bilan birga ibodatga borishadi.

– Har xil, onajon. U bechora bir oz o'ziga kelsin, keyin bir gap bo'lar.

Zahro qo'shni xonada mato to'qish bilan band, o'tib ketgan sarguzashtlarini eslardi.

Alyonka bilan uning eri o'z xo'jayinlaridan qochib ketganlariga besh yildan oshib ketgani uchun boshqa xo'jayinga qul bo'lish «huquqi»ga ega edilar.

– Yuzi qaro Hojining qo'lidan qurtildig'imma ko'nglim inonmayur, – dedi Zahro kulib. – Sen o'z kishingni topding, koshki edi men-da o'z qardoshimi topsam!

Taqdirlari bir-biriga o'xshagan bu ayollar bamay-lixotir suhbatlashib o'tirisharkan, katta darvoza bir-dan taqillab qoldi.

– Och darvozani, Ivan! – shovqin soldi birov.

Bochkov derazadan pristavni ko'rib, bosh yalang ko'yakchan holda yugurib borib, darvozani ochdi.

– Kiyinib ol, yur men bilan Kremlga.

– Nima gap o'zi? – yuragi po'killab so'radi Ivan. – Tinchlikmi? Aytsang-chi!

– Borganingda bilasan, tez bo'l!

Kremlda amaldorlar Ivanni o'rtaga olib, qattiq so'roq qildilar. Ivan oqizmay-tomizmay hamma voqeani hikoya qilib berdi. Hatto bosh elchi Taishevni yo'lda yomon so'zlar bilan haqorat qilganini ham yashirmadi.

– Nima uchun Buxoro vakilini suvga botirib yubormoqchi bo'lding?

Ivan Sviyaga daryosi yaqinida bo'lgan voqealarni ko'z oldiga keltirib, yuragi orqasiga tortib ketdi. «Darhaqiqat, Buxoro vakili cho'kib o'lsa yaxshi bo'lar-

midi? Qudratli Abdullaxon to'nini teskari kiyib olib, Rossiyaga talay zarar yetkazgan bo'lardi».

Garchi hozir Bochkov vijdon azobi bilan qiynalayotgan bo'lsa-da, bo'sh kelsam, unda oqibat xunuk bo'ladi, deb o'ylab, o'zini oqlashga tirishdi:

– Vakil o'zini o'zi suvga tashladi, hech kim uni itarib yuborgani yo'q.

– Undog' bo'lsa, vakilni ushlab qolmoqchi bo'lgan qarchig'aychiga nega monelik qilding?

«Obbo, bular surishtirib, hamma gapni miridan-sirigacha bilib olibdilar-da», deb o'yladi Ivan va gap topolmay:

– Mast edim, kechiringlar, – dedi.

– Agar Hojiga qul xotinni qaytarib bersang, kechiramiz, – dedi Shchelkalov.

Boyarning boshidagi uzun telpagi, uzun soqoli yuzini yanada salobatliroq qilib ko'rsatar edi. Tikilganda kishiga bigizdek qadaladigan bu mitti ko'z, serg'ayrat kishidan rahm-shafqat talab etish befoyda ekanini Ivan darrov payqadi, shunday bo'lsa ham, «Persidkani qaytarib yubormang, men unga uylaman», deb unga yalinib-yolvordi.

– Bizning buyrug'imiz shu. Uni ikki marta takrorlamaymiz, – dedi Shchelkalov iltimosini rad qilib.

Ivan Bochkov noiloj boshini quyi solib, Kreml hovlisiga chiqdi. Moskva daryosining naryog'ida, pastlikda qarag'ay g'o'lalardan yasalgan pastak izbalar, eman g'o'lalaridan qurilgan boyarlarning ko'shklari, tegirmونلار, oltin qubbali cherkovlar, uzoqlarda-gi kungurador archazorlar doka orasidan ko'ringan lavhadek uning ko'z o'ngida jilvalananar edi. Chet ellarda yurgan vaqtida ham bu hazin manzara uning ko'z o'ngidan nari ketmas, mehribon onadek doim o'z quchog'iga chorlar edi. Bu jozibador manzara qarshisida u go'yo sehrlanganday qotib qoldi. Shu payt Ulug' Ivan cherkovining qo'ng'irog'i jaranglab, xristianlar-

---

---

ni kunduzgi ibodatga chaqira boshladi. Ivan Bochkov boshidan shapkasini olib, ikki barmog'i bilan cho'qindi-da: «Borisning oyog'iga yiqilib yalinaman, zora so'zimni yerda qoldirmasa», deb o'yladi.

\* \* \*

Boris Godunov shifti pastakkina xonada, sirti qizil saxtiyon bilan qoplangan o'ymakor o'rindiqda o'tirardi. Uy issiq. U ko'kragini ochib tashlagan, kaftan ostida-gi Buxoro pushtirang shoyisidan tikilgan ich ko'y lagi ko'zga chalinar, uning ro'parasida qorni katta sersoqol savdogar Mansurov qo'l qovushtirib, oyoq ustida turardi. Yaqindagina xristian diniga kirgan bu odam Sibirga qatnar, Borisga foydali xabarlar keltirardi. U o'z oilasini yaqinda Qoshliqdan Moskvaga ko'chirib olib kelgandi. Zaryadeda uning ko'k va qizil rangga bo'yal-gan, o'ymakor yog'och imorati qad ko'tarib turardi.

– Kuchumxon askarini ko'paytirayotir. Tavakkalxon dan yordam so'rab, odam yuborgan ekan, u ko'mak berishdan bosh tortibdi.

– Buxoroliklar Sibirga qanday mollar olib kelib sotyaptilar? Qilich, qalqon,sovut keltiryaptilarmi? – deb so'radi Boris uning gapini eshitmagandek.

– Buxoro savdogarlari Sibirga ip gazlama, ko'ylak-lozim, tayyor chopon, do'ppi, belbog', quruq meva va boshqa narsalar keltirib sotadilar. Chegarada bizning kazaklar ularning mollarini tintib, qurol-yaroq topsalar, tortib oladilar. Endi buxoroliklar sovut, qalqon, qilich, pichoq keltirmay qo'yishdi. Kazaklardan qo'rqishadi. Yaqinda Kuchum Abdullaxonga yorliq yuborgan ekan, biznikilar uni qo'lga tushirishibdi.

Boris «hm», deb miyig'ida kulib qo'ydi. Kuchumning o'sha yorlig'i uning po'lat sandig'ida edi.

– Sibirga buxoroliklar bola-chaqalari bilan ko'chib kelyaptilar. Savdo-sotiq ishlarini qo'lga olib, Sibir bozorlaridan bizni siqib chiqaryaptilar.

Boris miyig'ida kulib:

– Qo'rqma, seni sindirolmaydilar, – dedi, – orqangda biz bor. Har qancha yordam bo'lsa, biz ayamaymiz.

– Rahmat, o'la-olgunimcha xizmatingizga tayyorman.

– Tayyor bo'lsang, tezlikda Qoshliqqa jo'nasang, muhim ish bor, – dedi Boris amirona.

– Kechagina o'sha yerdan keldim, mollarimni sotib ulgurganim yo'q. Bu yerdan mol xarid qilmay qayerga boraman? Hamma shubhaga tushib qoladi-ku!

– Qo'rqma, men senga mol beraman. Gappa qulqoq sol! Eshitishimcha, sibiriyalik bir tatar Vaska Shuyskiyga besh bog'lam suvsar teri keltiribdi. Kim bilsin, ehtimol, bu Kuchumning tortig'idir! Qoshliqqa borib, o'sha savdogar kimning sovg'asini keltirganini bilib kel. Qoshliqdan Moskvaga cho'zilgan xiyonat iplarining hammasini uzib tashlash kerak.

– Bu qiyin ish. Bilib qolishsa, tiriklayin terimni shiladilar.

– Qo'lga tushmaysan, Qoshliqda sendan ayyor va aqlli odam yo'q!

Boris o'midan turib, Mansurovning yelkasiga qo'llini qo'ydi va tabassum bilan dedi:

– Agar shu topshiriqni bajarsang, rus dvoryani bo'lasan. Uralning naryog'idan besh ming desyatina yer in'om qilaman.

– Boyarin, men uchun minglab desyatina yerdan sening lutf-karaminga qimmatlidir. Sen uchun o'zimni o'tga tashlashga tayyorman!

\* \* \*

Ivan Bochkov Borisning huzuriga kelib, arzini aytdi.

– Sening lutf-karamingga ishonaman, Boris Fyodorovich, bilaman, dodimga yetasan.

Godunov kulimsirab:

– Uylanmoqchimisan? – deb so'radi.

– Ha, uylanish vaqt-soati yetdi.

---

---

– Xayrli ish. Uylanish – har bir voyaga yetgan yigitning burchi.

– Ruxsat etsang, o'sha... persidkani nikohimga ol-sam...

Boris «hm», deb qo'ydi-yu, indamadi, buxoroliklar ni xafa qilib qo'ysak, qandoq bo'larkin, deganday unga qarab qo'ydi.

– Men uni xo'jasidan tortib olganim yo'q. O'zi Buxorodan to shu yergacha menga ergashib keldi. Hozir uyimda. Egasiga qaytarib bersam, o'diradi. Nima gunoh qildi bechora?

– Gunohi – egasidan qochgani. Agar biror badavlat odam, qulim qochdi, ushlab, menga qaytarib ber, deb iltimos qilsa, qaytarib beraman. Qullardan biron tasi-ga rahm qilsang, hammasi xo'jasidan qochib ketadi. Biz uchun hamma narsa o'z joyida turgani yaxshi... Qul egasiga qaytgani yaxshi. To'g'risini aytam, sen-ga achinaman. O'sha qiz xristian dinida, o'zi sening nikohingda bo'lganida boshqa gap edi, ammo...

Bochkov o'rnidan turib, ta'zim qildi-da, indamay chiqib ketdi.

«Zahroga nima deyman-a? Seni o'sha berahm xo'jangga qaytarib beraman, deymanmi? Shu gapni aytgandan ko'ra tilim kesilgani yaxshi emasmi? Yo'q, hamma narsadan kechib, Zahro bilan birga Donga qochaman, erkin kazak bo'laman», deb o'yladi u.

## XII

Ivan Bochkov qo'rasiga qaytib keldi-da, uyiga kirmay, chordoqqa chiqib, xushbo'y pichan ustiga cho'zildi. Uning boshi karaxt, fikrlari ostidagi pichan singari chuvalib ketgan, nomus va g'azabdan badani misdek qizib yonardi. U titragan qo'llari bilan sochini tuzatib, uyasi buzilgan arilardek to'zib ketgan o'ylari ni tartibga solishga urinib ko'rди. «Bu gapni Zahroga

qanday aytaman?» degan fikr uning miyasini o'yar, o'ylarini yig'ishtirib olishga xalal berardi.

Onasi uni axtarib, pichanxonadan topdi. O'g'li hovlidan o'tib ketayotganda ko'rib qolgan edi.

– O'g'lim, nima qilib yotibsan bu yerda? Yur!

– Onajon, birpas meni o'z holimga qo'y!

– Nima, basurmankaga uylanishga ruxsat berish-madimi?

– Ruxsat berish u yoqda tursin, o'lganning ustiga chiqib tepgandek, persidkani egasiga qaytarib ber, deyishyapti.

– Egasiga-ya? O'sha berahm dajjolga-ya! Shunday begunoh malakni yovuz qo'liga topshirish xristianlikka to'g'ri keladimi? Kim shunday dedi?

– O'zi.

– Nima, sen Boris Fyodorovichning oldiga borgan-miding?

– Ha, borgandim.

– Tag'in nima dedi?

Ivan Borisning aytganlarini birma-bir gapirib berdi. Borisning: «Agar o'sha qiz xristian dinida, o'zi nikohingga bo'lganda boshqa gap edi», deganini eshitib, kampir birdan shoshib qoldi.

– O'g'lim, tur o'rningdan. Zahroga ayt, toza oq ko'ylagini kiysin. Sandig'imdan ro'mol olib beraman, boshiga o'rab olsin. Bisotimda kiyim-kechak ko'p... Vaqt choshgohdan oshdi, ixtiyorimizda bir kungina qolgan. Tez bo'l, o'g'lim!

Kampir o'g'lini o'z holiga qo'ymay pastga olib tushdi.

– Ayt, tezroq bo'lsin, men popning oldiga ketyapman...

\* \* \*

Oradan bir necha kun o'tdi. Elchilik mahkamasiga Hoji Baxshillodan, boshliq meni qabul qilib, dodimni eshitsin, degan mazmunda arznomaga tushdi. Hoji

---

---

rasmiy vakil bo'lмаганлиги үчүн Shchelkalov у билан уchrashishdan bosh tortishi mumkin edi, ammo o'ylab-o'ylab, mayli, ertaga kelsin, qabul qilamiz, dedi.

Hoji ertasiga sahar paytida mahkamaga keldi. Erta kelgan kotiblar uning eshik tagida o'tirib, keyin birdan o'rnidan turib ketganini, g'udranib, u yoqdan-bu yoqqa yurganini ko'rdilar. Hoji o'z tilida kotiblarga allanima deb tez-tez gapirar, biroq ular o'zlarini til bilmaslikka solib, yelkalarini qisib qo'yardilar.

Mahkama boshlig'i kun yoyilib ketgandan keyin keldi. Hoji qo'lini paxsa qilib, qimmat pulga sotib olgan joriyasini Ivandan olib berishni talab etdi.

– Bir hamyon pulmidiki, joriyangni Ivan qo'lingdan tortib olsa? – deb zaharxanda qildi Shchelkalov.

Hoji qizarib-bo'zarib, bo'lib o'tgan voqeani bat afsil gapirib berdi.

– Bundan chiqdi, Ivan sening hech narsangni o'g'irlamagan. Joriyang o'z xohishi bilan kelib, uning ixtiyoriga o'zini topshirgan, shundaymi?

– Ibon shul ishni ixtiyor qilg'oni үчүн Buxoroga mahbus bo'lg'on erdi. Ani yana zanjirband aylab, zindonga solmoq kerak.

– Ivan sening chaqirig'ing bilan zindonga qamatilganmidi? – deb so'radi amaldor ovozini balandlatib.

– Ha... yo'q... Buxorog'a mening dodimg'a go'sh beraturg'on yaxshi odamlar topildi, alar...

Shchelkalov qovog'ini solib:

– O'tir, – dedi. – Biz bu masalani tekshirib, tezda bir yoqlik qilamiz.

U shaxdam qadam tashlab, xonadan chiqib ketdi. Oradan bir qancha vaqt o'tgandan keyin Hoji uzoqdan allakimlarning g'o'ng'illab gaplashayotganlarini eshitdi. U hech narsa tushunmasa ham nafas olmay, qulog'ini ding qilib o'tirdi. Uning qulog'iga Ivanning ovozi chal ingandek bo'ldi. Bir narsa chaqib olgandek, sakrab o'rni-

dan turib ketdi, keyin o'tirib, yana quloq tuta boshladi. Ovozlar borgan sari pasayib, keyin jimib qoldi.

Birdan eshik ochildi-yu, ostonada Shchelkalov paydo bo'ldi, orqamdan yur, degandek qilib qo'li bilan imladi.

Ular allaqanday dahlizlardan o'tib, pastak o'yma-kor qora eshik oldida to'xtadilar. Hoji eshikning toshdan qilingan tepadoriga boshini urib olishdan qo'rqqandek, engashib ichkari kirdi. Boshini ko'tar-ganda, ro'parasida Godunovning bir oz qiyiq aqli ko'zlariga ko'zi tushdi.

– Sening arznomangni oldim. Xo'sh, nima gap o'zi?

Hoji shoshib-pishib, o'zining boshidan o'tgan shar-mandal voqealarni gapirib berdi.

– Joriyamni qaytarib bering, jazosini beray. Ibonni ham...

– Yo'q, biz joriyangni qaytarib berolmaymiz.

– Buxoroga borib, xonning oyoqiga yiqilurman, u o'zi qozilik qilsin. O'ylaydurmanki, xon Ibonni so'rattirib olib, jazosini bergay...

– Ey hurmatli janob, yosh bolaning gapini qilyapsiz. Abdullaxon aqli odam, u bizga do'stlik qilib, barcha rus asirlarini qullikdan ozod etdi. Ajabo, shunday ezgu ishni qilgan odam bizning tabaalarimizni so'rattirib olib, yana qullikka soladi, deb o'ylaysizmi? Joriyangni hech kim qo'lingdan tortib olgani yo'q, o'zi Buxorodan ketibdi. Moskvaga kelib, xristianlikni qabul qilibdi va bizning dvoryanlardan birining ahdi nikohiga o'tibdi.

– Nima? Kim ijozat beribdur anga kuyovga chiqmoqqa?

– U sening xotining emaski, sendan ijozat so'rasha... Boshi ochiq ayol. Bizning kichik amaldorlarimizdan Bochkov cherkovda nikoh o'qittirib, uni xotinlikka olibdi. Birovning xotinini tortib olib, senga berolmay-

---

---

man. – Boris shunday deb o‘rnidan turdi. Hojining tili kalimaga kelmay, turgan joyida taxtadek qotib qoldi.

\* \* \*

Oradan bir necha kun o‘tdi. Buxorolik savdogar-larning karvoni Moskvadan jo‘nab ketayotgan edi. Ustiga toy-toy yuk ortilgan aravalalar g‘ijirlar, aravakashlar hayqirib, qamchilarini shaqirlatar, Hoji Baxshillo bilan mulla Shokir karvon ketida otlarini haydab borar edilar. Ular tong g‘ira-shirasida Ivan Bochkovning yog‘ochdan yassalgan baland imorati yonidan o‘tdilar, uning derazalarida chiroq ko‘rinmas, kelin-kuyovning baxt chirog‘i tong shafag‘i singari yorqin nur sochib yonmoqda edi.

## **MUNDARIJA**

|                            |    |
|----------------------------|----|
| Aljabrning tug‘ilishi..... | 3  |
| Karvon yo’llarida.....     | 28 |

---

*Adabiy-badiiy nashr*

MIRKARIM OSIM

### **ALJABRNING TUG‘ILISHI**

*Qissalar*

Muharrir

Fazilat MUHAMMADIYEVA

Musahhih

Sadoqat QARSHIBOYEVA

Badiiy muharrir

Nigora UMARQULOVA

Texnik muharrir

Umidbek YAXSHIMOV

Kompyuterda sahifalovchi

Dildora JO’RABEKKOVA

Litsenziya raqami: № 252, 2014-yil 2-oktabrda berilgan.

Bosishga 2017-yil 30.06 da ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tabog‘i 4,5. Shartli bosma tabog‘i 7,56.

Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog‘ozи.

Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 178.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.

MCHJ «Yoshlar matbuoti» bosmaxonasida chop etildi.  
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko‘chasi, 60.

### ***Murojaat uchun telefonlar***

Nashr bo‘limi – 147-00-14, 129-09-72.

Marketing bo‘limi – 128-78-43; 397-10-87; faks – 273-00-14;  
e-mail: yangiasravlodi@mail.ru